

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHUKURULLO MARDONOV
UMIDA ZOKIROVA

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

O‘quv qo‘llanma



TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO'K 37.013(075.8)
KBK 74.03ya7
M 26

Mardonov Sh., Zokirova U.

Pedagogika nazariyasi va tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma /Sh. Mardonov, U. Zokirova.

– Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – 272 b.

Mas'ul muharrir
prof. G.I.Muxamedov

Taqrizchilar
prof. U.I. Mahkamov
prof. A.T. Nurmanov

Respublikamizda oliy ta'limni rivojlantirish mazmuni va o'qitish texnologiyalari, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqining badiiy merosi yuksak estetik qadriyatlari negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash orqali kasbiy kompetentligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari oshirilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishi"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqi badiiy merosining yuksak qadriyatlari negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash, ularning kasbiy pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiya-larini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatning reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarblik kasb etadi. Qo'lingizdagi o'quv qo'llanmasi ushbu muammoning echimiga qaratilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmasi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi xodimlari, talabalar hamda hozirgi ta'lim-tarbiya muammolari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23 noyabrda 500-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7090-2-7

SO‘Z BOSHI

Jahonda rivojlangan mamlakatlar globallashuv sharoit-larida madaniy-ma'naviy taraqqiyot yo'lida madaniy-badiiy meros, madaniy-axloqiy, ma'naviy-estetik qadriyatlarini saqlab qolishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, o'qitishning metodik ta'minotini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillash-tirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etishga muhim omil sifatida qaralmoqda. YUNESKOning Bosh Assambleyasida¹ O'rta asrlar Sharq mutafakkirlarining dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, ularning boy ilmiy-ma'rifiy merosi, erishilgan natijalarini muntazam o'rganish orqali fan va ta'lim tizimini rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jahon fan va madaniyatini o'rganish jarayonida talabalarning badiiy-estetik qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglay olishiga erishish, badiiy-madaniy merosga internal (o'zi) va eksternal (o'zga) motivatsiyasini shakllantirish, pedagogik idrok qilish vositasida talabalarning ko'nikma va malakalarini rivojlan-tirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda ta'limni mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, o'qitishni yangi strategiyalarga moslash-tirish, ta'limning axborot bazasini kasbiy pedagogik faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning ilmiy-amaliy negizlari bo'yicha, jumladan, Angliyaning (Cambridge University), Germaniyaning (Technische Universitat), Rossiyaning (Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg davlat universiteti), Chexiyaning (University of Ostrava) kabi Yevropaning rivojlangan mamlakatlarining etakchi universitetlarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim va tarbiya sifatini baholashning xalqaro normalarini joriy qilish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatli munosabatlarning qaror topganlik darajasini belgilash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda oliy ta'limni rivojlantirish mazmuni va o'qitish texnologiyalari, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, demok-

¹ YUNESKO Bosh Assambleyasining O'rta asrlar Sharq allomalarining dunyo tamaddumida tutgan o'rni// Xalqaro konferentsiya, 1998-y. Parij sh.

ratlashtirish, bo'lajak o'qituvchilar-ni o'zbek xalqining badiiy merosi yuksak estetik qadriyatlarini negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash orqali kasbiy kompetentligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishi"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqi badiiy merosining yuksak qadriyatlari negizida ma'naviy-estetik tarbiyalash, ularning kasbiy pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish hamda innovatsion faoliyatning reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2020-yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Estetik tarbiya, ma'naviyat, shaxsning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirish muammosi ham chet ellarda, ham mahalliy pedagogikada, shu jumladan milliy-umumestetik qadriyatlar darajasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –Toshkent, 2017. –39 b.

hal qilinmoqda.

Mamlakatimiz pedagogikasida estetik, ma'naviy (asosan axloqiy) tarbiya muammosi: falsafiy va estetik jihatdan - S.Sh. Shermuxamedov, T.Mahmudov [99; 175] lar tomonidan; umumiy uslubiy va nazariy jihatdan – A.Abdunabiyev, Sh.Quronboyev, Sh.Kurbonov, T.Muradimova, S.Ochilov, [29; 90; 89; 102; 114]lar tomonidan tahlil qilingan.

Ma'naviyat, shu jumladan milliy qadriyatlar muammosi A.Azizxonov tomonidan [35; 36]; yosh avlodning milliy an'analar asosida ma'rifiy, ma'naviy fazilatlarini shakllantirish – N.Azizxodjayeva, M.Inomova, Sh.Mardonov, O.Musurmanova, S.Nishonova, K.Xashimov [37; 73; 98; 103; 111; 169; 170] lar tomonidan o'rganilgan.

O'quv-tarbiyaiy jarayonida milliy ma'naviyatni tiklash, yoshlarni estetik (badiiy) tarbiyalashda milliy merosning o'rni va roli S.K. Annamuratova, D.A. Djamolova, S.X. Fayzullina, R.X. Xasanovlarning asarlarida o'z aksini topgan [40; 62; 162; 168].

Talabalarning estetik tarbiyasi, bu jarayonda shaxsni shakllantirish, jumladan san'at asarlarini o'rganish jarayonida shaxsning ma'naviy-estetik fazilatlarini bilan bog'liq ba'zi jihatlar Rossiyalik olimlar E.V.Kvyatkovskiy, B.T.Lixachev, P.M. Yakobson, O.Suxodolskaya-Kuleshova [80; 95; 180; 152]lar tomonidan o'rganilgan.

O'quv qo'llanmasida, shuningdek bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimi haqidagi bilimlarni aniqlashtirishga doir o'quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi; talabalarda badiiy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning samarali didaktik ta'minoti ishlab chiqildi, tadqiqot natijalarining bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishga doir samarali yondashuvlar ishlab chiqildi.

Qo'llanmada respublikamizda ushbu muammo bilan shug'ullanib kelayotgan olimlar izlanishlarining umumlashtirishi asos vazifasini o'taydi.

Kitob qo'lyozmasini o'qib, o'z fikr-mulohazalarini bildirgan ushbu sohaning etuk olimlari pedagogika fanlari doktorlari, professorlar Sh.S.Sharipov, U.I.Mahkamov, A.T.Nurmanovlarga o'z minnadorchiligimizni bildiramiz.

Qo'llanma haqidagi xolisona fikrlarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz (Jizzax davlat pedagogika instituti, Sharof Rashidov shox ko'chasi, 4-uy).

I BO‘LIM. PEDAGOGIKA TARIXI KURSIGA KIRISH. ENG KADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA‘LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Reja:

1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asosi.
2. Birinchi prezident I.A.Karimov tarixiy merosdan foydalanish haqida.
3. Eng qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti yodgorliklarida inson tarbiyasiga oid fikrlar.
4. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida.
5. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta‘lim-tarbiya masalalari.

Tayanch tushunchalar: “Pedagogika tarixi”, “Pedagogika tarixi predmeti”, “Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi”, “Tarixiy meros”, “Avesto”, “Ma’rifiy meros”, “Ma’naviyat”, “Tarixiy xotirasiz - kelajak yo‘q”, “Sharq Yevropaning muallimidir”. Tarbiya - ijtimoiy hodisa, qadimiy yodgorliklar, qadimiy madaniyat, dastlabki yozuvlar, o‘g‘itlar, “Avesto”da axloqiy uchlik, O‘rxun-Enisey yodgorliklari, eng qadimgi davrlarda insonda ulug‘langan asosiy hislatlar.

1.1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, vazifasi va metodologik asosi

Ko‘hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadryatlarining mustaqillik tufayli qayta tiklanishi va rivojlanishiga muayassar bo‘ldi.

Sobiq sho‘ro tuzumi davrida o‘zbek xalqining madaniyati, maorifi, ijtimoiy ma’naviy, ma’rifiy sohadagi yutuqlari kamsitilib, asosan maorif va madaniyat G‘arbda rivojlanib, keyinchalik Sharqqa ta’sir etgan degan fikrlar singdirib kelingan edi.

Mutaqilligimiz sharofati shundaki, tarixni buzib ko‘rsatishga chek qo‘yildi. Turon zaminida yashagan xalqlarning ma’rifiy-madaniy qarashlari eng qadimgi davrdan yuksak ekanligi olimlarimiz tomonidan

isbotlab berildi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilm-parvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, sahovat kabi umuminsoniy fazilatlarini ruxida tarbiyalab kelgan, xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda **zardushtiylik** dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ning bizgacha etib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan.

Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari, so'ngra Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab istilochilari olib borgan talonchilik, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo'qotib yuborildi. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarini, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tadbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

Mustaqillikka erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Yevropa pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasi bilan G'arb pedagogikasining eng ilg'or an'analarni o'rganishga e'tiborni qaratishdan iboratdir. Chunki ilmu-fan avval Sharqda taraqqiy etgan. Buyuk nemis olimi Xerler: «Sharq Yevropaning muallimidir» -deganda xaq edi.

Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat, ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», So'g'd, Baqtriya, Urxun-Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida yuzaga kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar bo'lganligidan dalolat beradi. Xaqiqatdan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifamizdir.

Bu esa qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarini

bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy pedagogik tafakkur iste'moliga kiritishni taqozo etadi. VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlana bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish orta boshladi. O'sha tarixiy davrda al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Farg'oniy, al-Beruniy, ibn Sino, az-Zamaxshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. Ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarni o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham asosiy rol o'ynadilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta'limotni yaratdilar. XV - XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumi, Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur, singari allomalarni voyaga etkazdi. U davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi.

Demak, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Oktyabr to'ntarishidan keyin, ya'ni 1917-yildan boshlab Turkiston mintaqasida «Yashin tezligida» Sho'ro hokimiyati o'rnatila boshlandi. Bu tuzum komunistik mafkurani targ'ib va tashviq qildi. Sho'ro hokimiyatining dastlabki-yillarida Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni mustahkamlash vazifalari ko'ndalang qilib qo'yiladi. Unda yoshlar ongiga mustabid hokimiyat g'oyalarini singdirish, shu ishlarni amalga oshiradigan pedagog xodimlar tayyorlashga e'tibor berildi. U ishlarni amalga oshirishda Rossiya xalq ta'limi yo'nalishi va tizimi etakchilik qilgan. Tarixdan ma'lumki, qaysi davlat yoki mamlakat hukmron bo'lsa, u tobe mamlakat va xalqqa o'z mafkurasini, madaniyatini, axloq-odob aqidalarini singdirishga harakat qilgan.

1924-yildan boshlab Turkistonning parchalanishi, milliy respublikalar tashkil etilishi oqibatida milliy madaniyat yo'li asta-sekin to'sila boshlandi. Asrlar osha amalda qo'llanib kelingan, qomusiy ilmlar bitilgan yozuv man etildi. Avval lotin keyin rus grafikasi asosida qurilgan yozuvga o'tildi. Bu tadbir Markaziy Osiyo xalqlarining o'z madaniyati tarixini o'rganish imkoniyatidan mahrum qildi.

Maktablarda dunyo fanini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan

o'zbek fan va madaniyatining asoschilari, musulmon olamining ulug' zotlari emas, balki o'zbek xalqi kamolatiga aloqasi bo'lmagan shaxslar faoliyati o'rgatildi.

Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Muhammad Alayhissalom xadislari o'rganish taqib ostiga olindi. Natijada o'zbek xalqi milliy axloq-odobi va tarbiya an'alaridan mahrum bo'la boshladi. Bu yo'qotish o'zbek fani, madaniyati va pedagogika fanlari rivojlanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

1991-yilga kelib, O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o'zining yangi milliy Qomusi asosida hamma sohada bo'lganidek o'zbek milliy fani va madaniyati, "Pedagogika nazariyasi va tarixi"ga ham yangicha yondashish imkoniyati tug'ildi.

O'tmishda atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, ularni o'rganish pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o'rganmoqchi bo'lgan pedagogika nazariyasi va tarixi fanining maqsad va vazifalarini aniqlashimiz va buni ta'lim-tarbiya jarayonida amaliyot bilan bog'lab qo'llashimiz va takomillashtirishimiz lozimdir.

Demak, "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani eng qadimgi zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlardagi tarbiya, maktab va pedagogik nazariyalar taraqqiyotini milliy va umuminsoniy aqidalarga tayanib o'rganadi. Zero, pedagogika tarixi fanini o'rganish o'qituvchining pedagogik mahoratini, madaniyatini oshiradi. Unga o'tmishdagi eng yaxshi tajribalarni hozirgi zamon maktablari ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'lab tahlil etish imkoniyatini yaratib beradi. Bu fanni o'rganish o'qituvchining umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosga to'g'ri munosabatda bo'lishiga undaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, biz pedagogika tarixini o'rganishimiz orqali jahon madaniyati, ta'lim-tarbiya, maorif muassasalari tizimini takomillashib borish jarayoni haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'lamiz. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani bo'lajak o'qituvchilarga bilim beribgina qolmay, ularda milliy iftihor va g'urur hissini ham tarbiyalaydi.

Chunonchi, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek "Xalqimiz tayanchi - ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan odilona foydalanish lozim".

Pedagogika nazariyasi va tarixi ijtimoiy fan bo'lib, tarixiy pedagogik hodisalarga davr talabi asosida yondashadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarida xilma-xil bo'lganligini ochib beradi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fani quyidagi fanlar, ya'ni: pedagogika, psixologiya, madaniyat tarixi, O'zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, falsafa, etnografiya, arxeologiya, ahloqshunoslik va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Biz pedagogika nazariyasi va tarixi fanini o'rganish va tahlil qilishimizda quyidagilarga asoslanamiz. Bular: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo'l yozma yodgorliklari, Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar, matbuot materiallari, Prezidentlarimiz Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyevlarning ta'lim-tarbiyaga doir asarlari, nutq va maqolalaridir.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fanining metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining ilmiy va ma'naviy merosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqlol g'oyasi haqidagi nazariyalar hisoblanadi.

1.2. O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimov tarixiy merosdan foydalanish haqida

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, tadbir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi". Darxaqiqat, birinchi Prezidentimiz o'z nutqlarida tariximizning beqiyos o'rnini alohida iftixor bilan tilga oladi. Jumladan, 1998-yil, 26 iyunda Islom Karimov bir guruh taniqli tarixchi olimlar, jurnalistlar va ommaviy axborot vositasi vakillari bilan uchrashib, tarix fani sohasiga tegishli bo'lgan hamda hal ztilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarni o'rta ta'lim tashladi. Ushbu uchrashuv natijasida tarix fanining kelajakdagi taraqqiyoti istiqbollari o'zida mujassam etgan "Tarixiy xotirasiz

kelajak yo‘q” asari dunyoga keldi. 1998-yil 27 iyulda «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasi qarorining qabul qilinishi tarix fanini rivojlantirishni davlat ahamiyatidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanganligidan dalolat beradi.

I.A.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asari yoshlarni ma’naviy-axloqiy ruxda tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyos. Ushbu asarda tarix fanining o‘zlikni anglashdagi roli keng tahlil etib berilgan. Shuningdek, o‘zbek davlatchiligi, uning etnik tarixi, tarix fanining komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni va shu kabi masalalar ham o‘z ifodasini topgan. Istiqlol davrida tarix ilmi taraqqiyoti ham, uning istiqbollari keng qamrovli tarzda bayon etilgan.

O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarix millatni, xalqni porloq kelajak sari birlashtiradi. Uning kuch-qudrati ham shundadir. Tarixning tasirchanligi shundaki, u millatning o‘zligini anglashga yordam beradi. Millat tarixi - muayyan millatning o‘tmishini, uning asrlar davomidagi istaklari va orzu-umidlarini namoyon etadi. Shu millatning kelajak taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalqining asriy orzusi - ozodlik, erkinlik va hurlikka intilish bo‘lgan. Istiqlol sharofati orqali bu tarixiy ezgu maqsadlar ro‘yobga chiqdi. Vatan tarixida millatimizning o‘tmishigina emas, balki uning zarhal varaqlarida xalq xotirasi, ajdodlar tafakkuri va dunyoqarashi, buyuk tarixiy-ma’naviy meros mujassam. Bu millatimiz borlig‘i, o‘zligi va tirikligidir. Shuning uchun har qaysi xalq va millat borki, u o‘z tarixini tiklashga, ko‘z qorachig‘idek asrashga, uni bekamuko‘st kelajak avlodga etkazishga alohida e’tibor bilan qaraydi. Yurtboshimiz doimo tarixning kuch-qudratini his etib, bizga ajdodlarimiz boy tarixiy meros qoldirganligini, biz ham kelajak avlodga ana shunday ibratli tarix qoldirishimiz kerakligini uqtiradi. I.A.Karimov “Millatni asrash kerak, millatni asrash uchun esa uning haqiqiy tarixini o‘rganish, avaylab himoyalash kerak”ligini ta’kidlaydi (“Turkiston” gazetasi. 1999-yil, 2 fevral). Chunki millat o‘zligini va borlig‘ini o‘z tarixi bilan namoyon etadi). Haqiqiy tarix o‘rganilsagina va yaratilsagina millatning ma’naviy dunyosi yanada boyib boradi. Millat jipslashadi, u o‘zi tanlagan yo‘ldan dadil boradi. Tanlagan yo‘ldan og‘ishmaydi. Respublikamiz birinchi prezidenti Islom Karimov tarixning shu ahamiyatini teran his etadi, tarixni o‘rganish va bilish millat uchun suv va havodek zarur ekanligini

mantiqan e'tirof etadi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarini varaqlar ekanmiz "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur" degan satrlari diqqatimizni tortadi. "O'zlikni anglash" va "tarixni bilish" bu ikkala tushuncha bir-birini to'ldiradi va ajralmasdir. Bu tushunchalar agar ilmiy tahlil etilsa, ularning zamiridagi ma'no yuzaga chiqadi. Ya'ni o'zligini anglagan millat olamni taniydi, dunyoni taniydi va jahon taraqqiyotidagi o'rniga ega bo'ladi. Bunga tarixni bilish orqali erishiladi. Tarix shu yo'sinda millatni o'zligini anglatadi. Kelajakka ishonch uyg'otadi. Asarda tarixni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarurligi ta'kidlanishi nima uchunligini anglab etmog'imiz kerak. Masalaning bunday qo'yilishining sababi bor, albatta. Boy ko'xna tariximiz turli davrlarda mustabid hukmron mafkura tazyiqiga uchradi. Tariximizni o'zgalar o'z nuqtai nazaridan yozgan paytlar bo'ldi. Shu tarzda haqiqiy tariximiz sohtalashtirildi. O'tmishdan darak beruvchi nodir qo'lyozmalar, ta'lim-tarbiya, maktab-maorif masalalariga oid asarlar o'rganilmadi. Ularning ko'pchiligi mustabid tuzum siyosatining qurboni bo'ldi va talon-taroj etildi. Millatimiz o'zining tarixidan xolis ma'lumot beruvchi mahalliy tarixiy manbalardan foydalana olmadi. Shafqatsiz siyosatning ma'naviyatga va tarixga bunday yondashuvi mohiyatini I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida quyidagicha izohlab beradi. U shunday deydi: "Sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish, rag'batlantirishga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi (4-bet)". Bundan ayon bo'ladiki Sho'rolar davrida tarix faniga kommunistik mafkurani kishilar ongiga singdirish quroli sifatida qaralgan. Tarix fanining siyosatga mute bo'lishi uning cheklanishiga va voqealarning sun'iy tarzda bayon etilishiga olib kelgan. Shu bois o'zbek xalqi o'zining tarixidan bahramand bo'la olmadi. Chunki Sho'roning ma'naviy sohadagi siyosati bevosita xalqimizni o'z tarixini bilmaslik girdobiga tortish, uni o'rganishdan bebahra etish orqali millat sifatidagi tarixiy dunyoqarashini falajlash, mutelik va qaramlik his-tuyg'usini yanada mustahkamlashga qaratilgan edi. Chunki bunday yo'l milliy tarixiy dunyoqarashning o'sishiga va boyib borishiga to'sqinlik qiladi. Dunyoqarashni millat manfaatiga zid tarzda susaytiradi hamda milliy his-tuyg'uni so'ndirib boradi. Bunday ayanchli tarzda tarix ilmidan millatni har tomonlama o'zligini anglatmaslik yo'lida foydalanish

g'oyasi asosida o'quv muassasalarida o'qitishni tashkil etish Sho'ro davri siyosatining asl maqsadlarini yanada oydinlashtiradi.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ajdodlarimizning ilmiy salohiyatiga, ular qoldirgan boy tarix, ma'naviy-madaniy merosga havas bilangina emas, balki hayrat bilan qaraymiz. Ajdodlarimiz bosib o'tgan shonli tarix biz uchun ibrat va tarbiya manbaidir. Tariximizda ibrat oladigan jihatlar ko'p. Vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, xalqparvarlik va shu kabi xalqimizga xos fazilatlar bizga ajdodlarimizdan meros qolgan. Ular ma'rifatli jamiyat bino etish g'oyalarini ilgari suribgina qolmay, uning amaliy ifodasi uchun ham fidoyi bo'lganlar. Ma'rifatning qadr-qimmatini anglab etganlar. Marifatni jamiyat taraqqiyotining garovi sifatida talqin etganlar. Bu g'oya bebahodir. Ijbat topmagan va orzuligicha qolib ketgan bu g'oyalar mustaqillik ila ibrat tarzida yana jaranglay boshladi. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch – marifatdir" deb urg'u berilishi jadidchilik g'oyalarining hayotbaxsh ekanligini ifoda etadi.

Ajdodlarimiz ma'naviyatining durdonalaridan biri bo'lgan "Avesto" da tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Bu kitob Vatanimiz xududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimiy madaniyat va ma'naviyatga ega xalqlar ekanligini isbotlaydi. "Avesto"da shaxsning axlokiy xislatlari, haqgo'ylik va adolatlilikni ulug'lanadi. "Avesto"da zardushtiylik uchta tayanchga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Bu g'oyalar insonning ma'naviyati yuksakligi va tarbiyalaganligini o'zida ifoda etadi. Bu g'oyalar o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas. Demak, "Avesto" amalda bo'lgan tarixiy davrlarda bolalarga diniy va ahloqiy tarbiya berilgan, shu tarzda ma'naviyat masalasi ustuvor mavqega va maqomga ega bo'lgan.

Tarixning ibrat va tarbiya manbai ekanligini quyidagicha tarzda tavsiflash mumkin. Tarix milliy o'zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda, shajaramiz ulug'ligi va pokligini bilishda, xalqimizning oliyjanob, hurriyatparvar va erkparvar an'analarini izchil o'rganish hamda barkamol haqiqiy insonni tarbiyalashda Vatan tarixining o'rni beqiyosdir. Shuning uchun "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "o'z tarixini bilgan, undan ruxiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" (24-25-bet) ligi ta'kidlanadi.

Chunki tarix - mustaqil davlatimiz hayotida faol qatnasha oladigan, idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, Ona-Vataniga va xalqiga cheksiz muhabbat tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqloq tafakkuri va xarbiy vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish quroli, ibratli hayot maktabi va tarbiya manbaidir. Tarix Vatanga muhabbat uyg'otadi. Vatanni sevgan, uning dardi bilan yashagan insongina o'z millatini sevadi va uning uchun kuyinadi. Ana shunday fazilatlarni yoshlarda kamol toptirishning tarbiyaviy manbai - bu ajdodlar koldirgan buyuk tarixdir. Bu tarix bilan xalqimizni va millatimizni qurollantirish zarurligining I.Karimov tomonidan qayta- qayta takrorlanishining boisi ham ana shundadir. "...Ota-bobolarimiz shuhratining soyasiga mahliyo bo'lib yuradigan davrlar endi o'tdi. Bugun jahon bizdan o'z so'zimizni aytishimizni, o'z tafakkurimizni namoyon etishimizni talab qilmoqda. Boshqa xalqlar, boshqa millatlar bizga yotsirab-bepisand qaramasligi, balki bizni e'tirof etishi, bizni ehtirom etishi kerak. Biz ana shu yuksak munosabat va hurmatga loyiq bo'lishimiz darkor. To'kkizinchi - o'n beshinchi asrlarda ma'rifatli dunyo buxoriylar, farg'oniylar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklarni qanchalik izzat-ikrom qilgan bo'lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday extiromni qaytadan qo'lga kiritishimiz kerak. O'sha davrda ulug' ajdodlarimiz asos solgan va olamga dong taratgan ilmiy maktablarni zamonaviy shaklda qaytadan tiklashimiz lozim".

Mustaqil davlatda, tinchlik va osoyishtalikda, g'oyaviy chalkashliklar va "temir parda" dan halos bo'lib, biz umumbashariy qadriyatlarning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadam-baqadam bahramand bo'lmoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo'lidan dadil borishimiz va butun Insoniyat bilan birligimizning eng mustahkam kafolatidir.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish - O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahmiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning

benihyat go‘zalligidan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi.

Ma’naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh qiladi. Ularning taqdirini o‘zaro xurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning ma’naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o‘lchab ham, poyoniga etib ham bo‘lmaydi. U - inson uchun butun bir olam. Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog‘ini bosadi. Huddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi. Er, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik - ma’naviyatning ma’nosi ana shunday juda keng. Inson uni Inson darajasiga ko‘taradigan asoslarning asosini o‘z aqli bilan tom ma’noda qamray olmaydi. Inson o‘zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina, ma’naviyat bilan tutashadi. Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda izzat chekadilar, chunki ularning ma’naviyat chashmasi go‘yo uzoqlashib ketgandek bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og‘ir qabul qiladi, chunki unda xar bir qadrdon kishi uchun qayg‘uradigan umumiy qalb bor. Ma’naviyat -taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbidagi kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak. Bu hazina insonga hayotda barqarorlik bag‘ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo‘lida kun ko‘rishga yo‘l qo‘ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi.

Xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo‘lgan Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, ibn Sino, imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy va boshqa ko‘pgina allomalar ma’naviyati keng va ayni vaqtda qismati og‘ir bo‘lgan siymolardir. Ular o‘zlarini haqiqatga tashna va o‘zi haqiqat bo‘lgan xalqqa bag‘ishladilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug‘ nomlari, xalq xotirasi va uning taqdirida munosib davom etishga loyiqdir. Oldin

odamlarga moddiy boylik berish, soʻngra maʼnaviyat toʻgʻrisida oʻylash kerak, deydi xalq boʻlmalar kerak. Maʼnaviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch -qudratidir. U yoʻq joyda hech qachon baxt-saodat boʻlmaydi. Nafaqat koʻxna tarix, balki yangi tarix ham buning koʻplab misollarini beradi. Maʼnaviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablagʻni ayash oʻz kelajagiga bolta urish demakdir. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va sanʼatning yutuqlari har bir oilaga etib borishi uchun oilaning moddiy taʼminlanganligidan qatʼi nazar qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Ijodiy xodimlarning manaviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam koʻrsatish ham katta ahamiyatga egadir.

Milliy madaniyatning oʻziga xosligini tiklashga alohida eʼtibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy oʻzini oʻzi anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan, bizning koʻp millatli jamiyatimiz anʼanalaridan ajralib qolishi mumkin emas. Taʼlim Oʻzbekiston xalqi maʼnaviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. Oʻsib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon boʻladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga oʻtadi. Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan taʼlim va maʼnaviyatni tushunib etish boshlanadi.

Bizning davlatimiz mutahassislar tayyorlashning ilgʻor jahon tajribasini keng jalb etadi. Va eng avvalo, bevosita Oʻzbekistonning oʻzida yuqori sifatli taʼlim uchun sharoitlar yaratadi. X-XII va XIV-XVI asrlarda Movarounnahr madaniyati gullab-yashnagan davrda bu erdagi koʻplab shaharlarda oliy oʻquv yurtlari boʻlib, ilmiy markazlar hisoblanar edi. Hozirgi vaqtda bu qutlugʻ anʼana tiklanmokda. Bizning xalqimizning doimiy fazilati boʻlgan haqiqatni bilish yoʻlidagi sabotni fan, texnika, texnologiya, boshqaruv va informatikada erishilgan jahon yutuqlarini oʻzlashtirishga yoʻnaltirish kerak boʻladi. Faqat ana oʻshandagina, Oʻzbekiston oʻzining barcha boyliklarining chinakam egasi va haqiqiy madaniy davlat boʻladi.

Insonning oʻzi va oʻz oilasining baxt-saodati yoʻlida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi, uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi. Bizning koʻlamli ijtimoiy-iqtisodiy niyatlarimiz xalqimizning mehnatsevar-ligidan kelib chiqadi. Har bir fukaroning mustaqil davlat bilan magʻrurlanishi uning oʻz davlatining mustahkamlanishi va gullab-

yashnashi uchun shaxsiy hissa qo‘shishga tayyorligidandir. Faqat mana shundagina fuqaro davlatning ishonchli tayanchiga aylanadi. Shaxs imkoniyatlari bizda juda chuqur irsiy asoslarga egadir. Respublikamizda jahon fani va texnikasi, falsafa va huquq yutuqlarini egallab olgan va shu bilan birga o‘z xalqiga yaqinlikni saqlab qolgan kishilar juda ko‘pdir. Bunday kishilar O‘zbekistonning XXI asr sari tashlagan qadamida bizlarning kashshoflarimizdir. Aynan o‘shalar jamiyatning eng tashabbuskor negizini tashkil etadi, butun xalqqa ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning o‘z kuchiga ishonch baxsh etadi.

Ma’rifatga doir g‘oyalarini va ularning rivojlanish jarayonini mukammal o‘rganadi. Pedagogika nazariyasi va tarixini o‘rganish o‘qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki shu bilan birga, ularga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi. Shuningdek, o‘tmishning ta’lim-tarbiya sohasidagi eng yangi tajribalarini o‘rganadi, bu esa uning kundalik pedagogik faoliyatida yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fani umumjahon, shu jumladan Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi ma’naviyat va talim-tarbiya faniga oid fikrlarni o‘zlashtirish uchun xizmat qilar ekan, bu fan o‘tgan avlodlarimiz qoldirgan boy pedagogik manbalarni va ularning milliy asoslarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, “Pedagogika nazariyasi va tarixi” bo‘lajak o‘qituvchilarga bilim beribgina qolmay, ularda milliy iftihor va g‘urur hissini ham tarbiyalaydi.

1.3. Eng qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti yodgorliklarida inson tarbiyasiga oid fikrlar

Hozirgi o‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming-yillar oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug‘chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo‘jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo‘lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Ma’lumki, kishilar va kishilik jamiyati vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham inson

sifatida takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, oddiy ixtirolarning takomillashib borishi, inson ongining shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon ming-ming-yillar davom etib, inson ongi shakllanishining asosi bo'lgan xulq-odob qoidalari tarkib topadi.

Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruxga sig'inish - onimizm, ajdodlar ruxiga sig'inish totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqodlar va marosimlar aks ettan afsonalar, rivoyatlarda eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, sug'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita etib kelmagan. Turkiy va forsiyazabon xalqlarning "hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi" ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari: Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlari, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy voqealarini ifoda etuvchi qomusiy yodgorlik namunasi bo'lmish "Avesto"; afsonaviy qaxramonlar tasvirlangan dostonlar ya'ni, "Alpomish", "Manas", "Shiroq", "To'maris", "Go'ro'g'li", "Murodxon", "Ravshan", shuningdek qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" asarlari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Urxun-Enisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saklangan va shular orqali bizgacha etib kelgan. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham, o'z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish, inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Biz yuqorida keltirgan tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilar, umuman, eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda uch asosiy manbaga tayaniganligini ko'ramiz:

1. Xalq og‘zaki ijodi materiallari.
2. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.
3. Arxelogik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

Ma‘lumki, o‘tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o‘z extiyolarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan.

Tarixchilar va tarixchi-pedagoglarning ko‘rsatishicha, kishilarning mehnat faoliyati yosh jihatidan uch guruhga bo‘lingan:

- 1) bolalar va o‘smirlar;
- 2) hayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar;
- 3) keksalar.

Ibtidoiy jamiyat davrida bola o‘zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo‘shilib, u hayot kechirish va mehnat qilishga o‘rgangan. O‘g‘il bolalar erkaklar bilan bajariladigan ov qilish, qurol yasash kabi ishlarni bajarsa, qizlar ayollar mehnati bilan tanishar edi. Bola ma‘lum tayyorgarlikdan so‘ng sinovlardan o‘tib, keyin amaliy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. Urug‘chilik jamoasi bosqichida bolalar mehnati, kasb-hunarga intilish faollashib bordi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o‘rgata boshlaydilar. Asta-sekin tarbiya tizimiga harbiy vatanparvarlik tarbiyasining boshlang‘ich turlari kirib kela boshlaydi. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o‘lchash, suv toshqinlarining oldini olish, odamlarni davolash usullariga oid bilimlar berish ishlari avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga extiyoj sezila boshlaydi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik qo‘shni mamlakatlardan kirib kelgan xarf bilan yozish usuli paydo bo‘ladi va tez tarqala boshlaydi.

Tadqiqotchilar eramizdan oldingi birinchi ming-yillik o‘rtalarida oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so‘ng esa yunon yozuvi va shu bilan birga forsiy mixxat ham ma‘lum vaqtlarda qo‘llanib kelinganini ta’kidlaydilar.

Demak, o‘sha davridayok Xorazm, So‘g‘d, Kushan, Run (Urxun-Enisey), uyg‘ur va boshqa yozuvlar paydo bo‘lgan va bu yuksalish ta’lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki inson ibtidoiy jamoa bo‘lib yashash tarzini asta-sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi. Chunonchi, Xitoyda qog‘ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash o‘nlik tizimining paydo bo‘lishi, Mesopotamiyada Er qurrasini graduslarga,

sutkani soat, daqiqa va soniyalarga bo'lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda o'rta dengiz bilan Hindistonni bog'lovchi arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyoyanda-larining ijodiy merosi, san'at va adabiyot namunalari buning dalilidir.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar mehnat faoliyati jarayonida o'z extiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodga mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yordam bergan. Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari afsonalar, qaxramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz.

Chunki xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir. Ayniqsa, Poliyenning "Harbiy hiylalar" asarida keltarilgan Shiroq afsonasi, Gerodotning "Tarix" kitobidagi jasur To'maris haqidagi afsonalar shular jumlasidandir. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida esa ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik xushxulqlik mardlik va jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga hiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm axlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olish maslahat beriladi: o'g'lim, senga qoldirdim o'git, Unga amal qil.

Olimlarga yaqinlash, baxra olgil, Tutib dil. Ma'lumki, bilim-ma'rifatli kishi kibr-havodan uzoqroq turishini ta'minlaydi, bunga insonning o'zi ham sababchi deb uqtiradi, o'gitlarda. Ilm sari intilishni qutlug' ish sanaydi. Demak, har bir kishi ilm sari intilishi, unga bo'ysunishi, moyil bo'lishi, kibrni esa o'zidan nari surishi kerak bo'ladi. Urgan uning bilimin, Borgin uning sari. Qutlug' ishga bo'ysungin, Kibrni quv nari. (II t. 161-162)

Aklli odamning zehni o'tkir bo'ladi, u har qanday o'git-nasihatni xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning pastda ovni ko'rgandagi tezlik bilan sho'ng'ishiga o'xshatadi. Oqil odam zehning tezligi qush parvozig qiyoslanadi: Qush ov ko'rsa, yuksaklardan pastga cho'kar,

Olim kishi o'git bersa, darxol uqar. (III t.53)e. Bu misolda aklli, bilimli odamning tabiati, o'ziga xos xislati ifodalangan.

“Devonu lug‘atit turk” asarida insoniy fazilatlarining ajralmas qismi xushxulqlik alohida ajratib ko‘rsatiladi. Har bir inson egallashi lozim bo‘lgan ezgulik-yaxshilik, umum manfaati uchun mehnat qilish hushxulq insonga xos fazilat ekanligi o‘qtiriladi: Ulug‘liging oshsa agar. Xushxulk bo‘lg‘il. Bek yonida xalq uchun Xo‘b ish qilg‘il.(I t.95).

Kishilar o‘rtasidagi totuvlik, axillikning muhimligini ham quyidagicha ifodalaydi: Qo‘ni-qo‘shni, qarindosh Ko‘rsin sendan yaxshilik. Ne-ne sovg‘a kilishsa Yaxshirog‘in qil tortiq.(I t. 137).

Yana bir she‘riy parchada shoir inson faqat o‘zini o‘ylamasligi, o‘zgalar manfaati uchun ham harakat qilishi lozimligini aytadi: Ko‘rklik to‘ning o‘zingga, Totlig‘ oshing o‘zgaga, Qo‘noqqa ko‘rgiz izzat, Yozsin sha‘ning uzoqqa. (I t.80).

Shoir mol-mulkka xirs qo‘ymaslik, insonning mol-mulki ko‘payganda ham mag‘rurlanib ketmaslikni, bu borada keksa avlod o‘gitlariga rioya etishni ta’kidlaydi.

Ta’lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlariga boy she‘rlar inson turmushining turli tomonlariga oiddir. Inson hayotining abadiy emasligi, shuning uchun ham kishilarga yaxshilik qilish lozimligi, yoshlik xusniga ishonish suvga suyanish bilan barobar, deydi. Shu bilan birga she‘r parchalarida:

Kimning ko‘ngli bo‘lsa

Qashshoq, kambag‘al.

To‘q bo‘lmaydi,

Boy bo‘lmaydi, deyilgan misralarham uchraydi. (III t.257) Bu pandlar hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki ma‘naviy boy bo‘lmagan mamlakat hech qachon moddiy tomondan mustahkamlana olmaydi. “Devonu lug‘atit turk” asarida xalqning ta’lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo‘shiqlardagi kabi do‘stlik va hamkorlik mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qardoshlik tuyg‘usi, tejamkorlikning ahamiyati v a isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizliq yaxshilik va yomonlikning natijalari, axloq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar talqin etiladi.

1.4. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson er yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy "Bo'stonul-orifin" asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: "Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga etadi", - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil", - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni etishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-xaqoyiq", Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, ibn Sinoning "Tadbir-al-manozil", Alisher Navoiyning "Maxbubul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muxsiniy" va boshqa asarlarida farzand ota-onaning baxti, uning to'g'ri tarbiyalanishi esa hammaning baxti, degan umumiy xulosa chiqariladi. O'tmishdagi mutafakkirlar tarbiya atamasining ma'nosini, tarbiyalashning mazmunini alohida bayon qilmagan bo'lsalar ham o'z asarlarida tarbiyaning qirralarini ifodalaganlar.

Alisher Navoiy "Maxbubul qulub" asarida tarbiyaning kuchi va sharofatini quyidagicha ta'riflaydi: Itka taalumda chu bo'ldi kamol, Sayd aning ag'zidin o'ddi xalol, Olim ul itkim najasul ayn erur, o'g'ling jahl ulsa, ajab shayn erur. (It o'rganish bilan komil bo'lgach, uning og'zi bilan tutgan ovini eyish mumkin bo'ladi. Eng iflos maxluq hisoblangan it olim bo'lganida (ovlashni o'rganganida) o'g'ling johil qolishi juda xunuk ishdir).

Alisher Navoiy tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo'yish, ilmu adab o'rgatish, ota-onaga, umuman kattalarga hurmat hissini singdirishdan iboratligini uqtiradi.

K.D.Ushinskiyning "Pedagogika adabiyotining foydasi" nomli risolasida: "Tarbiyalash ishi, shubhasiz, insonning aqliy va ongli faoliyatlaridan biridir: tarbiya tushunchasining o'zi tarixan vujudga kelgan va u tabiatda yo'q, narsadir... Tarbiyalash faoliyati fikr yuritishni, haqiqatni anglashni ham o'rgatadi", deyilgan.

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming-yillar

oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug‘chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo‘jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo‘ltan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatta ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Ibtidoiy jamiyat taraqqiyotining birinchi bosqichida, urug‘chilik jamiyatidan oldingi jamiyatda, odamlar tabiatning tayyor maxsulotlarini istemol qilganlar, ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Yashash vositalarini topib qo‘lga kiritish jarayoni unchalik murakkab bo‘lmagan va ayni vaqtda ko‘p mehnat talab qilgan. Jamoa bo‘lib yashash, mehnat qilish va iste‘mol qilish sharoitidagina yirik hayvonlarni ovlash, tabiat bilan kurashish mumkin bo‘lar edi. hamma narsa mushtarak edi, jamoa a‘zolari o‘rtasida ijtimoiy tafovutlar yo‘q edi. Ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qon-qarindoshlik munosabatlariga asoslanar edi. Undagi mehnat va ijtimoiy (sotsial) vazifalarning taqsimlanishi tabiiy biologik negizga asoslanadi, buning natijasida erkaklar bilan ayollar o‘rtasida mehnat taqsimoti mavjud edi, shuningdek, ijtimoiy jamoalar yosh jihatdan bo‘linar zdi.

Yangi tug‘ilgan bola dastlab o‘sib etishayotgan kishilar guruhiga berilardi: uni shu jamoadagi keksayib qolgan kishilar boqardilar va o‘stirardilar. Bola tegishli biologik yoshga to‘lib, ba‘zan bir ijtimoiy tajriba, mehnat qilishni o‘rganib, hayotiy bilim va malakalarni egallaganidan keyin odam qatoriga kiritilib to‘la qimmatli mehnatchilar guruhiga o‘tar edi. Bir qancha zamonlardan so‘ng bu guruhga o‘tkazish chog‘ida initsiatsiya “bag‘ishlab” udumi bajariladigan bo‘lib qoldi. Bu udumni bajarish chog‘ida yoshlarning turmushga qanchalik tayyorlanganliklari: azob-uqubatlarga bardosh bera olishlari, botirlik va chidamlilik ko‘rsata bilishlari sinab ko‘rilar edi.

Yosh jihatdan bo‘lingan bir guruh a‘zolari bilan boshqa guruh a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar hech qayerda yozilmagan, lekin qat‘iy bajariladigan odat hamda an‘analar bilan tartibga solinib turar zdi, bular tarkib topayotga ijtimoiy normalarni mustahkamlar edi.

Urug‘chilik jamiyatidan oldingi jamiyatda tabiiy tanlanish va muhitga moslanishning biologik mexanizmlar ham odam taraqqiyotining xarakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Biroq jamiyat rivojlanib borgan sari unda tarkib topayotgan ijtimoiy qonuniyatlar kattaroq rol o‘ynay

boshlaydi, asta-sekin ustunlik darajasiga ko'tariladi. Ibtidoiy jamiyatda bola o'zining hayot faoliyati jarayonida, kattalarning ishlarida qatnashib, ular bilan kundalik muamalada bo'lib tarbiyalanar va ta'lim olar edi. Bola, keyinroq odat bo'lib qolganidek, hayotga hozirlanibgina qolmasdan, shu bilan birga, o'zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo'shilib ham ketaveradi, kattalar bilan birga va ularning rahbarligida jamoa bo'lib mehnat qilishga va hayot kechirishga o'rganar edi. Mashaqqatli turmush kechirish va tabiat bilan kurash olib borish sharoitida odam faqat jamoa bo'lib yashashi va mehnat qilishi mumkin edi. Bunday jamiyatda hamma narsa jamoaniki bo'lardi. Bolalar ham butun urug' qo'lida, dastlab onalari qo'lida bo'lar, so'ngra otalar qo'lga o'tib qolardilar. Bolalar va o'smirlar mehnatda va kattalar bilan kundalik muloqatda turmush uchun zarur ko'nikmalar va mehnat malakalarini o'rganib olaveradilar, urf-odatlar bilan tanishaveradilar, ibtidoiy odamlar hayotida har doim bo'lib turadigan rasm-rusumlarni bajarishni o'rganadilar.

O'g'il bolalar katta yoshdagi erkaklar bilan birga ov qilish va baliq tutishda, qurol yasashda qatnashar, qizlar esa xotinlar rahbarligida ekin ekib, hosilni yig'ishtirib olish ishlarida qatnashar, ovqat pishirar, idish yasab, kiyim tikar edilar. Matriarxat taraqqiyotining oxirgi bosqichlarida yosh avlodning yashashi va tarbiyalanishi uchun o'g'il bolalar uchun alohida, qiz bolalar uchun alohida - birinchi muassasalar paydo bo'ldi. Mana shunday joylarda - yoshlar uylarida yoshlar urug' oqsoqolalarning rahbarligida yashashga, mehnatga, o'tkaziladigan "sinovlarga" tayyorlanar edilar. Asta sekin chorvachilik, dehqonchilik, hunar-kasblar paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanib, odamlarning mehnat tajribasi kengayib borganligi sababli tarbiya ham murakkablashdi, ko'p tomonlama va rejali bo'lib qoldi. Bolalarga hayvonlarni boqish, dehqonchilik qilish, hunar-kasb o'rgatiladigan bo'ldi. Birmuncha tashkiliy ravishda tarbiya qilish zarurati tug'ilishi bilan urug'chilik jamoasi yosh avlodni tarbiyalashni tajribaliroq kishilarga topshirib qo'yadigan bo'ldi. Ular bolalarga mehnat ko'nikmalari va malakalarini o'rgatish bilan bir katorda paydo bo'lib qolayotgan diniy urf-odatlarining qoidalari, naqlar bilan ularni tanishtirar, yozishga o'rgatilar edi. Ertaklar, o'yinlar va raqslar, musiqa va ashula, xalqning butun og'zaki ijodi xarakterning muayyan belgilarini tarbiyalashda katta rol o'ynadi. Urug'chilik jamoasining yanada

rivojlanib borishi natijasida harbiy tarbiyaning boshlang'ich turlari paydo bo'ldi: o'g'il bolalar o'q-yoy otishni, nayzadan foydalanishni, otda yurishni va shu kasblarni o'rganadigan bo'lib qoldilar. Odamlar yoshlariga qarab guruhlariga ajratiladigan bo'ldi, bunday guruhlarda o'zining aniq ichki tashkiloti, boshliqlar paydo bo'ldi, maxsus tayinlab qo'yilgan urug' oqsoqollari rahbarligida yigit va qizlarni urug'ning to'la huquqli a'zolari qatoriga qo'shish uchun tantanali sinovlar o'tkazish murakkablashdi. Boshlang'ich bilimlarni o'qib olishga, xat paydo bo'lgandan keyin esa yozuvga ham katta e'tibor beriladigan bo'lib qoldi. Yosh avlodni tarbiyalash urug' tomonidan ajratilgan alohida kishilarga topshirilganligi, tarbiya mazmunini hamda sinovlar dasturi kengayganligi va murakkablashganligi, mana shularning hammasi urug'chilik tuzumi sharoitida tarbiya ishi ijtimoiy faroliyatning alohida shakli aylana boshlaganligidan dalolat beradi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, Markaziy Osiyoda ham mehnat taqsimoti oilaviy tarbiya orqali nasldan-naslga o'tib mustahkamlanib bordi. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi oddiy xalqdan ustun darajada turuvchi jangchilar va koxinlar guruhlar paydo bo'la boshladi. Koxinlar o'zlari o'rganib olgan boshlang'ich ilmiy bilimlarni oddiy kishilardan yashirib, bolalariga o'rgata bordilar va shu tariqa bunday bilimlar avloddan-avlodga o'tadigan bo'lib qoldi.

Markaziy Osiyoning ko'pgina joylarida qoyalarga o'yib yozilgan qadimiy suratlar saqlanib kelmoqda. Ibtidoiy jamiyatning surat solishga mohir bo'lgan kishilari bu suratlarda odamlarni va hayvonlarni, ov manzaralari va boshka shu kabi manzaralarni tasvirlaganlar. Bunday suratkashlik rivojlana borib, bir qancha mamlakatlarda piktografik xatning paydo bo'lishiga imkon berdi, keyinroq iyerogliflar bilan yoziladigan xat va harflar bilan yoziladigan xat mazkur piktografik xatlardan vujudga keldi.

Markaziy Osiyo xalklarining, shu jumladan, o'zbek xalkining madaniyati, ma'rifati, milliy qadriyatlari ibtidoiy jamoa davridagi ma'rifiy tafakkurning dastlabki kurtaklari folklorda o'z aksini topgan.

Eramizdan avvalgi birinchi ming-yillik o'rtalarida, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar insonning kamoloti to'g'risidagi g'oyalarni juda ko'p rivoyatlardan foydalanib baxshilik yo'li orkali avloddan-avlodlarga etkazganlar, mazkur rivoyatlarda, kishilarni tarbiyalash, axloqiy barkamollik shaxsning ma'naviy yuksakligi masalalari asosiy

o‘rin olgan.

Shuningdek ibtidoiy davrda insonlar tarbiyaning ta’sir kuchi orqali to‘g‘ri hayot kechirganligi, madaniyat va san’at sohasida ham misli ko‘rilmagan kashfiyotlar yuzaga kelgani ma’lum. Yunon tarixchisi Gerodot (e.a. V asr) “Tarix” kitobida yozishicha... Markaziy Osiyoning ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida xalqlar asosan chorvachilik va deqkonchilik bilan shug‘ullangan. Ularda nikoh munosabatlarining umumiy (tartibsiz) shakli hukmron bo‘lgan. Oilaning guruhli shakllarida bolaning otasi noma’lum bo‘lsa ham, lekin onasining kim ekanligi ma’lum bo‘lgan va shu sababdan bolaning tarbiyasi ona zimmasiga yuklatilgan. Asta-sekin odamlarning ijtimoiy ong faoliyatining takomillashuvi, xususiy mulkning dastlabki kurtaklarining paydo bo‘lishi yakka tartibdagi oilalarni vujudga keltirgan.

Yakka oila paydo bo‘lgandan so‘ng mehnat tarbiyaning eng asosiy quroliga aylangan. Qadimgi Eron qobilalarida mis va temirdan uy-ro‘zg‘or buyumlari yasala boshlangandi. Ana shu mehnat jarayonida bolalar ham ishtirok etardi. Ibtidoiy davrdagi tarbiya asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarni bolalarga o‘rgatishdan iborat bo‘lardi. Bolalarga o‘rgatiladigan kundalik mehnat malakalari ularni yashash uchun kurashishga tayyorlar, akl-idrokli, odobli bo‘lib o‘sislariga xizmat qilardi. Ming-yillar mobaynida moddiy ne‘matlar yaratish uchun hamkorlikda qilingan mehnat kishilar o‘rtasidagi axloq-odob munosabatlarining me‘yorini keltirib chiqardi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi kishilar mehnat jarayonida, borlikdagi narsalar va hodisalarga munosabatlari asosida o‘z dunyoqarashlari va aqidalariga tayanib xalq og‘zaki ijodi asarlarini yaratganlar. Ularning bir-biriga, atrof-muhitga, kasb-koriga munosabat borasidagi ilk fikr va tasavvurlar, mifologik asarlar timsoli bo‘lmish – “Avesto”da ifodalangan Mitra, Anaxita, Ardivissura, Varaxrana, Iima singari ma’buda va ma’budlar siymosi orqali ajdodlarimiz insonlarga yaxshilik qilish, erlarni obod va serhosil qilish, ekin ekish, daraxtlarni o‘stirish uchun jamoa harakati xususidagi mulohazalarini mujassamlashtirganlar.

Shuni ta’kidlash lozimki, Markaziy Osiyoning ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan madaniy-ma’rifiy fikr va g‘oyalarni, tarbiya masalalari bo‘yicha xalq yaratgan juda ko‘p manbalarni o‘rganish nihoyasiga etkazilmagan. Hozir ularni mufassal o‘rganish uchun mustaqil respublikamizda keng imkoniyat yaratildi. Bir qancha

sharqshunos olimlarimiz Hindiston, Xitoy, Angliya, Farangiston va Arab mamlakatlaridagi talaygina qo‘lyozmalarni o‘rganishga muvassar bo‘ldilar va hozir ham davom ettirmoqdalar. Jumladan, T.N.Qori Niyoziy, H.Sulaymon B.O.Axmedov, S.G‘aniyeva, O.Usmonov, N.Mallayev, F.Sulaymonova, M.Xayrullayev, I.Mo‘minov va boshqalarning bu sohadagi xizmatlari juda kattadir.

Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o‘zbek xalqining madaniyati, ma’rifati, milliy qadriyati osori-atiqalarini o‘rganib, shular haqida o‘lmas asarlar yaratgan tarixshunos, sharkshunos olimlar - Gerodot, Xerman Vamber, A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, E.E.Bertels, V.V.Bartold, E.Berezikov va boshqalarning mashaqqatli mehnatlarini alohida e’tirof etish lozim. Ularning hammalari ham ibtidoiy jamoa davridagi ma’rifiy tafakkurning dastlabki kurtaklari folklorida o‘z aksini topgan, degan xulosaga kelishgan.

1.5. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalari

Eramizdan oldingi minginchi-yillarning o‘rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qaxramonlik mazmunidagi juda ko‘p afsonalar rivoyatl” ga kiritilgan.

“Avesto”da insonning barkamol bo‘lib etishishida uning so‘zi, fikri, ishi, birligiga katta e’tibor berilgan. Bu ahloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma’rifiy asarlarga asos bo‘lgan desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Ma’lumotlarga ko‘ra “Avesto” eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo‘lib, u uzoq davrlar maxsuli sanaladi. Hamda davrlar o‘tishi bilan u qayta-qayta ishlanadi. Barcha manbalarda to‘liq kitob holida shakllanishini eramizdan avvalgi birinchi asrga to‘g‘ri keladi, deyiladi.

“Avesto”ning vatani Xorazm ekanligini olimlar ishonch bilan ta’kidlaydilar: Zardusht eramizdan oldin VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi spitama urug‘idan bo‘lgan. Otasi Paurushaspa, onasi Dugdova deb nomlanganlar, ular ot va tuya boqish bilan shug‘ullanganlar. Zardusht ko‘p xudolikka sig‘inish, qurbonlik natijasida mollar qirilib ketayotganini hamda qabilalar o‘rtasidagi

nizolarni ko'rib, uni oldini olishni o'ylaydi va o'z ta'limotini targ'ib eta boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vaxiy orqali ko'pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ'ib etib chiqadi, kuchli hokimiyat o'rnatib, er yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya etadi.

Zardushtning yangi ta'limotini istamagan qabila boshliklari uni taqib etadilar. U Rayga (Eronga) qochadi va o'z dinini o'sha erda tarkib toptiradi. "Avesto"ni shox Vishtasp (Gushtasp) taqdim etadi. Shox Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona - ibodatxonalar qurdiriladi va zardushtiylik dini keng tarqaladi.

Adabiyotshunos X.Xamidov Zardushtning shox Gushtasp vazirining qizi Xavoviga uylangan, undan uch o'g'il - Istavatra, Urva-tatnara, Xvarachira va uch qiz - Freni, Triti, Pourichista nomli qizlari bo'lganligini keltiradilar (93, 87-88 b.). Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat "Avesto" ni oltin taxtaga yozdirilib, shox otashkadasiga topshiriladi.

Manbalarda "Avesto" ning kitob holiday matni eramizdan oldingi 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgani keltiriladi. Bu nushasi Iskandar istilosigacha Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, "Avesto"dagi tibbiyot, nujum, ilmu hikmat sohalariga oid matnlarni yunon tiligi tarjima qilib, boshqasini yoqib yuborishga buyurgan. Ba'zi tadqiqotchilar eng qadimgi nushasi 1324-yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopingagen kutubxonasida saqlanishini aytishsa (N.Mallayev), boshkalar esa (V.A.Livits) 1288-yilda eng qadimgi qo'lyozma nushasi yaratilganini aytadilar.

Zardushtiylik ta'limotini jamg'arilgan Zardushtning kitobi bizgacha 2 nushada etib kelgan. Birinchisi - duolar to'plamidan iborat bo'lib, "Vendidot" - sede, ya'ni "Pok Vendidot" deb ataladi (A.Irisov). Bu kitobga "Yasna"lar, "Vispered" ham kiritilib, bir butun tarzda shakllangan. Ikkinchisida ham, birinchisidagi kabi "Vendidat", "Yasna", "Vispered"lar kiritilgan bo'lsa ham, bu kitob tarjima qilinib sharhlar bilan beriladi. Shuning uchun ham sharhli nushasi "Avesto va Zand" yoki "Zand Avesto" deb yuritiladi. Ikkinchi variantiga binoan "Avesto» quyidagi qismlardan iborat:

1."Vendidot" 22 bobdan iborat. Asosan, Axuru Mazda bilan

Zardushtning savol-javobi shaklida yozilgan bo‘lib, u yomon ruhlarni, devlarni engach voqealari, gunohlardan pok bo‘lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o‘z ichiga oladi. Ya’ni devlarga qarshi qonun, qonunnoma bo‘lib, yomonlik timsoli bo‘lgan devlarga nafrat bilan qarashdan iboratdir.

Axura Mazda yurtida yaxshilik, hayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anxra Manu (Axriman) o‘z yurtida yomonlik yaratadi.

2. “Visparad”. U 24 bobdan iborat. “Visparad” ibodat qo‘shiqlarini o‘z ichiga oladi.

3. “Yasna”. Yasnalar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlar paytida, qurbonlikka chaqirish marosimida aytiladigan qo‘shiqlar, xudolar madhiyasi va boshqalar. Uning 17 bobi Gotlar deb ataladi. Bular “Avesto”ning eng qadimgi qismlari sanaladi.

4. Yashtlar. U zardushtiylik xudolari va ma’budalari madhiga aytilgan 22 qo‘shiq (Gimnlar)ni o‘z ichiga oladi.

5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). Quyosh, Oy, Ardisura, Mitra, olov va boshqa xudo hamda ma’budalar sharafiga yig‘ilgan kichik ibodat tekst (Gimnlar)idan iborat. Zardushtiylik to‘g‘risida so‘z borganda unda to‘g‘rilik bilan yashash va ahloqiy unsurlarga asoslanganligini ta’kidlash lozim. Ayniqsa, “Avesto”da zardushtiylikning insonga, insonning jamiyatda tutgan o‘rniga munosabati “got”larda to‘liq yoritilgan.

Tarbiyaviy manba sifatida “Avesto” katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytganimizdek, Zardusht qadimgi qabilalardagi diniy e’tiqodlarni isloh qilgan. Zardusht ta’limotining yangiligi shundaki, Axura Mazda (Qodir iloh_dunyoda adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi: Anxra Mani esa (yovuz ruh) barcha yomonliklar sababchisi. “Avesto” ning mazmuni haqida uning bizgacha etib kelgan parchalari matnlariga asoslanib quyidagilar ifodalanganini ko‘ramiz:

“Vendidot”ning dastlabki uch bobida xalq hayotida erning qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligi kuylanadi. Masalan, 1 bobida yovuzlik va adolat o‘lkalar tasniflanar ekan, Axura Mazda tinchlik o‘lkasi, Adolat o‘lkalarining asoschisi, Angro Manvyu esa jaholat urug‘ini sochuvchi sifatida talqin etiladi. Ana shu o‘lkalardan 17 o‘lka sanab o‘tiladi.

“Avesto”da tasvirlangan Adolat o‘lkasining keyingi davrlardagi nomlarini quyidagicha keltiradi:

1. Aryana Vedja - Xorazm yoki Araks daryosi qirg'og'idagi, yoki Amu va Sirdaryo deltasidagi o'lka.


2. Gava-So'g'diyona. 3. Mouru (Margav) - Marshana (Marv, hozirgi Mari). 4. Baxdi-Baqtriya (Balx). 5. Nisaya-Nisa, Parfiya poytaxti. 6. Xaroy -Isfaxonda bir joy. 9. Xnenta - Gurkaniya. 10. Xaraxvaiti - Garut (Araxoziya bilan bog'liq).

11. Xetumant - Gilmanda havzasidagi viloyat. 12. Raga - Midiyadagi bir shahar, Ray Tehronga yaqin. 13. Chaxra - Xurosondagi bir joy. 14. Varna - janubiy Kaspiy buyi viloyati. 15. Xapta Xindav - Inda, Panjob havzalari hududi. 16. Rangxa irmoqlari - mifologik o'lka.

Ikkinchi bobda Yima haqida afsona keltiriladi. Unda erni uch barobar ko'paytirish, odamlarni, hayvon va o'simliklarni himoya qilish uchun chegara belgilanadi. Erning suvdan paydo bo'lganligi haqida qadimgi Hind-Eron qabilalarining dastlabki tasavvurlari ifodalanadi. Keyingi boblarda esa gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanadi, olov, suv, er, chorva, daraxt, o'simliklar ulug'lanadi, kohinlar, harbiylar, dehqon va chorvadorlar madh etiladi. hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda gigiyenaga oid qoidalar: tirnoq va sochlarni parvarish qilishga ham e'tibor beriladi.

"Avesto"da biz inson shaxsining takomiliga oid ma'rifiy fikrlarning ma'lum bir tizimini ko'ramiz. Xatto "Avesto"ni dastlabki pedagogik asar desak ham xato qilmagan bo'lamiz va eng qadimgi davrlarda xalqimizning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy fikrlariga oid qiziqarli materiallarga ega bo'lamiz. Shuningdek tadqiqotchilar ham uni diniy xarakterga ega bo'lishi bilan birga falsafa, siyosat, ta'lim-tarbiya, adabiyot masalalarini ham qamrab olgan asar sifatida va uning kelib chiqishi haqida muhim fikrlar bayon etadilar.

Xulosa qilib aytganda, "Avesto"da insonning barkamol bo'lib etishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga katta e'tibor beriladi. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida faqat Sharq xalqlarining emas, g'arbning ham muqaddas merosi bo'lib qoldi. Zardushtiylik axloqining asosiy uchligini jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin.

ZARDUSHTIYLIK AXLOQINING ASOSIY UCHLIGI

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvida bitilgan Urxun-Enisey bitiklari ham VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Garchi Urxun-Enisey yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bagishlanmagan bo'lsa ham, ulardan o'sha davr axloqiy talablar yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin. Xususan, xoqonlar va alplarning jangovor faoliyati, turmush tarzi, vatanparvarlik, birdamlik, ittifoq bo'lib yashashga intilishi, mardlik, jasorat, samimiylik, insonparvarlik, ezgulik kabi insoniy hislatlari jamiyat har bir a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim fazilatlar sifatida ma'rifiy qadriyatlarimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, VI asr o'rtalariga kelib Oltoy, Ettisuv va Markaziy Osiyo turk qabilalaridan turk hoqonligi tashkil topdi. Bu xoqonlik g'arbdan Vizantiya, janubdan Eron va Hindiston, sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bo'lgan. Turk hoqonligi Turkyut davlati deb ham atalgan.). Hoqonlik 603-yilda Sharqiy va G'arbiy hoqonlikka ajralgan. 745-yilga kelib esa Turk hoqonligi tugallanadi. Turk hoqonligi asosan 3 kishi: Bilga hoqon (Mog'ilyon), Kul tegin, Tunyuquqlar qo'lida markazlashgan edi. Bilga hoqon (Mog'ilyon) hoqon, Kul tegin - sarkarda, Tunyuquq esa - vaziri dono bo'ladi.

Bitig toshlarda turk hoqonlarining yurishlari, bu yurishlarda ko'rsatgan jasoratlari, ularning bilimli, mard, xalqparvar alp yigitlar ekanligi bayon etiladi. O'z vatani mustaqilligi uchun kurash, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamligini ta'minlash hoqonlar Bo'min, Istami, Eltarish, Eltarishning o'g'illari - Bilga hoqon va lashkarboshi Kul tegin, ma'naviy otalari Tunyuquqlarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi.


Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda insonda

eng qadrlanadigan hislat - jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik bo‘lgan. Bu hislatlar o‘z-o‘zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, ibtidoiy urug‘chilik qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu hislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Eng qadimgi ota-bobolarimiz insonda ulug‘lagan axloqiy hislatlarni jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin.

2-jadval

ENG QADIMGI DAVRLARDA INSONDA ULUG‘LANGAN HISLATLAR



Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi fanini predmeti, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?

2. Pedagogika nazariyai va tarixi fanining metodologiyasi nimaga asoslanadi?

3. Buyuk nemis olimi Xerler: “Shark Yevropaning muallimidir” - deganda nimani nazarda tutgan ?

4. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchiga qanday imkoniyat yaratib beradi ?

5. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani qanday fan? U qaysi fanlar bilan uzviy aloqador ? Izohlab bering.

6. Respublikamiz birinchi prezidenti I.A.Karimov tarixiy merosimizni

o'rganish xaqida qanday g'oyalarni ilgari suradi?

7. Yurtboshimiz I.A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari mazmuni va mohiyatini sharhlab bering.

8 .Eng qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi.

9. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

10. Tarbiya - ijtimoiy hodisa sifatida nimalarni qamrab oladi ?

11.Qadimgi davlatlarda ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi, qadimgi yozuvlar.

12. Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiya mazmuni, usuli va vositalari.

13. "Avesto"da ta'limiy-axloqiy masalalarning ifodalanishi.

14. O'rxun-Enisey obidalarida ozodlik, erk, insonparvarlik hislatlarining ifodalanishi.

15. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida keltirilgan qadimgi o'g'itlarni daftaringizga yozib chiqing.

16. "Eng qadimgi davrlarda insonda ulug'langan asosiy xislatlar" jadvalini tuzing.

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". -T.: O'zbekiston, 1997.

2. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". -T.: O'zbekiston, 1998.

3. Karimov I.A. "Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman" (Prezident Islom Karimovning «Fidokor» gazetasining muhbiri savollariga javoblari). -T.: O'zbekiston, 2000.

4. Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq, 1999.

5. Mahmud Qoshg'oriy. Devonu lug'otit turk. (Turkiy so'zlar lug'ati). Uch tomlik. - T.: Fan, 1960.

6. Mirtursunov 3.F. O'zbek xalq pedagogikasi. - T.: Fan, 1973.

7. Pedagogika tarixi. Ma'ruza matnlari 1 qism. (Tuz.S.Nishonova, B.Hasanova). - T.: TDPU, 2001.

8. Pedagogika tarixi. Ma'ruza matnlari 11 qism. (Tuz. S.Nishonova, B.Hasanova). - T.: TDPU, 2002.

9. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H . Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.

10. Hasanov R. Pedagogika tarixi kursini o'rganish uchun metodik

tavsiyalar. -T., 1990.

11.Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996.

12. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -T.: Sharq, 2006.

13. Homidov H., "Shoxnoma" ning shuhrati. - T.: O'zbekistan, 1991.

14. O'zbek pedagogikasi tarixi (prof. A.Zunnunov umum. tahr.ost.).

- T.: O'qituvchi, 1997.

15. Yo'ldoshev J., Hasanov S. "Avesto"da ta'limiy-axloqiy qarashlar.

- T.: O'qituvchi, 1992.

II BO‘LIM. VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA TA’LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAKQIYOTI

Reja:

1. Islom dini tarqalgandan keyin Movarounnahrda ta’lim tizimi.
2. Maktab va madrasalarda ta’lim mazmuni.
3. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy va uning “Al-jome as-sahih”, “Al-adab al-mufrad” asarlarida tarbiya masalalari.
4. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: 1. Maktab, madrasa, ta’lim tizimi, hadis, sunna, hadis ilmi, muxaddis, hadis ilmida “Oltin davr”, hadislarda ilgari surilgan insoniy hislatlar: mehr-muruvvat, sahovat, ilm, hurmat-ehtiro, Vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, do‘stlik, tinch-totuvlik.

2.1. Islom dini tarqalgandan keyin Movarounnahrda ta’lim tizmi

VII asr boshlarida tashkil topgan Arab xalifaligi o‘z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt eta boshladi. Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya ham xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asrdan boshlab arablar Movarounnahrda ham hujum boshladi. VIII asr o‘rtalarida esa butun Movarounnahr zabt etildi, natijada bu o‘lkada ham xalqqa islom dini qabul qildirildi. Arablar istilo etgach Movarounnahrda ham islom g‘oyalari asoslangan ta’lim-tarbiya tizimi o‘rnatila boshlandi. Va yangi tizimga ega bo‘lgan ta’lim muassasalari paydo bo‘ldi. Islom dini qabul qilingan joylarda machitlar, machitlar qoshida esa maktablar tashkil etildi. Arab tilini o‘rganish joriy etildi, maktablarda ta’lim arab tilida olib borilar va u erda asosan “Qur’oni Karim” o‘rganilar edi. Arab bo‘lmagan bolalarga islom dini asoslarini o‘rgatish maqsadida “Xaftiyak”, “Chor kitob” kabi darsliklar o‘qitilardi.

XII asrdan boshlab, islom dinini turkiy tilda yozilgan asarlarda ham ommalashtirish boshlandi. Misol tariqasida Ahmad Yassaviyning

“Xikmatlar” asarini keltirish mumkin. Xalq asosan, o‘z ona tilida so‘zlashsa ham, yozuv arab alifbosida edi. U davrda savod chiqarish harf va so‘zlarni yozishni o‘rganishdan boshlanar edi. Maktab so‘zining, arabcha “yozuv o‘rgatadigan joy” deb nomlanishi ham ana shundandir. Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o‘rgatilgan, bundan tashqari, o‘smirlarga savdo san‘ati, arab tili, mantiq, notiqlik, xusnixat, arifmetikadan saboq berilgan.

Har bir maktab o‘quvchisining soni 30-40 dan oshmagan. Machitlar huzuridagi maktablarda asosan “Qur’on” o‘qitilgan.

2.2. Maktab va madrasalarda ta’lim mazmuni

Bolalarga dastlabki saboq harflarni o‘qishdan boshlangan, bu usulda har bir bola alifbe tartibida harifning nomini bilib olishi (alif, be, te, se, va h.k.), so‘ngra shu harflarni qo‘shib o‘qishni mashq qilinar edi. Ana shu mashq oxiriga etganidan so‘ng, bolalar qo‘llariga “Qur’on” berilgan va domla rahbarligida “Qur’on”ning har bir surasi takrorlanib o‘rganilar edi.

Lekin “Qur’on”ni o‘qish bolalar uchun juda og‘ir edi. Chunki maktablarda asta-sekin faqat og‘zaki mashq usuliga – “Savod” chiqarilishga o‘tgach, savod chiqarish yanada qiyinlashdi. Yozuv alohida “fan” sifatida ajratilib, kotiblik kasbiga o‘qiyotganlargaгина yozuv o‘rgatilar ediyu shunga qaramay, maktablarga deyarlik hamma bolalar tortiladi va “Qur’on”ni o‘rganish majbur qilib, arab bo‘lmagan bolalar uchun uni yodlash har qancha og‘ir bo‘lsa ham, Movarounnahr maktablarida “Qur’on” ning bu usul qabul qilindi va to‘g‘ri deb topildi. Bu usul keyinchalik bolalarning madrasada o‘qitish uchun ham kerak edi.

Asta-sekin ota-onalar bolalarni 6-7, xatto 5 yoshidan maktabga bera boshladilar. “Qur’on”ni yod bilgan kishi qori deb atalardi. Qorilar katta hurmatga sazovor edilar. Asta-sekin o‘qimishli kishilar, ya’ni domla alohida ajralib, ular o‘z xonadonlarida ham maktab ochadi. Talabalar maktabdor domlalar maktabida xusnixat, og‘zaki hisobni ham o‘rganar, asta- sekin fors-tojik tilida va turkiy tildagi kitoblar, qo‘lyozmalar ham o‘qitilar, o‘rgatilar edi. Husnixat va arifmetika bilan yana xususiy muallimda shug‘ullanar edilar.

Movarounnahrda arab bo'lmagan bolalarga "Xaftiyak" VIII asrda tuzilgan bo'lib, "Qur'on" suralaridan ettidan biri tanlab olingan darslik sifatida o'rganilgan.

X-XII asrda islom dini rukunlari dars tojik tilida she'r va nasr bilan bayon qilingan. "Chorkitob" o'qitila boshlandi. XII asrdan boshlab Ahmad Yassaviy, undan so'ng XVII asrdan So'fi Olloyorlarning turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o'rganila boshlandi. Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otinoyilar uyida o'qitilar, ular yozuvni emas, faqat o'qishni o'rganar edilar. X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. "Madrasa" so'zi "dars o'qitiladigan joy", "ma'ruza tinglaydigan joy" ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, madrasalarda musulmon diniy oqimlari arab tili grammatikasi va qoidalari, ilohiyot, mantiq, notiqlik mahorati, kalom, o'rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi.

Madrasalarda 15-20, 30-40 va 100-150 tacha talaba o'qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi.

Ma'lumki, islom aqidalari e'tiqod va talablari, huquqiy va axloq me'yorlari "Qur'on" va uning tavsiflarida, "Hadis"larida hamda shariat qo'llanmalari, ilohiyot adabiyotlarida ifodalangan. "Qur'on" - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, islomda muqaddas kitob. U arab tilida "Qiroat" ma'nosini anglatadi. "Qur'on" 114 suradan iborat. U kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, saxiylikka undaydi. Shunga ko'ra u katta axloqiy qimmatga ega. Buni biz "Qur'on"ning necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlanib kelinishidan ham bilsak bo'ladi.

Lekin, "Qur'on"ning axloqiy tamoyillarini noto'g'ri talqin qilib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdirishga harakat qilgan ba'zi yovuz kuchlar hozirgi kunda ham tajovuz qilmoqda.

Biz uning mazmun - mohiyatini qanchalik yaxshi va tez o'rgansak, ana shu yomon niyatli kishilarga shunchalik tez zarba beramiz va g'oyaviy bo'shliqning oldini olgan bo'lamiz. Bunda bizga "Xadis"lar ham katta yordam beradi.

2.3. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy va uning "Al-jome' as-sahih", "Al- adab al-mufrad" asarlarida tarbiya masalalari

"Hadis" va "sunna" so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyatida diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg'ambarimiz Qur'oni Karim nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning, hadislarini Qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib, uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayxivasallam huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Masalan, Hazrati Abu Xurayra shunday mo'tabar kishilardan bo'lib, butun umrini hadislarini yodlashga baxsh etgan. Mazkur hadislar to'g'ri, ishonarli (sahih) bo'lgan.

Lekin, hadislarini yod olgan kishilar tobora kamaya borgan hamda asta-sekin ular unutilib ketishining oldi olinib, xalifalar ishonarli hadislarini to'plashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar Ibn Abdulaziz ekanligini ta'kidlaydilar.

VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun "oltin davr" hisoblanadi. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta)ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo'lib, hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810) - 256 (870); Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819) - 261 (874); Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (819) - 279 (892); Imom Dovud Sulaymon Sijistoni 202 (817) - 275 (880); Imom Ahmad al-Nasoiy 215 (820) - 303 (915); Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja 209 (824) - 273 (886) kabi allomalardir.

"Sahih" yo'nalishining asoschisi, eng etuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir (825-870). Imom Buxoriy hadis ilmida "Amir ul-mo'minin", "Imom al-muhaddisiyn" ("Barcha muhaddislarining peshvosi") degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan.

Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Shubhasiz, bu asarlaridan eng etuk, shoh asralari "Al-Jome' as-sahih" - dir. Bu asar "Sahih al - Buxoriy" nomi bilan ham dunyoda mashhur.

Imom Buxoriy 4 jildan “Al-jome’ as-sahih” asarining bir jildida odob haqidagi hadislarini jam etgan. Keyinchalik alloma butun Islom olami odob-axloqi va tarbiyasi masalalariga bag‘ishlangan “Al-adab al- mufrad” (“Adab durdonalari”) maxsus hadislar to‘plamini yaratadi. Bu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 hadisdan iborat.

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy (824-992) bo‘lib, ularning o‘tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchligi tufayli Imom Ismoil al-Buxoriy ham ularni faqat shogard sifatida emas, hamkor do‘st sifatida ham hurmat qilganlar.

At-Termiziy ham o‘ndan ortiq asarlar yaratib, ayniqsa, “Aljome’ as –sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Ash-Shamoil an-Nabaviya” (“Payg‘ambarlarning alohida fazilatlarini”), “Al-ilal fi-l-hadis” (“hadislardagi illatlar va og‘ishlar xaqida”) asarlar mashxurdir.

2.4. Hadislarning tarbiyaviy, ahamiyati

Hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, sahiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga muruvvat, g‘amxo‘rlik, hurmat, Vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘st, tinch-totuv bo‘lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o‘zini illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezonini sanaladi.

Avvalo islom aqidasi binoan har bir musulmon iymonli bo‘lishi kerakdir. Qur’oni Karimda ta’kidlanganidek, hadisning ham birinchi kitobi Iymon kitobidir. Islomdan murod iymon demakdir. Iymonning mukammal bo‘lmog‘ining uch sharti ko‘rsatiladi:

- to‘g‘ri e’tiqodli bo‘xmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lmoq;
- kishi o‘z ustida ishlamoq va o‘zini ibodat va itoatga chakirmoq (34, 14-b. Keyingi parchalar ham ushbu kitobdan olinadi).

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deb, iymon belgilari sanab o‘tiladiki, bularning har biri inson ma’naviy qiyofasining mukammallashuviga ta’sir etuvchi hislatlardir.

Bular quyidagilardan iborat: “Qo‘li bilan va tili bilan o‘zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur”, “Uchta xislatni o‘zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘lg‘aydir (25 - bob)”.

Hadislarda insonning ma‘naviy kamolati mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o‘z bilimi bilan atrofida qilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib etishida muhim omil - bilim, deb ko‘rsatiladi. “Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham”. Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat, razolat hukumronlik qiladi, deyiladi.

Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do‘st, tinch-totuv yashash, muruvvatli, mehr-shafqatli bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oya ham ilgari suriladi. Bular opa-singil, aka-uka va yaqin kishilarga, qo‘shnilariga yaxshilik keltiradi, bu yaxshilik ular o‘rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradiki, pirovardida tinch-totuv, farovonlikka asoslangan jamiyat taraqqiy etadi.

Hadislarda insoniy hislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy sifatlar ulug‘lansa, isrofgarchilik, ta‘magirlik, ochko‘zlik, nafs havoga, shaxvoniy hissiyotlarga berilish, bahillik, johillik kabi ilatlar qoralanadi. Bunda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli hay‘at - bu tashqi ko‘rinishni yaxshilab yurish, iqtisod - har bir xatti-harakatlarda me‘yorni ko‘zlash nazarda tutiladi. Shu bilan birga, hadislarda kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs qo‘yishdan saklanish kerakligi, kelajakka umid his-tuyg‘ulari ham ifodalanadi. “Birortangaz ekish uchun qo‘lingizda biror ko‘chatni ushlab turgan vaktingizda qiyomat bo‘lib qolsa-yu, qoyim bo‘lishdan ilgariroq uni ekib olishga ko‘zingiz etsa, albatta ekib ko‘ying”, deyilgani ham hayotga, yashashga, kelajakka umid bilan qarashga undaydi (33, 139-140 b.).

Hadislarda inson kamolatida eng muhim hislatlardan sanalgan insonning sahovatli bo‘lishga katta e‘tibor berilgan. Sahovatli inson jamiyat tarakkiyotga ham katta hissa qo‘shadi, uning ravnaqi uchun jon kuydiradi. Hadislarda odamlar ana shu hislatlarga ko‘ra to‘rt guruhga ajratilgan:

1. Alloh Taolo bir bandaga mol bergan va ilm bergan. U bandaga berilgan mol va ilmning tasarrufida taqvo qiladi va silai rahm qiladi. Ilmi va molidan Alloh uchun haq ajratadi. Bu eng afzal o‘rin.

2. Bir banda bor. Alloh unga ilm bergan, lekin, mol, bermagan.

Lekin uning niyati to'g'ri. Agar Alloh menga mol bersaydi, falonchiga o'xshab sarf kilardim. Bu shu niyatiga qarab teng ajr oladi.

3. Bir banda bor. Alloh unga, mol, bergan, ilm bermagan. Mol, tasaruffida Allohdan ko'rqmaydi. Molidan qarindoshlariga bermaydi. Bu esa eng yomon o'rindir.

4. Bir banda bor Alloh unga mol ham, ilm ham bermagan. U aytadiki, agar Alloh menga, mol, ham, ilm ham bergandaydi, falonchiga o'xshash ish qilardim. U shu niyati bilan o'sha kishiga barobar hisoblanadi (savob va gunohda) (33, 79-b).

Birinchi va ikkinchi guruhdagi kishilar ayni sahovatli insonlar qatoriga kiritiladi.

Xulq-odob haqidagi hadislarida ezgu insoniy hislatlar ulug'lanib, gunoh sifatidagi illatlar qoralanadi.

Bundan tashqari, musulmonlarga xos udumlar, urf-odatlariga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, emoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiflar beriladiki, bular bevosita keyingi odob-axloq haqidagi risolalarga ham asos bo'la oladi.

Hadislarda jamiyatning, inson naslining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham katta e'tibor berilgan. Bu muammolarning eng muhimi ekologik muammo bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan: ekinlarni himoya etish, ariq-zovurlar o'tkazib, suv chiqarish kabi ezgu ishlar ham rivoyat qilinadi. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatda o'ldirishga buyurilgan ilon, chayondan bo'lak), jonivorlarga yaxshilik qilish, ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227, 446-hadislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislar shunday ibratli hadislardir (33, 132-b). Hadislarda yomon ishlar, yomon illatlar, yomon xatti-harakatlar, "gunoh" sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu xatti-harakatlar, faoliyati "savob" tarzida olqishlanadi.

Shunga ko'ra, etim molini eyish, mol-dunyoga xirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gapni ko'p gapirish va boshqa illatlar gunoh hisoblanadi.

Ota-ona, keksalar, zaiflar va muxtojlariga g'amxo'rlik, ularni yo'qlab turish, marhumlarni yaxshi so'zlar bilan xotirlash, birov ularning ustidan kulmasligini ta'minlash, omonatga hiyonat qilmaslik kabilar savob sanaladi.

Ma'lumki, inson kamolati bevosita uning sog'lomligiga ham bog'liqdir. Chunki sog'lom insongina ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi uchun faoliyat ko'rsatadigan kishilar bo'lib etishadi.

Hadislarda, umuman, Islomda tozalik va poklikka, ruhiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi. "(Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. Eshiklarni oldini pokiza tutinglar)" (190-hadis, 133, 66-b.). Shuning uchun ham nomozdan keyin yuz- qo'lni yuvish, maxs tortish, oyoqni yuvish, mustaxab, o'ng qo'l bilan tahorat qilmaslik, burunga suv tortmoq, og'izni toza tutish, g'usl, tayammum qoidalari insonni jismonan pok bo'lishga yo'naltirganki, bular avloddan- avlodlarga o'tib, xulq-odob qoidalariga aylanib qolgan. Hadislarda inson erkiga ham ahamiyat berilgan.

Inson har tomonlama etuk bo'lishi uchun u erkin bo'lishi kerakligi "Qur'oni Karim"da ham, "Hadisi Sharif"da ham e'tirof etilgan: Alloh Taologa amali solihlarning yaxshi ko'ringani agarki oz bo'lsa ham davomlisidir. Alloh Taologa farzlardan so'ng amali solihlarning eng sevimlisi musulmon kishining diliga xursandchilik solishdir. "(33 - hadis)". Alloh o'zi kechiruvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko'radi (191 - hadis) kabi hadislar buning dalilidir. Chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezguliklar, yaxshiliklar insonga atalsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson ham shunga ko'ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko'tarilaveradi, o'z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat ham rivojlanaveradi.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo' minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolatga da'vat etadi. Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolatga etkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Arablar istilosidan soʻng musulmon maktablarida taʼlim tizimi va mazmuni qanday tashkil etildi?
2. Maktab va madrasalarda taʼlim qanday tashkil etilgan edi? “Hadis” va “sunna” tushunchalarining mazmunini tushuntirib bering.
3. Z. Imom Ismoil al-Buxoriy va at-Termiziylarning ibratli hayot yoʻli haqida soʻzlab bering?
4. Hadislarda ilgari surilgan odob-axloq masalalarini qanday izohlaysiz?
5. Hadislarda tarbiya mazmuni, metod va shakllari qanday ifodlangan?
6. Hadislar va unda ilgari surilgan axloqiy hislatlarni hozirgi davr tarbiya mazmuniga qanday kiritish mumkin?
7. Daftaringizga hadislardan 40 tasini yozib keling va maʼnosini tushuntirib bering.

Mustaqil oʻqishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoil an-Nabaviya. - T.: “Oʻqituvchi”, 1996.
2. Boboxonov Sh., Irisov A. Hadis ilmining peshvolari. - T.: 1992.
3. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. -T.: 1990..
4. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomeʼ as-sahih. -T.: 1991.
5. Pedagogika tarixi. Maʼruza matnlari 1-qism. (Tuz.S.Nishonova., B.Hasanova.). -T.: TDPU 2001.
6. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov . Pedagogika tarixi.- T.: Oʻqituvchi, 1997.
7. Hasanov R. «Pedagogika tarixi kursini oʻrganish uchun metodik tavsiyalar».-T., 1990.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi.-T.: Oʻqituvchi, 1996.
9. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -T., “Sharq”, 2006.
10. Oʻzbek pedagogikasi tarixi (prof. A.Zunnunov umum. taxr.ost.). - T.:Oʻkituvchi, 1997.

III BO‘LIM. SHARQ UYG‘ONISH DAVRI VA BU DAVRDA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI (Al-Xorazmiy, al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari)

Reja:

1. Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan, madaniyat.
2. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari.
3. Al-Forobiyning ijtimoiy - pedagogik qarashlari va uning ilmiy pedagogik merosidan foydalanish.
4. Beruniyning ilmiy merosi va uning pedagogika fani taraqqiyotidagi urni.
5. Ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida

Tayanch tushunchalar: falakiyot va matematikaga doir asarlar; “Er sathni o‘lchash, ta’lim-tarbiya, fikriy-xulqiy. Fazilat Muallim as soniy; Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar; “Hindiston”, “Shayx ar Rais”, “Donishnoma”, jasurlik, chidamlilik, aqllilik, ziyraklik.

3.1. Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan, madaniyat

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta’sir etdi. IX asrda Sharq mamlakatlarida boshlangan va madaniy hayotda yuz bergan ko‘tarinkilik ma’naviy hayotda ham o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi.

Ana shu ko‘tarilish butun Arab xalifaligini, Yakin va o‘rta sharqni qamrab olganligi uchun xam Sharq Uyg‘onish davri deb ataldi. Bu uyg‘onish jarayoni IX asrlardan boshlanib XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Bu jarayonda arab xalqlari bilan birga Eron, Kavkaz orti, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo olimlari ham ishtirok etdilar. Chunki Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan uygonish davri xalifaligining Bag‘dod, Damashk, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshka xalqlar madaniy hayotiga tarkaladi, bu esa u davlatlarda ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlaydi va bu jarayonni boshlab beradi.

Buni biz xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786-833), so‘ng uning

o'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda "Baytul hikma" ("Donishmandlik uyi"), hozirgi davrda Akademiya ma'nosida tashkil etilganidan ham bilsak bo'ladi. Mazkur Akademiya 813-833-yillarda yanada rivojlanagan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo'lgan, yangi kutubxona qurilgan. Bag'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan, bu haqida mazkur "Baytul hikma" ning ilmiy ishlarga rahbarlik qilgan al-Xorazmiy xalifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqiga qay darajada homiylik qilganini "Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida" asarida shunday ta'riflagan: "Oллоh Imom al-Ma'munga. Unga meros bo'lib qolgan xalifalik lavozimini in'om qilib, muruvvat etganligi, bu lavozim libosini kiydirib, uni bezaganligi va shu bilan birga unda fanlarga muhabbat va olimlarni o'ziga yaqin tutishga intilish (hissiyotini) o'yg'otganligi menga jasorat ato qildi, (chunki u) ularning ustiga o'z homiylik qanotini yozib, ularga noaniq bo'lgan narsalarni yoritishga va ular uchun mushkul bo'lgan narsalarni osonlashtirishga yordamlashadi".

Xorun ar-Rashidning ikkinchi o'g'li al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Hurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javxariy, al-Farg'oniy, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va "Baytul hikma" - donishmandlik uyi ("Ma'mun akademiyasi")da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Shuningdek, Sharq Uyg'onish davrining paydo bo'lishida asosiy manba qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar ham bo'lib, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Huroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniy yodgorliklari ham bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Bular bilan birga, yana eng muhim tomoni ham borki, IX-XV asrlarda Yaqin va o'rta Sharqda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berdi va bu o'zgarishlar natijasida Uyg'onish davri kabi muhim bir jarayonni vujudga keltirdi.

Zero, agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu erdan ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-

fanning etuk siymolari etishib chiqa boshladi. Bularning barchasi bir-biriga qo'shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshladi. Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kakaz orti va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan er maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan erlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari kurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'kildi. Movarounnahr, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoro to'kimachilik maxsulotlari, ayniksa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan.

Qishlok xo'jaligi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishiga yo'l ochildi. Natijada Yakin va o'rta Sharq davlatlari: Rossiya, Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari olib borildi.

Taniqli olim F.Sulaymonova Shark madaniyatining Ispaniyaga va u orqali Ovrupoga ta'siri haqida gapirar ekan, "Pireney yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yangi yangi sahifalarini ochib berdi. Makedoniyalik Alekesandr orzu qilgan Sharq va G'arbning yangi davri boshlandi. Bu jarayonning, ayniksa, Ovrupo uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina Ovrupo madaniyatining rivojiga ta'sir etibgina qolmay, balki umuman, Ovrupolik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi", - deydi va matematika, falsafa, astronomiya, tabiat, tibbiyot, xulq-odob, turmish tarzi, ijtimoiy iqtisodiy hayotiga qay darajada ta'sir etganligiga ishonarli dalillar keltiradi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Hurosonda mustaqil feodal davlatlari - Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar davlatlarining paydo bo'lishi va xalifalik emirilishi ham madaniy hayotning orqaga ketishiga emas, balki yanada ravnak topishiga olib keldi. Bu davrda pul muomalasi rivojlanadi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi. Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidolari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham

arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi. O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan, kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy muloqat, munozaralar o'tgan.

Abu Ali ibn Sino kitob do'konlaridan birida Abu Nasr Forobiyning Aristotel "Metafizika"siga yozgan sharhlarini sotib olganligini tarjimai holida hikoya qiladi.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan. Amir kutubxonasini o'sha davrdata Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar. Chunki Sheroz kutubxonasida kitoblar maxsus javonlarda saqlansa, amir kutubxonasida esa sandiqlarda saqlangan.

Bu davrda hind, eron, arab-yunon tillaridan tibbiyot, astronomiya, matematika, mantiq, psixologiya, falsafaga oid asarlar tarjima qilinishi shu sohaga oid bilimlarning rivojlanishiga ta'sir etdi. Eronlik Abdulla ibn al-Mukaffo (724-750) yozuvchi, pedagog, olim va tarjimon sifatida salmoqli ishlar qildi. U "Buyuk ishlar uchun nasihatlar" va "Kichik ishlar uchun nasihatlar" asarlarini yaratgan, paxlaviy tilidan hindlarning "Kalila va Dimna" didaktik asarini, "Shohlar kitobi", "Mazdak", "Oynoma"ni arab tiliga tarjima qilgan. Aristotelning "Kategoriya", "Talqin haqida" va boshqa asarlarini ham arab tiliga tarjima qilgan. Ibn al-Mukaffo 750-yilda Moniy targ'iboti tarifdorlari sifatida qatl etiladi.

Qadimgi yunoniston olimlari Platon, Aristotel, Gippokrat, Galen, Evklid, Ptolomey, Arximed va boshqalarning asarlari fors tilidan, badiiy-didaktik asarlar "Kalila va Dimna", "Fors shohlari hayoti" hind tilidan, hind dorilari va ularning nomlari "Saorad", "Siddxanta", "Nabotiy dehqonchiligi to'g'risida kitob" va boshqa kitoblar tarjima qilindi.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va hatto G'arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan

asarlarini yaratdilar. XI asr boshida G'aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar. Xorazmshohlar davlati ham tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoy fikrlar rivojlandi. Mahmud G'aznaviy o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning mashhur "Hindiston" asari shu erda yaratilgan edi.

Saljuqiylar davrida Ali-Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizom ul-Mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi.

U G'aznaviylar ish uslubiga bir oz o'zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining "Siyosatnoma" asarini yaratadi (1091-92). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi.

Nizom ul-Mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qildi. U 1067-yilda Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti – "Nizomiya" madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri taqvimni isloh qiladi. U 1074-yili o'rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim hozirgi eng takomillashgan kalendarlardan hisoblanadi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etdi. Xorazm shohi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan "Baytul hikmat"- Donishmandlar uyi tarixda "Ma'mun akademiyasi" deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saql al-Masixiy, tabib Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muqim rol o'ynadilar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargoqi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqalib ketadi.

XIII asrga kelib, o'rta Sharq mamlakatlari, Movarounnahr mo'g'ullar istibdodiga uchradi. Bu davrda ishlab chiqarish kuchlari, madaniy markazlari vayron etildi. Xalq qattiq zulm ostida ezila boshladi.

Movarounnahr va Hurosonda mo'g'ullar istibdodi davrida "Uyg'onish" davri tanazzulga yuz tutdi.

Sharq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm-fan shartli ra-

vishda uch yoʻnalishda rivojlanganini koʻramiz. Birinni yoʻnalish - matematika, tibbiyot yoʻnalishidagi fanlar boʻlib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya, geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniylar matematikaga oid, Zakriyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy, Ulugʻbek, Ali Qushchilar astronomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Birinchi yoʻnalish - ijtimoiy-falsafiy yoʻnalish boʻlib, bunda falsafa, texnika, mantiq, fikr, ruxshunoslik, notiqlik va boshqa sohalar boʻlib, bu sohada al-Farobiy, al-Kindiy, ibn Rusht, ibn Sino, Zahiriddin Bayhakiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalarni koʻrsatish mumkin. Lekin biz yuqorida zikr etgan olimlar qomusiy olimlar boʻlib, asosiy kashf etgan ilm sohalarini bilan bir qatorda boshqa bir necha fanlarga doir tadqiqotlar olib borganlar.

Uchinchi yoʻnalish - taʼlimiy-axloqiy yoʻnalish boʻlib, bu sohada qomusiy olimlar oʻz qarashlarini ijtimoiy-falsafiy asarlarida ifodalaydilar. Mazkur davrda ilmiy bilishga asoslanuvchi metod shakllandi. Natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida boʻldi: Xorazmiy, Forobiylar bu metodni asoslab bergan buyuk mutafakkirlar boʻlsalar, ular bilan bir qatorda oʻsha davrda yaratilgan barcha taʼlimiy-axloqiy risolalarda ham aqliy tarbiyada zehnni tarbiyalash, aqliy kamolat yoʻllari, bilimning asl mohiyatlarini yoritishga harakat qildilar.

Mutafakkirlarning oʻz ishlarida oʻqitish va taʼlim-tarbiyaga eʼtibori natijasida taʼlimiy-axloqiy masalalarga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni oʻqitishning uslubiy masalalariga ayniqsa eʼtibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uning kamoloti bilan bogʻliq muammo asosiy oʻrin egallaydi. Taʼlimiy-axloqiy asarlarda bir tomondan inson aqli, uning quvvati, ilm-fanni egallashi, xushxulq boʻlishi ifodalansa, ikkinchi tomondan bu ifodalar taʼlimiy-axloqiy asarlarda oʻzining badiiy ifodasini topadi. Mutafakkirlar taʼlim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamolati baxt-saodatga erishish uchun sharoit yaratish degan gʻoyani ilgari surish bilan bogʻlab talqin etadilar.

Xulosa qilib aytganda, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qadimgi maʼnaviy yodgorliklar Movarounnahr va Hurosonda IX asrlarga kelib maʼnaviy koʻtarilish, Sharq Renessansi - uygʻonish davrining boshlanishiga olib keldi.

Butun Sharq bilan bir qatorda, Movarounnahr ham ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar maydonga keldi. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuningdek Sharq Uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlar haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan, tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

Demak, Uyg'onish davri inson kamolati muammolari ikki yo'nalishda:

1. Qomusiy olimlar ijodiy merosida komil insonni tarbiyalash muammosi.

2. Sof ta'limiy-axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolari yoritilganini ko'ramiz.

Quyida biz qomusiy olimlarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari, ma'naviy, axloqiy qarashlari haqida to'xtalamiz.

3.2. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari

Al-Xorazmiy (783-850) jahon matematika fanining buyuk namoyandasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy tahminan 783 y. Xorazmda tug'iladi.

U boshlang'ich ma'lumotni o'z uyida otasidan olgan. Chunki uning otasi o'qimishli bo'lgan. Qadimiy diniy urf-odatlarini, erli xalq yozuvlarini bilgan. Diniy va ilmiy adabiyotlardan xabardor bo'lgan. Shuning uchun al-Xorazmiy bolaligidayoq bu ilmiy manbalarni o'rganish imkoniga ega bo'lgan. Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug'ullangan. Shu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o'rgangan. U arab, fors, yunon tillarini ham o'rganib, bu tilda yaratilgan asarlarni ham o'qiy olish qobiliyatiga ega bo'lgan. U "Al jabr va al-muqobala" asari bilan

matematika fanini rivojlantirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi. "Al-jabr" keyinchalik matematikaning alohida bo'limiga aylandi va "Algebra" deb ataladigan bo'ldi.

Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi "Hind arifmetikasi haqida kitob" bo'lib, ular o'nlik sistemasi raqamlariga bag'ishlangan.

Xorazmiy hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi. Shuningdek olim "Er sathini o'lchash", "Quyosh soati to'g'risida", "Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash" kabi asarlari bilan fan sohasiga juda katta hissa qo'shdi.

Bular ma'rifiy-tarbiyashunoslik jihatidan ham hozirgi kunda ahamiyatga molikdir.

Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

Xulosa qilib aytganda, al-Xorazmiy evropa va sharqda falaqiyot va matematika sohasida yangi davr ochdi. Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli "Arab raqamlari" nomi bilan butun dunyoga yoyildi. Xorazmiyning falakiyot va geodeziyaga oid kuzatishlari, geografiyaga oid asarlari, u chizgan er xaritasi ham sharq va g'arb olimlari uchun tekshirish, kuzatish ishlarini olib borishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Xullas, al-Xorazmiy ilmiy bilim, ta'lim metodlari, ilm-fanga ko'shgan hissasi bilan insonni aqliy kamolga etkazishda, ta'lim-tarbiyada o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk allomadir.

3.3. Al-Forobiyning ijtimoy-m-pedagogik qarashlari va uning ilmiy pedagogik merosidan foydalanish

Abu Nasr Forobiy (873-950). Forobiy 873-yilda Sirdaryoning Forob degan joyida tug'iladi. U boshlang'ich ma'lumotni o'z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o'qishni bilar edi. U yoshligidanoq o'rta asr fanlarini chuqur o'rganadi. U ilmiy malakasini takomillashtirish maqsadida 10 yoshidan Shosh, Samarqand va Buxoroga kelib ta'lim oladi. Lekin bu joylar uning ilmga bo'lgan chanqoqligini qoniqtirmaydi.

U Eronning Ray, Hamadon shaharlarida bo‘ladi.

U umrining 40-yildan ortig‘ini Bag‘dodda o‘tkazadi. U bir vaqtning o‘zida arab, fors, yunon tillarini o‘rganadi. Forobiy aniq fanlar: ilmi nujum, riyoziyot, musiqa, tabobat fanlariga qiziqadi. Lekin u ko‘proq falsafa ilmi bilan shug‘ullanadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra u Buxoroda bo‘lgan kezlarida Buxoro amiri Mansur ibn Nux Somoniyning iltimosiga ko‘ra falsafiy asar “At-taxlimiy” asarini yozadi. Shu asari tufayli “Muallim as-soniy” (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur bo‘ladi. Olim 70 dan ortiq tilda so‘zlasha olgan. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini etib kelgan xolos.

Forobiy asarlarining mazmuniga qarab 7 ta katta guruhga bo‘lib chiqishimiz mumkin. Ana shu turkumlash jarayonidagi eng muhim bo‘limi tarbiya masalasiga bag‘ishlangan ettinchi qismdir. U ta‘lim-tarbiyaga oid, “Baxt-saodatga erishish yo‘llari haqida risola”, “Fozil odamlar shahri”, “Fazilatli xulqlar”, “Shaharni o‘rganish haqida” kabi asarlar yaratgan. Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangandir.

Forobiyning asarlari arab tilidan dunyoning ko‘p tillariga - rus, ingliz, ispan, fransuz, o‘zbek tillariga tarjima qilingan. Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. Chunonchi, uning asarlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, o‘z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olg‘a ketgan.

Forobiyning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Forobiy birinchi bo‘lib ta‘lim va tarbiyaga ta‘rif bergan olimdir.

1. Ta‘lim - so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi.

2. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan, ya‘ni shu yo‘l orqali amalga oshiriladi, deydi.

3. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

4. Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda yaxshi tajriba oltirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi.

5. Ma'lumki, inson hech qachon tug'ilganda yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabihlikka mayl, qobiliyat bo'ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo'ladi.

1. Fikriy fazilat.

2. Xulqiy.

Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat - intiluvchi quvvatga kirib iffat, shijoat, sahiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir.

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta'lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'inaidi.

3.4. Beruniyning ilmiy merosi va uning pedagogika fani taraqqiyotidagi o'rni

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy 973 4 sentyabrda Xorazmda dunyoga keladi. Beruniy yoshligidan ilmga ayniqsa aniq fanlarga qiziqadi. U matematika, jo'g'rofiya, yulduzlar ilmi, tibbiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqadi. Fors va arab tillarini va qadimgi ajdodlar tillarini qunt bilan o'rganadi.

Beruniy bir necha-yil koinot, metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida "Minerologiya" asarini yaratadi. Uning "Geodeziya" asarida geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda poleontologik kuzatishlari natijalari ham bayon qilingan. Beruniyning yana bir muhim asari "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar"dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan. Olim 1030-yilda o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur "Hindiston" asarini yaratadi. Asarda Beruniyning Hindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan. Hammasi bo'lib 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Olim o'z asarlarini o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yozgan. Beruniy yuqoridagi asarlarida inson kamoloti xaqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq

bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma'rifatida deb biladi. Shuning uchun u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan rahmdil, mehribon, kishilarga iltifotli, hayrihoh, bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo'yish, yolg'on gapirish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy hislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo'ladi. Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritir ekan, "insonga er yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim", - deydi.

Aqliy tarbiya, deydi Beruniy, kishining tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning o'z-o'zini anglab etishiga ta'sir etadi. Mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi hakida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e'tibor beradi va hayrihoh bo'lishga chaqiradi. Shu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar, er ostida ishlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak deydi. Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. U bolalarni eng kichik ilk yoshidan mehnatga o'rgatish kerak deydi.

Beruniy "Minerologiya" asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida qimmatli fikrlar bildiradi.

"Saydana" nomli ma'lum va mashhur asarida esa sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Beruniy inson kamolotida 3 narsa muhim rol o'ynaydi deydi:

1. Irsiyat.
2. Muhit.
3. Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda u:

-o'quvchini zeriktirmaslik;

- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Olim fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi. Ilm toliblariga qalbni yomon ilatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini uqtiradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga egadir.

3.5. Ibn Sino ta'lim–tarbiya haqida

Abu Ali ibn Sino (980-1037) 980-yilda Buxoro shahri yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Abdulloh va uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashar edi. Bunday oilaviy muhit, Buxoro shahridagi ko'plab madrasalar, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalarning mavjudligi ham yosh va iqtidorli ibn Sinoga o'z ta'sirini ko'rsatadi. U maktabda o'qib ko'pgina ustozlardan ta'lim oladi. Masalan: Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, xandasa bo'yicha, Buxorolik Abu Mansur Qamariydan til bo'yicha ta'lim oladi.

IX asr oxiri va X asr boshlariga kelib o'lkada siyosiy ijtimoiy vaziyat murakkablashadi. Shuning uchun ibn Sino Xorazmga - Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda bir qator olimlar bilan hamkorlikda Beruniy boshqarayotgan "Ma'mun akademiyasida" ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Natijada o'zining yirik asari "Tib qonunlari", "Ash-Shifo" ustida ish olib boradi.

Ibn Sino fanning turli sohasiga oid 450 dan ortik asar yaratadi. Lekin bizgacha 250 ga yakini etib kelgan bo'lib, ulardan 50 dan ortik qo'l yozmalari O'zbekiston fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanib kelinmoqda. U ta'lim-tarbiyaga ta'lluqli bo'lgan quyidagi asarlarni yaratgan.

Masalan: “Tadbir al-Manozil” (turar joyi boshqarish), “Axloq haqida risola”, “Burch haqida risola”, “Nafsni pokiza tutish”, “Badanni boshqarish”, “Adolat haqida kitob”, “Al-qonun”, “Ishq haqida risola”, “Xay ibn-Yakzon”, “Nomozning mohiyati haqida risola”, “Ziyorat qilishning ma’nosi haqida”, “An-Najot”, “Ash-Shifo”, “Donishnoma” kabi asarlari bilan ilm-fanga ulkan hissa qo’shgan buyuk allomadir.

Shuning uchun ham Sharqda unga, “Shayx ur-Rais” - ya’ni olimlarning olimi degan yuksak unvon berilgan.

U o’zining “Axloqqa oid risola”sida insonning umumiy fazilati haqida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo’lish sabablari to’g’risida to’xtaladi. Uning fikricha yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo’ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo’lishida hukumat ahllarining ta’siri ham zo’r bo’ladi, deydi.

Ibn Sino axloqiy hislatlardan: iffat, qanoat, sahiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma’rifatli bo’lish, kamtarlik, adolatlilik, do’stlik, vafodorlik kabi axloqiy kategoriyalarga ta’rif beradi. U insoniy fazilatlarga:

Jasurlik - biror ishni bajarishda kishining jasurligi;

Chidamlilik - inson boshiga tushgan yomonlikni to’xtatib turuvchi quvvat;

Aqllilik - biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat;

Ziyraklik - sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushinishga yordam beruvchi quvvat.

Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o’ch olish, adovat, bo’xton, irodasizlik kabi-lardir.

U fanlar tavsifi haqida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o’ringa tibbiyot fanlarini qo’yadi. Falsafani esa ikki guruhga - nazariy va amaliy guruhga bo’ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi.

Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o’rganuvchi barcha fanlarni kiritgan. Olim fizika, adabiyot, tarix fanlari bilan shug’ullangan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo’lib maktabda o’qitish zarurligini ko’rsatadi va ta’limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib qo‘ymaslik;
- ta’limda engildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta’lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatli bo‘lib, bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

U bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi. Agar qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotellar bola tarbiyasini davlat ixtiyoriga qo‘ysalar, ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug‘ullanishi kerak deydi.

Xulosa qilib aytganda, ibn Sino buyuk olim, faylasuf, adib, tabib bo‘lishi bilan birga buyuk murabbiy edi. U ta’lim-tarbiya haqida juda ko‘p bosh qotiradi. Olimning pedagogika faniga qo‘shgan hissasi shundaki, u ta’limiy-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy, ham estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi, kamolga etishining mezonini ishlab chiqadi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa olimning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan hisoblanadi. Yana uning xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug‘ladi, undagi qudratga ishonadi. Inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini targ‘ib qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sharq Uyg‘onish davrida ilm-fan, madaniyat ta’lim-tarbiya taraqqiyotini nimalarda ko‘ramiz?

2. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va didaktik qarashlarining mohiyati nimada?

3. Forobiy fanlar tasnifi haqida.

4. Forobiyning ta’lim-tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?

5. Forobiyning Fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining

hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang?

6. Beruniyning axloqiy, aqliy, jismoniy, nafosat tarbiyasi haqidagi fikrlarini izohlang?

7. Beruniy ilmiy merosining ahamiyati nimada?

8. Ibn Sino ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini qanday izohlaysiz?

9. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan?

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Istiqlol va ma'naviyat". – T.: O'zbekiston, 1994.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: Meros, 1993.
3. Buyuk siymolar, allomalar (nashrga tayyor. akad. M.M.Xayrullayev). - T.: Meros, 1995.
4. Pedagogika tarixi. Ma'ruza matnlari 1 qism (Tuz. S.Nishonova., B.Hasanova).- T.: TDPU, 2001.
5. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov . Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.
6. Hasanov R., Hasanova B. Sharq uygonish davri va bu davrdagi pedagogik fikrlar.- T.: MRDI, 2000.
7. Hasanov R. «Pedagogika tarixi kursini o'rganish uchun metodik tavsiyalar». -T., 1990.
8. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. -T.: O'qituvchi, 1993
9. Hoshimov K. , Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996.
10. Hoshimov K. , Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -T., Sharq, 2006.
11. O'zbek pedagogikasi tarixi (prof. A.Zunnunov umum. taxr.ost.). -T.: O'qituvchi, 1997.
12. O'zbek pedagogikasi antologiyasi (Tuz. Hoshimov K; Safo Ochil.). - T.:O'qituvchi, 1995.

**IV BO‘LIM. SHARQ PEDAGOGIK TA‘LIMOTIDA
TA‘LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR
(Yusuf Xos Hojib, Kaykovus va Ahmad Yugnakiylarning
ta‘limiy-axloqiy qarashlari)**

Reja:

1. Sharq pedagogik ta‘limotida ta‘limiy-axloqiy asarlarning paydo bo‘lishi.
2. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari - turkiy tilda yaratilgan ta‘lim-tarbiyaga oid dastlabki asar sifatida.
3. Unsurul Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari - pandnoma turkumidagi dastlabki asar sifatida.
4. Ahmad Yugnakiyning “Xibbat ul-xaqoyiq” asarida ta‘lim-tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi.

Tayanch tushunchalar: “Pandnoma”, “ta‘limiy-axloqiy asarlar”, “xojiblik”, “adob al-muluk”, “anis ul-mamolik”, “shoxnomai turkiy”, “ziynat ul-umaro”, “pandnomai muluk”, “adolat”, “davlat va baxt”, “aql ramzlari”, “haqiqitlar savg‘asi”, “javonmardlik” va b.

**4.1. Sharq pedagogik ta‘limotida ta‘limiy-axloqiy asarlarning
paydo bo‘lishi**

Ma‘lumki, Sharq Uig‘onish davrida ma‘naviy-ma‘rifiy sohada asosiy masala inson tarbiyasi muammosi bo‘lgan. Shuning uchun ham ta‘lim-tarbiya masalalariga katta e‘tibor berilgan. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo‘lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi etakchi g‘oya bo‘lgan. Insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta‘lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o‘zagi sanalgan. Bu g‘oyani, ya‘ni insonparvarlik g‘oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va hislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta‘lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo‘yilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy hislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta‘limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning

ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi. Ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etilgan. "Qutadg'u bilig", "Axloqi Nosiriy", "Qobusnoma", "Hibbat ul-haqoyiq", "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Muhsiniy", "Maxbub ul-qulub" kabi Yusuf Xos Hojib, Nasiriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta'kidlaganimizdek inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta'limiy-axloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga etishida yuksak axloqqa ega bo'lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surildi.

Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish "Qur'on" va "Hadis"larni o'rganish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirib olish bilan birga olib borilgan. Shunga ko'ra, "Qur'on" va Hadislardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta'sir etgan. Hadislarning ta'siriga sabab umuminsoniy fazilatlariga alohida urg'u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim hislatlari: halolliq sahovat, himmat, mehru-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etgan. Ta'limiy-axloqiy asarlar bevosita Hadislarda ilgari surilgan g'oyalar asosida yaratilgan. Hadislar ta'siri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan boshlanib, Kaikovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Mir Alisher Navoiyning "Maxbub ul-qulub" va boshqa asarlari negizida ko'rinadi. Ham g'oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir. Masalan, "Qur'on"da ham, "Hadis"larda ham, ta'limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta'rifi bilan birga, xulk-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Xullas, Sharq ta'lim-tarbiyasida ilmni targ'ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy tamoyillariga asoslangan, ta'limiy-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o'xshashligi ular tayangan ma'naviy zaminga bog'liqdir. Masalan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari pedagogika tarixida ta'limiy-axloqiy usulda yozilgan barcha asarlarning tamal toshi desak bo'ladi.

4.2. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari – turkiy tilda yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid dastlabki asar sifatida

Yusuf Xos Hojib X asrning o‘rtalarida tashkil topgan Qoraxoniylar hukmronligi davrida yashab ijod etdi. Qoraxoniylar Sirdaryodan Ettisuvgacha, Shimoliy Farg‘ona va butun Sharqni Turkistonda hukmronligini o‘rnatgandan so‘ng Movarounnahrning ichkrisiga ham kirib borib, Qoshg‘ardan tortib Kaspiygacha bo‘lgan keng maydonda o‘z davlatini tarkib toptirgan edi. Uning markazi Qoshg‘ar (Urdukent) bo‘lib, shimolda Bolasog‘un (Qo‘zurdu), g‘arbda Samarqand, markazda O‘zgand shaharlari ham yirik markaziy shaharlardan hisoblanadi.

Har bir davlatda bo‘lganidek, Qoraxoniylar davlatining ham idora qilish usuli, yurgizadigan siyosati, qonunlari, tarbiya tamoyillari ifodalangan qomus - nizomnoma zarur edi. Xuddi ana shunday zaruriyat tufayli “Kutadg‘u bilig” (1069-1070) asari yaratildi. Bu asarda Qoraxoniylar davlatini mustahkamlash uchun idora usullarini yaratish, barcha tabaqa va toifadagi kishilarning xulq-atvori, jamiyatdagi tutgan o‘rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, davlatning mustahkamligining birinchi tayanchi - insonni ma’naviy kamolga etkazish masalalari qamrab olinadi.

Yusuf Xos Hojib bu murakkab vazifani xalq etishda faqat donishmand, qomusiy mutafakkir sifatidagina emas, balki tarbiyashunos olim sifatida ham o‘zini namoyon etdi. Shunga ko‘ra, u yaratgan “Qutadg‘u bilig” asari ta’lim-tarbiya tarixi, uning nazariy masalalari, komil insonni shakllantirishda ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

“Qutadg‘u bilig” asarida hokimiyat Qoraxoniylar qo‘liga o‘tishi munosabati bilan ta’lim va tarbiyaning ham hokimiyatni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun xizmat etadigan o‘ziga xos talab va tamoyillarini belgilash zarur edi. Shuning uchun ham mazkur asar didaktik, ya’ni ta’limiy-axloqiy usulda yozilgan.

O‘sha davrlarda bunday asarlar (masalan, Nizom-ul-mulkning “Siyosatnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma”) yozish an’anaga kirgan bo‘lsa ham, har biri o‘ziga xos yo‘l-uslubga ega bo‘lib, “Qutadg‘u bilig” ulardan ancha oldin yaratilgandir. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari ta’limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o‘rinlarda turadi.

Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari 6500 baytdan yoki 13000

misradan iborat. Uni buyuk mutafakkir yozib tugatgach, Qoraxoniylar hukmdori Tavgachxon (kitobda Tavgoch -Ulug' Bugra Qoraxon (hoqon), Abo Ali Xasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (hokon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos hojiblik lavozimini beradi. "Qutadg'u bilig" asari katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham "Qutadg'u bilig"ni chinliklar (Xitoy) "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi"), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) "Anis ul-mamolik" ("Mamlakatning tartib-usuli"), eronliklar "Shoxnomai Turkiy", sharq elida "Ziynat ul-umaro" ("Amirlar ziynati"), turonliklar "Qutadg'u bilig", ba'zilar esa "Pandnomai muluk" ("Hukmdorlar nasihatnomasi) deb atagani kitob muqddimasida keltiriladi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib o'z davrining etuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand inson edi. Buni asarning mundarijasi va mazmunidan ham bilsak bo'ladi. U o'z asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, diplomatiya, fiqh soxhsiga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o'zini namoyon etdi. Chunonchi, u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomalamunosabatlarni yoritish bilan birga, diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasbu koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

Qutadg'u bilig - baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga oid etuk didaktik asar, har tomonlama etuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. "Qutadg'u bilig" asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya kilingan holda tuzilgan.

Avval nasriy muqddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib hamda na't va Qoraxonni madx etish, ta'lim maksadi, etti kavokib va o'n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik haqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qaxramon - Kuntug'di - adolat ramzi, vazir - Oyto'ldi - davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish -

akl ramzi, sifatida, O'zgurmish - vazirning qarindoshi - qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga qo'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

Yuqorida ta'kidlangan to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'z maqsad va g'oyalarini bayon etadi. Masalan, Oyto'ldining Elig bilan uchrashuvida uning Elig sinovidan o'tishi jarayonidagi savol-javoblar natijasida davlatning sifati va fazilatlarini, uning bevafoqligi va bebaholigi, adolatning hislatlari, shuningdek el-yurt boshqaruvchilarining hislatlari bayon etiladi.

Oyto'ldining o'g'li O'g'dulmish bilan Eligning suhbatida esa saroy amaldorlari: beklar, vazirlar, lashkarboshilar, hojiblar, elchilar, sarkotib, xazinador, dasturxonchilar, sharobdorlar, beklarning o'z xizmatkorlariga munosabati qanday bo'lishi kerakligi bayon etiladi. O'g'dulmish bilan O'zgurmish munozaralari, Elig bilan O'zgurmish munozarasida esa insoniy hislatlar, xizmat va turmush odoblari borasida fikrlar bayon etiladi, turli kasb egalari tasnifi beriladi.

“Qutadg'u bilig” dagi bosh g'oya - insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di - Elig podsho - adolat timsoli, Oyto'ldi - vazir davlat timsoli, O'g'dulmish - vazir - aql timsoli, O'zgurmish - vazirning qarindoshi - qanoat timsoli - hayoti va davlatni boshqarish jarayonidagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezonini sanaladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tuttan o'rni, burchi va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos tarzda bayon etiladi.

Mutafakkir o'zining axloqiy qarashlarini, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a'zolari barcha tiplari o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Bu axloqiy xulq-odob tamoyillari, talab va vazifalari butun asar davomida qahramonlarning o'zaro munozaralari asosida ifodalangan. Unda Eligxon, uning vakillari, ijtimoiy guruhlarining o'zaro munosabati, axloqi, muomalasi talablari bayon etiladi. Turli kasb egalari xos hislatlar, odatlar yoritiladi.

Asarda ilgari surilgan axloqiy hislatlarni sanab o'tish olimning qay darajada ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo,

shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinsoʻzlik, sahovat, mardlik, himmatlilik, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql, zakovat, halollik, ezgulik kabi hislatlar ulugʻlanadi, ularda yolgʻonchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, mehrsizlik, dagʻallik, qoʻpollik, bahillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxoʻrlik, ochkoʻzlik kabi hislatlarni qiyoslab, ezgu hislatlarning yaxshi oqibatlarini va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi. Bunda dastlab, barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til odobi, uning foyda va zararlariga bagishlanadi.

Til insonning kadr-qimmatini oshiradi, yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushhulqlik boʻlsa, ikkinchisi yaxshi soʻz, deydi olim.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromini tarkib toptirishning barcha koʻrinishlari asarda oʻz ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulugʻ mansabdordlardan tortib, oila aʼzolarigacha bir-biriga boʻlgan muomalamunosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarniig ulugʻlarga, amaddor va mansabdorlarning oʻz xizmatchilariga, xizmatchilarning oʻz xoʻjalariga, turli ijtimoiy guruh aʼzolarining bir-birlariga, oilada oila aʼzolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy koʻrinishlarigacha tasvirlab, kishining koʻz oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida uning tugʻilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni oʻrgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning xatti-xarakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak boʻladi.

Olim ulugʻlar va kichiklar oʻrtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi oʻgʻitlari diqqatga sazovor va bu fikrlar hozirgi davrda ham qimmatli sanaladi. Olimning beklar, hojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshilar, devonboshilar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi koʻplab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, hulq-odobi haqidagi amaliy oʻgʻitlari va yoʻl-yoʻriqlari har bir amaldor uchun

dastur sanaladi. Masalan, har bir amaldorning o'z ishining ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalari borasida fikr yurita oladigan, so'zga chechan, zehnli, fahm-farosatli, himmatli, ko'zi to'q, ochiq qo'l, sahiy, tadbirli, zukko, xushyor, jiddiy, qanoatli, jasur, sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'z so'zi ustidan chiqadigan, andishali, she'r bahsida ishtirok etib, o'zi ham she'rlar to'qiy oladigan, turli tillarni bila oladigan va yoza oladigan, nard, shatranj, chavgon o'yinlarni o'ynay oladigan, merganlik kabi hislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir insonning kamolga etishida to'sqinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham holi bo'lishi lozimligi: maishat, ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, fisqu fasod, maishiy bo'zoqlik, mayparastilik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, hiyonat, davlat ketidan quvish, manfaatparastlik, xudbinlik, boshqalarning xaq-huquqlarini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar shunday illatlardirki, buning natijasi davlatning rivojiga putur etkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlikka olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslahat beradi. Masalan:

(Agar) dunyo beglari ichimlikka (maishatga) berilsa.

El va xalkning dardlari (kismati) achchik bo'ladi.

Jahongir kishi aysh-ishratga mahliyo bo'lsa,

Elini buzadi (harob kiladi, o'zi (esa) tilamchi bo'lib koladi.

Yusuf Xos Hojib takabburlik, mag'rurlanish, kekkayishga kamtarlik, xushsuxanlik, xushfe'llikni qarshi qo'yadi. Shuningdek, amaldorlarga baland himmatlilik, muruvvatli bo'lish, samimiylik xoh katta, xoh kichik bo'lsin, xos fazilat ekanligini alohida ta'kidlaydi. Insonning haqiqiy boyligi uning ko'z va ko'ngil to'qligi deb biladi. Zero, ochko'zlik, ta'magirlik insonda poraxo'rlik kabi yomon illatning tomir otishiga olib keladi, deydi. Yusuf Xos Hojib oilaviy-maishiy turmush ikir-chikirlariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi.

4.3. Unsurul Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari - pandnoma turkumidagi dastlabki asar sifatida

Ming-yilga yaqin davrdan beri xalqni, ayniqsa, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda qo‘llanma bo‘lib kelayotgan “Qobusnoma” asari esa hozirgi o‘zgarishlar davrida insonni ma’naviy kamolatga etkazishda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur asar juda ko‘p sharq va g‘arb tillariga tarjima etilgan. Uning muallifi Unsurul Maoliy Kaykovus gilon qabilasidan bo‘lib, Tabristonda (Hozirda Kaspiy dengizining janubidagi hudud) yashagan. Ammo biz Kaykovus va uning avlodlari haqida juda oz ma’lumotga egamiz. Kaykovusning o‘zi ta’kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta’rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag‘ishlangan. Kaykovus “... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to‘rt bobda bayon etdim”, deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog‘langan holda kamolga etkazish yo‘llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim-tarbiya berish nazariyasi ko‘zda tutilgan:

1. Kaykovus bilim haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulk-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va ma’oni, ya’ni ham sipohiylik, ham ma’rifat, ham donishmandlikka ega bo‘lish zarur bo‘lib, bu hislatlar ana shu yuqoridagi to‘rt yo‘nalishda zikr etilgan.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida esa yoshlar tarbiyasida - javonmardlik talablaridan eng muhimi - bu yuksak axloqlilik tarbiyasi ekanligi keltiriladi. U yoshlarda insonga nibatan insoniy munosabatda bo‘lish, adolatlilik, samimiylik, sahiylik, mardlik kabi hislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga harakat qiladi.

Kaykovusning hayotda xulq - odob qoidalari qanday rioya etish haqidagi fikrlari ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bu qanoatli, muruvvatli bo‘lish haqidagi qarashlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Uning axloqiy qarashlari yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etilgan: “Ey farzand, yaxshilik qil va qilg‘on

yaxshilikdan hargiz pushaymon bo'lmagil. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat etadi, sening ko'nglingga ham undan ziyodroq shodlik va yozish xuramlik etishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, etgulsidur. Yaxshilikning yaxshilik bilan qaytishi ayni haqiqatdir. Kaykovusning kundalik turmushdagi xulq-odob qoidalariga oid fikrlari asarning "Majoz" (hazil-mazah) qilmoq, shatfanj (shaxmat), nard o'ynamoq zikrida", "Shikorga (ovga) chiqmoq zikrida", shuningdek, ovqatlanish, dam olish, hammomga borish, mehmondorchilik, sharob ichishga bag'ishlangan boblarida bayon qilingan bo'lib, hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunday xulq-odob qoidalari inson kamolatini ko'rsatuvchi sevgi va muhabbat, do'st tanlash va dushmandan saqlanish masalalarida, ayniqsa, namoyon bo'ladi. "Ishq va uning odatlari zikrida" bobida Kaykovus ishqda yanglishmaslikni, latif ta'bo'lishni manzur ko'radi.

Kaykovus inson tarbiyasiga katta e'tibor bergan, axloqiy yuksak insonni tarbiyalash mezonlarini ham ko'rsatib o'tgan. U axloqlilikning birinchi belgisi suhandonlik deb biladi, suhandonlik (notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. U so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi: birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana belgisi kelaveradi. Bular Olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsani bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

So'zlarning esa - birinchi - bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytiladigan va biladigan; uchinchisi - ham bilinadi, ham aytishga, bilishga zarurati yo'q. Ammo aytsa ham bo'ladi. To'rtinchisi - bilinadigan va aytilmaydigan. Eng yaxshisi to'rtinchisi, ya'ni bilinadigan va aytilmaydigani, deydi. So'zlaganda andishalik bo'lish, sovuq so'zli bo'lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so'zini diqqat bilan eshitish odoblarini ta'kidlaydi.

Uning axloqiy qarashlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus "Qur'on" va "Hadis"lardagi talablardan kelib chiqqan holda o'zining nuqtai nazarini bayon qiladi: "o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida

shunday bo'lgil, nedinkim sen ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shunday ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydur", deydi.

Kaykovus oilada otaning vazifasi va burchiga alohida ahamiyat beradi. Farzand tugilganida avvalo unga yaxshi ot qo'yish, undan so'ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o'qitish, ulg'aya boshlaganda kasb va hunar o'rgatish kerak, deydi. Kaykovus otaning burchi yana o'z farzandiga adab ham o'rgatish ekanligini ta'kidlaydi. U ilm, hunar va odabni farzandga meros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, deb hisoblaydi. Kaykovus otalarning o'z farzandlariga nisbatan qattiqqo'l bo'lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomondan bajarilishini istaydi. Chunki otaning o'z qo'li farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qiladi. Lekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayikmasa ota-onani xor qiladi, deb ta'lim beradi.

U Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urushmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik; riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik; yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik; bahil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir erda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik, muxtoj bo'lgan odamni gina, qahr bilan qo'rqitmaslik; gunohkorninigi gunohini avf etish kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday xatti-harakatlarga duch keladi.

4.4. Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarida ta'lim-tarbiyayaga oid masalalrning ifodalanishi

Koraxoniylar hukmronligi davrida yaratilgan ta'limiy axloqiy asarlardan yana biri Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar sovg'asi") asaridir. Mazkur asar mazmunini ham o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalar va ularni ma'lum talablar asosida tartibga solish tashkil etadi. "Hibbat ul-haqoyiq" To'g'ul

Qilich Sipohsolorbekning nomiga atab yozilganligi manbalarda keltiriladi. Uning yozilgan vaqti taxminan XII asr boshlariga to'g'ri kelishi ta'kidlanadi.

“Qutadlg‘u bilig” kabi Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asari ham Qoraxoniylar hukmronligi davrida mamlakatning ma'naviy hayot darajasini ko'tarishga xizmat qilish maqsadida yozilgan. Uning mazmuni ham didaktik xarakterga ega. “Hibbat ul-haqoyiq” asari mundarijasining o'ziyoq buni ko'rsatib turadi. Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, sahovat va bahillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Axmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarida ham markaziy o'rinda inson, uning har tomonlama etuk qilib tarbiyalash masalasi turadi. Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushhulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muhabbat qo'yishning oqibatlari, sahovat va bahillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saqlanish haqida, harom va halollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Ahmad Yugnakiy inson axloqliligini ko'rsatuvchi muxim belgilardan birinchisi til odobi deb biladi. Insonda ikki narsa bo'lsa unga muruvvat yo'li yopiladi, deydi adib: biri behuda so'zlarni ko'p gapirsa, ikkinchisi, uning so'zlari yolg'on bo'lsa. Shunga ko'ra adib yolg'on va ko'p so'zlashning oldini olish yo'llarini bayon etadi:

Yolg'onchi kishidan o'zingni uzoq tut, sen umringni to'g'rilik bilan kechir, og'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, so'zni to'g'ri so'zla, dilingni beza, deb to'g'ri so'zni asalga, insonni davolovchi shifoga o'xshatadi. Adib to'g'ri so'zlash bilan birga, sir saqlash haqida ham foydali maslahatlar beradi. Inson sir saqlay olishi kerakligi, hatto do'stta ham sir aytsa, siri oshkor bo'lishi mumkinligi, chunki kishining o'zida saqlanmagan sir boshqada ham saqlanishi mumkin emasligini ishonarli misollar bilan tushuntiradi.

Asarning to'rtinchi bo'limi sahovat va bahillik oqibatlariga bag'ishlangan. Ahmad Yugnakiy ham boshqa mutafakkirlar kabi sahovatni

eng ezgu insoniy hislartlardan deb biladi. Sahiylar hamma tomondan ulug'lanishi, dunyoda inson faqat yaxshi va nuqsonsiz nom qoldirishi mumkinligini ta'kidlar ekan, qo'llar ichida in'om beruvchisi baxtli (qo'l)dir, o'zi olib, boshqalarga bermagan (qo'l) qo'llarning qutsizdir, deydi. Baxillikni adib davolab bo'lmaydigan kasallikka o'xshatadi.

Ahmad Yugnakiy sahiylikni kamolat belgisi deb tushuntiradi. Sahiylikka bahillik, ochko'zlik qarama-qarshi qo'yiladi, boylik to'plab, emay-ichmay, boshqalarga bermay yashagan kishilarning mol-dunyosi oxiri do'stga emas, dushmanga buyurishini quyidagicha yoritadi: Taturmas oshin-da tuz do'stina, o'lur qolur axir sir dushmani. Ahmad Yugnakiy kamtarlik ham inson etukligini ko'rsatuvchi hislatlardan bo'lib, kibrilik va xarislik insonni tubanlashtiradi, deydi. Kim o'zini manman deb, o'zini baland tutsa, uni hech kim hurmat qilmaydi, tavoze'-kamtarlik, muloyimlik insonning xusni deb biladi.

U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan soqit bo'lish yo'llarini ham tavsiya etadi. Masalan, boylik to'plashga mukkasidan ketgan kishilarga mo'tabar, mo'tadil hayot kechirishni maslahat beradi va kishilarni sabr-toqat, qanoat, tinch-totuvlikka undaydi:

Balo keyasa sabr et, farraodka kutub,

Kutub tur farrakka balo-ranj yutuk.

O'char mahnat o'ti, kechar navbati,

Qolur sabr idish savobin tutub.

Ahmad Yugnakiy kishi gunoh qilsa kechirish, g'azab o'tini iloji boricha o'chirish zarur, deydi. Shoir boshqalar bilan ehtiyot bo'lib muomalada bo'lish, foydasiz tortishuvlar ulug'larning g'azabini keltirsa, kichiklarning hulqini buzadi, deydi. U kishilarni, ayniqsa, amaldorlarni martabaga erishgach, kamtar, samimiy bo'lishga chaqiradi. Mavqeyni suiiste'mol qilmaslikni nasihat qiladi.:

Ulug'lukka tegsang enshlma o'zing.

Qorli keysang atlas unutma bo'zung. (Ulug'likka etishsang yanglishma, agar atlas kiysang, bo'z kiyganingni unutma).

Adib do'st-dushmanning farqiga etish, yaxshi kishilarni do'st tutish, do'st tanlashda xato qilmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, doim yaxshi kishilar bilan hamkor bo'lishni, kishining o'zi ham ezgu, yaxshi ishlar qilib yashasa, yaxshi natijaga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Ayo ed gu umgon esizlik qilip.

Tikan eylagan er uzum bichmas ul. (Ey, yomon qilib yaxshilikdan

umidvor bo‘luvchi, tikan izlagan (qidirgan) kishi hech uzum uzmaydi), deydi.

Shuning uchun ham Axmad Yugnakiy kishilarga yaramas ishlar qilmaslik, tinch va farog‘atda yashash, halol bo‘lish, ochko‘z-suq bo‘lmaslik, haromdan saqlanish kabi hayotiy pand-nasihatlarini beradi.

Mavzuni mustahkakmlash uchun savol va topshiriqlar:

1. IX-XII asrlarda ta’lim-axloqiy asarlarning paydo bo‘lishi shart-sharoitlari haqida gapiring.

2. Ta’limiy axloqiy asarlarning mazmunidagi o‘xshash va farqli tomonlarini tushuntiring.

3. Pandnomalarda ilgari surilgan barkamol inson (komil inson) tarbiyasining asosiy sharoitlari nimalarda ko‘rinadi?

4. Javonmardlik tarbiyasi kimning qaysi asarida ilgari surilgan va u nimasi bilan hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ?

5. Daftaringizga komil insonga xos hislatlarni Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy asarlaridan misol keltirib sharhlang.

6. Siz hozirgi davr ta’lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasida yuqoridagi asarlarda ifodalangan metod va shakllardan qanday foydalangan bo‘lar edingiz?

Mustaqil o‘qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. “Fidokor” gazetasi muhbiri savollariga javoblari. “Ma’rifat” gazetasi, 2000.06.08.

2. Buyuk siymolar, allomalar (nashrga tayyor. akad. M.M.Xayrullayev). - T.: Meros, 1995.

3. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: Meros, 1992.

4. Maxmudov Q. Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyi asari to‘g‘risida”. - T.: 1972.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. - T.: Fan, 1977.

7. Xasanova B. Pandnomalar - ma’naviyat manbai. -T., 1997.

8. Hasanboyeva O., Hasanboyev J.,Hamidov. Pedagogika tarixi. -T.:O‘qituvchi, 1997.

9.Hasanov R., Hasanova B. Sharq uygʻonish davri va bu davrdagi pedagogik fikrlar. -T.: MRDI, 2000.

10. Hasanov R. “Pedagogika tarixi kursini oʻrganish uchun metodik tavsiyalar”. -T., 1990.

11. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. -T.: Oʻqituvchi, 1993.

12. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -T., “Milliy kutibxona”, 2006.

13. Oʻzbek pedagogikasi tarixi (prof. A.Zunnunov umum. tahr.ost.). -T. Oʻqituvchi, 1997.

14. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. (Tuz. Hoshimov K; Safo Ochil.). -T.: Oʻqituvchi 1995.

V BO‘LIM. XIV-XVI ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

Reja:

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
2. Soxibqiron Amir Temurning ma'rifiy qarashlari va uning pedagogika fanida tutgan o'rni.
3. Mirzo Ulugbekning ilmiy merosi va uning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari.
4. Zahiriddin Muhammad Boburning ma'rifiy-axloqiy qarashlari.

Tayanch tushunchalar: “Markazlashgan davlat”; “Madrasa va maktab”, “ilm-fan”, “madaniyat, san’at”, “Amir Temur tuzuklari”, “Ziji Ko’ragoniy”, “Ulug’bekning ta’lim islohatlari”, “Boburnoma”, “Esdaliklar”.

5.1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Tarixdan ma'lumki, Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahr mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron etildi. Fan-madaniyat, ma'rifatga juda katta putur etkazildi. Xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'ul istilochilari zulmidan qutila boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo'zg'aldi, Samarqand va Hurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'alonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar. XIV asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda mayda feodal hokimlar o'rtasida nizo kuchaydi, iqtisodiy qiyinchiliklar yuz berdi, siyosatda qat'iyatsizlik avj oldi. Hokimlar o'rtasida nizolar kuchayishi natijasida mamlakat 10 ta mustaqil beklik va amirliklarga bo'linib ketdi. Beklar va amirlar o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi, mamlakat urush va tolon-tarojlar iskanjasida qoldi.

Shunday og'ir bir parokandalik vaziyatda el-yurtning og'ir yukini

Amir Temur o'z elkasiga oldi va qariyib 10-yil (1360-1370) davom etgan og'ir kurashdan so'ng mamlakatni mo'g'ullar istibdodidan xalos qildi. 1370-1380-yillar mobaynida Amir Temur say'i-harakatlari samarasi natijasida beklar va amirlar o'rtasida nizolarga barham berildi va Movarounnahrda tarqoq, amirliklar markazlashgan yagona feodal davlatning bayrog'i ostida birlashtirildi.

Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi. Sohibqiron Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr O'rta Osiyoda Shark o'yg'onish davrining ikkinchi boskichi deyilishi bejiz emas, chunki bu davrga kelib Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, san'atkorlar, muxandislar, olimu-fozillar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Xirotda madrasalar, rasadxonalar, bog'u-rog'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, huquq, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muhim asarlar yaratildi. Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Sa'diy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, imom Buxoriy, at-Termiziy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga harakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallashtirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi.

Sohibqiron Amir Temur say'i-harakati tufayli Samarqand shahri yangidan qayta tiklandi. Shaharda Ko'k saroy, Bibixonim masjidi, Shoxizinda maqbarasi, shahar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bexisht, Bog'i Nav kabi bog' va saroylar barpo etildi. Ko'xak - Zarafshon, Amudaryoga ko'priklar qurildi. Toshkent

atrofida kanallar qazildi. Sirdaryodan Oxangarongacha bo‘lgan kanallar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda rassomchilik, naqqoshlik, bezakli-badiiy buyumlar ishlab chiqarish yuqori darajaga ko‘tarildi. Sohibqiron Temur va temuriylar davrida - she‘riyat, mantiq, falsafa, tarix, huquq, astronomiya, matematika, nafosat, tilshunoslik, lug‘atshunoslik, musiqashunoslik, tarbiyashunoslik, me‘morshunoslik, tijorat-tadbirkorlik, tarjimonlik, xat-totlik, jo‘g‘rofiya va elshunoslik kabi boshqa o‘nlab dunyoviy bilimlarni o‘rganish, shu bilimlar asosida asarlar yaratish yo‘lga qo‘yildi.

Amir Temur hukmronligi davrida o‘rnatilgan tinchlik mamlakatda madaniyat, ilm-fan, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot va san’atning rivojida, madrasalarda ta’lim-tarbiyaning yuqori saviyada bo‘lishida muhim omil bo‘ldi.

Ulug‘bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan bir qatorda diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e’tibor berildi. Oliy maktab - madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo‘lib keldi. Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir”. Shu sababli ham, biz hech ikkilanmay XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg‘onish davri bo‘lib tarix sahifalaridan o‘rin oldi deya olamiz.

Shuni ta’kidlash lozimki, bu davrda o‘zbek adabiyotida ancha siljish ro‘y berdi. Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Tarjima qilish ishlari jonlantirildi. Ulug‘bek olimlarga homiylik qilib, ularni rag‘batlantirdi. Uning o‘zi ayniqsa astronomiya va matematika fanlari bo‘yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Ulug‘bek tomonidan rasadxona barpo etildi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumi, Jamshid ibn Ma’sudiy, Mansur Koshiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug‘ rassom Kamoliddin Behzod, tarixshunos Xondamir, xattot Sulton Ali Mashxadiy va boshqalar ijod cho‘qqilariga ko‘tarildilar.

Ulug‘bek shogirdi Aloviddin Ali ibn Muxammad qushchi Samarqandiy, ya’ni Ali Qushchi o’sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o‘ynadi, uning “Risolai dar falaqiyot” deb nomlangan astronomiyaga oid risolasi jahonga mashhur bo‘ldi va uni

o'z davrining Ptolomeyi deb atay boshladilar.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi, til, mantiq, falsafa, tarbiyashunoslikka doir o'nlab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Mir Sayd Sharif Jurjoniy, Xofizi Abro' Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Davlatshoh Nizomiddin Shomiy, ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va shu kabi o'nlab olimu-fuzalolarning yaratgan asarlari jahon fanida katta o'rin egalladi. Sulton Xusayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrga kelib, olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko'chib o'tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylantirildi. Alisher Navoiy Hirotida fan, madaniyat, ilm va ma'rifatga homiylik qilishi natijasida bu erda shoirlar, musavvirlar, hattotlar, olimu-fozillar etishib chiqib, jahon ilmu fani olamida nom qozondilar.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari barpo etildi, xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi. Shahar va qishloklarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Aholi savodxonligini oshirish maqsadida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan so'ng Buxoro, Samarqand, Xuroson, G'ijduvon va boshqa shaharlardagi madrasalarga borib u erda ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar. Biz yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda haqiqatdan ham XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan deb aytaolamiz.

5.2. Sohibqiron Amir Temurning ma'rifiy qarashlari va uning pedagogika fanida tutgan o'rni

Mu'lumki, uzoq-yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o'rniga qo'yish imkonidan mahrum edi. Mustaqilligimiz sharofati ila bunday nomaqulchiliklarga chek qo'yildi. Tarixni xolisona o'rganish, tarixni soxtalashtirmay, uning sarhadlarini buzmay, bor haqiqatni oydinlashtirib ma'lumot berish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Darhaqiqat o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur

tuygʻusini yoʻqotish, uni qaramlikka, tobelikka koʻndirish edi. Lekin oʻzbek xalqi oʻz ajdodlarini, oʻz bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb toʻrida saqladi.

Muhammad Taragay Bahodir oʻgʻli Amir Temur yoshlik chogʻidan mard, dovyurak, gʻururli, oʻtkir zehn va aqlu idrok egasi boʻlib oʻsdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy sanʼatni egalladi. Qurʼoni Karimni yod oldi, hadis ilmini oʻrgandi. Iymon-eʼtikodli, halol-pok inson boʻlib etishdi.

Darhakiqat, birinchi prezidtn I.A.Karimov taʼkidlaganidek, insof-iymon tuygʻusi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning kariyib yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat zoʻrluk, zoʻravonlik emas, adolatda ekanini teran anglatdi. Shu bois boʻlsa kerakki, oʻtmishda jahon ilm ahli, mashhur muarrihlar oʻz asarlarida Amir Temur ismiga Koʻragon, Sohobqiron, Qutbiddin, Abulmansur kabi unvonlarni qoʻshib, uni eʼzozlab, ulugʻlab, hikoyat, rivoyat va xotiralar bitganlar.

“Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfeʼllik, adolat, sahoovat, lutfi-karam, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan oʻrinlari qanday boʻlishidan qatʼiy nazar barobar hurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada boʻlish, berilgan vaʼda va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlariga ega boʻlgan. U yoshligidan boshlab oʻz oldiga ona yurtni moʻgʻul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qoʻydi, er yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka koʻtarib, dunyoga mashhur qildi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy sanʼati koʻp asrlar davomida Sharqu Gʻarb davlatlariga oʻrnak va andoza boʻldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, meʼmorchilik, tasviriy sanʼat, musiqa, sheʼriyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning koʻp anʼanalari takomilga etdi. Amir Temurning madaniyat va din ahillariga koʻrsatgan cheksiz mehr-muruvati ayniksa ibratlidir.

Amir Temur nomi umumbashar tarixida Movarounnahr va buyuk Turkiston oʻlkalarida ilm-fan homiysi sifatida ham qolganini taʼkidlash lozimdir. Maʼlumki, u nafakat oʻz mamlakatini, balki oʻzga oʻlkalarni ham obod qilish uchun katga kuch va gʻayrat sarflagan. Doktor Shamsuddin Samiyning “Alq Aʼlom” qomusining “Temur” bandida Amir

Temurning o'zi olim bo'lgani, ulamolarning raxnamosi, ularni yaxshi ishlarga rag'batlantiruvchi shaxs ekanligi zikr etilgan va o'z poytaxti Samarqandni katta g'ayrat bilan obod qilib, u erda qator madrasa, kutubxona va madaniyat saroylarini barpo etgani, "Tuzuklar" nomi bilan asar yozib, turli qonunlar yaratgani, o'z tarjimai holini ham adabiy, chig'atoy tilida yozgani hamda Temur va temuriylar davrida san'at va adabiyotning rivoj topganini eslatib o'tadi. Shuningdek, doktor Shamsuddin Boboxonov Amir Temur buyuk lashkarboshi, mohir sarkarda sifatida mukammal, yaxshi qurollangan, tezkor hujum qilishga qodir, muayyan taktika va strategiyaga ega bo'lgan qudratli armiyaga asos soldi. Bu armiya o'nlik, yuzlik, minglik va tumanliklarga bo'lingan edi. Amir Temurning harbiy san'ati, uning taktika va strategiyasi ko'p mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning harbiy akademiyalarida maxsus o'rganilgan va hozirgi kunga qadar o'rganib kelinmoqda deb, ta'kidlashi ham Sohobqiron Amir Temurning buyukligidan dalolat beradi.

Zamondosh tarixchilarning e'tirof etishicha, sohobqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari - davlat, mamlakat va fuqaroning g'amxo'ri bo'lganligi edi. Jahongirlik qoidasi esa haqiqat - sihat-salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat - adolat deb tushunilgan.

Buyuk bobokalonimiz har vaqt: "Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi", degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zlari bunga amal qilganlar. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odob-axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek Sohobqiron qaqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya.

Tarix fanlari doktori prof. Ashraf Ahmad Sohobqiron Amir Temurning o'zi amal qilgan sifatlarni yuksak baholaydi. Bular quyidagilar:

-... Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim... Boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim;

-... Islomga qat'iy rioya qildim. ...

-Men kambagallarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim;

-Xaloyikka rahm qildim, barchaga naf' etkurdim.

-... Birovga nohak ozor etkazmadim va mendan yordam so‘rab kelganlarni ko‘kragidan itarmadim...;

-Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim...;

-Barcha so‘zlarimdan doim haqiqatgo‘ylikka amal qildim...

-Men har kimga va‘da bersam, unga vafo qildim...;

-Ammo o‘zimni Allohning erdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigor iznisiz uni sarf etmadim...;

-Men har doim insof bayrog‘i baland ko‘tardim va iymon tarqatishni o‘z buyukligimning qudratli zamini deb bildim...;

-Men doim saidlarga ehtirom bilan qaradim, ulamo va shayxlarni e‘zozladim...

Shunday qilib sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlar va purma‘no o‘gitlarining har birining mazmun va ma‘no kengligi, mantikning kuchliligi, teranligi, ta‘siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz hazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu o‘gitlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish; goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goho sertashvish anduhli umrining ijodiy mevasidir. Bu o‘gitlar xalqlarning bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirishda sehxrlı tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan durdona - pedagogikadir.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Sohibqiron Amir Temur o‘gitlarini uning mohiyati va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

-Islom dini va shariat qonunlari haqidagi o‘git-nasihatlar;

-Davlat va uni idora etish. Kengash o‘tkazish;

-Podsho va vazirlar haqida o‘git-nasihatlar;

-Axloq va odobga oid o‘git-nasihatlar.

Yuqorida qayd etilgan pand-nasihatlar Sohibqironning o‘z tajribasida sinalgan, hayotga tatbiq etilgan juda katta ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalaridir. Shu sababli ham ular Temur va temuriylar sulolasi davrida ta‘lim-tarbiya tizimida katta ahamiyatga molik bo‘ldi.

5.3. Mirzo Ulug‘bekning ilimiy merosi va uning ta‘limiy-tarbiyaviy qarashlari

Muxammad Tarag‘ay – Ulug‘bek 1394-yilning 22 martida Eronning g‘arbidagi Sultoniya shahrida (bobosi Sohirqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida) tavallud topdi. U Shohrux Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, unga Muhammad Tarag‘ay deb ism berildi. Lekin uni bobosi alohida mehr bilan Ulug‘bek deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug‘bek bo‘lib qoladi va u jahonga shu nom bilan shuhrat tarqatadi. Ulug‘bekning bolalik-yillari bobosi Temurning harbiy yurishlari davriga to‘g‘ri keladi. Ulug‘bekning tarbiyasi bilan buvisi Saroymulkxonim shug‘ullanib, sevimli nabirasiga o‘qish-yozishni o‘rgatgani, tarixiy mavzularda hikoya va rivoyatlar so‘zlab bergani uning hayotida o‘ziga xos maktab bo‘ldi.

1405-1411-yillarda, o‘sha davrning qonun-qoidalariga binoan amir shoh Malik yosh mirzoga otabegi bo‘lib tayinlangan. Otabegi Ulug‘bekka asosan harbiy va siyosiy tarbiyadan ilm o‘rgatgan.

O‘rta asrlardan saqlanib qolgan kitoblardan ma‘lum bo‘lishicha, saltanatga vorislar davlatni boshqarishda muayyan tartib-qoidalar bayon qilingan qo‘llanmalar asosida tayyorlangan. Shulardan biri Shahzodalar va Xonzodalar bilishi zarur bo‘lgan “Suluk ul-mulk” (Podshohlarga qo‘llanma) kitobidir. Ulug‘bek ham an‘anaga ko‘ra mazkur kitobni mukammal o‘rganadi va unda ko‘rsatilgan davlatni idora qilish san‘ati, turli lavozimlar egallash, boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, hayri ehson, sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo‘yicha ko‘nikmalarni egallaydi.

Ulug‘bek yoshligidanoq ko‘p kitoblarni mutolaa qilgan bo‘lib, u ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga juda qiziqadi. U bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin Tusiy bilan ko‘p vaqtini o‘tkazar, undan hisob va tavsifdan dars olar, ba‘zi kechalari, qor tinib osmon yorishgan paytlarida yulduzlarning o‘rni va harakatini kuzatish bilan mashg‘ul bo‘lar edi. Ulug‘bek bolalik-yillaridayoq mavlono Badriddin Tusiy yordamida al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Nasriddin Tusiy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom kitoblari bilan hamda Oqsaroy va o‘trorda “Ziji Malikshohi” bilan tanishadi. Fanga bo‘lgan zo‘r muhabbati, katta qobiliyati va mehnatsevarligi tufayligina Ulug‘bek astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ajoyib muvaffaqiyatlarga

erisha oldi. Bu maktab butun dunyoda hamma tomonidan e'tirof etildi, shuhratga sazovor bo'ldi.

1411-yilda 17 yoshli Ulug'bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug'bekning mavqei naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug'bek hokim bo'lgach, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o'rta asrlardagi boshka hokimlardan o'zgacha yo'l tutdi, ko'prok ilm-fanga moyil edi. Lekin, ming afsuski, Ulug'bekning boshlang'ich ma'lumoti hamda murabbiy va ustozlari hakida to'liq ma'lumotga ega emasmiz. Shunday bo'lsada, munajjim Mavlono Ahmad Ulug'bekning dastlabki ustozlaridan biri bo'lsa kerak, deb taxmin kilish mumkin, chunki bu kishi Temur saroyidagi eng yirik olimlardan bo'lib sayyoralarning kelajak ikki yuz-yillik takvimlari jadvallarini tuza olgan edi. Lekin Ulug'bekning o'zi keyinchalik asosiy asari bo'lmish "Ziji"da faqat Qozizoda Rumiyni "ustozim" deb ataydi.

Ulug'bek tashabbusi bilan o'lkada ilm-fan, adabiyot, san'at ahlari fanlarning yangi-yangi qirralarini ocha boshladilar. Ulug'bek o'z faoliyatida asosan falakiyotni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi, bu bilan birga, ko'plab iste'dodli shoirlar, ijodkorlarni to'plab, ular faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoit yaratadi. Ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirib turadi. Masalan, uning rahnomoligida me'morchilik ravnaq topdi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda madrasalar, Marvda hayriya muassasalari hamda "Chixl ustun" ("Qirk ustun"), "Bog'i maydon" kabi bog'lar barpo etiladi. Ulug'bek 1424-yilda Samarqandda Obiraxmat suvi yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduvali Birjoniy, Mansur Koshiy, Mirim Chalabiy va boshka olimlar bilan birgalikda qurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rganadi. Uning boshchiligida yuzdan ortiq olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib boradi, falakiyot va matematika sohasida katta kashfiyotlar qilib jahonga mashhur bo'ldilar. Bu tadqiqotlar jahonga dong'i ketgan Samarqand rasadxonasida amalga oshiriladi. Natijada, Ulug'bek 1018 yuzduzning holati va harakatini aniqlaydi, falakiyotga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini "Ziji Ko'ragoniy" deb atalmish falakiyot jadvali tashkil etadi. Jadval jahon fani rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Rasadxona negizida Samarqandda astronomiya maktabi vujudga keladi. Bu maktabda tanikli olimlar dars beradilar.

Shunday kilib, Ulug'bekning falakiyot maktabi o'z davrining

akademiyasi (“Dorul-ilm”) bo‘lgan va o‘rta asrlar musulmon Sharqi falakiyotining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Mirzo Ulug‘bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da’vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. Ulug‘bek rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta’minlashga ishonadi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallashga, insofli va himmatli bo‘lishga, halollik va rostgo‘ylikka da’vat etadi. Ulug‘bekning bilimlarini nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o‘zidan ham olishni tavsiya etadi. Ulug‘bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma’rifat dargoxiga aylantiradi. Ulug‘bek: “Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan shiorni ilgari suradi va uni madrasaning peshtohiga yozdirib qo‘yadi. Madrasada esa ilmning turli sohalarining o‘qitilishiga jiddiy e’tibor beriladi.

Masalan, Samarqand madrasasida ilohiyot ilmlari: Qur’on, Hadis, Tafsir, fiqh bilan birga riyoziyot, handasa ilmi, hay’at (falakiyot), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o‘rgatilgan.

Ulug‘bek ilm fani ravnaki uchun kurashgan, shu maqsad sari harakat qilgan, ta’lim-tarbiya rivojiga hissa qo‘shgan fuqarolarni doimo rag‘batlantirib, o‘qituvchi-ustoz, mudarrisga hurmat ehtirom bilan qarashni targ‘ib etgan. Uning mana shu say’i-harakatlari tufayli ta’lim-tarbiya sifati yaxshilana bordi, madrasalarda o‘qish-o‘qitish ta’limni jonlashtirishga katta ahamiyat berildi. Madrasadagi o‘quv tizimi isloh qilinib, unda falakiyog, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o‘qitishni joriy etdi, ta’lim mazmunining sifatini oshirdi, madrasalarda o‘qish muddatini 15-20-yildan 8-yilga tushirdi.

Ulug‘bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida muxarrislardan o‘quvchilar bilan rasadxona amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni talab etib, bunga o‘zi rahbarlik qiladi. Ulug‘bek o‘z pedagogik karashlarida bolalarning jismonan sog‘lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib etishuviga alohida ahamiyat beradi. Ulug‘bekning fikricha, ta’lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari muhim ahamiyatga ega va bu

fanlar bolaning akliy qudrati va qobiliyatini o‘stirishda muhim vosita bo‘lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo‘lib etishishlariga xizmat qiladi.

Ulug‘bek ta‘lim tarbiyada poraxo‘rlik, qalloblik, bo‘lmasligini uqtiradi, mudarrislarning odil va halol bo‘lishga o‘z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishlarini, har bir mashg‘ulotni yuksak saviyada o‘tkazishga da‘vat qiladi. Ana shu bilangina o‘quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o‘zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallashi lozim.

Ulug‘bek axloqiy tarbiya xususida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o‘zaro munosabat, do‘stlik va birodarlik alohida ahamiyat kasb etish kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy va sohta do‘stlarni ajrata bilish lozim, g‘arazli kishi hech vaqt do‘st bo‘lmaydi, kishilarni u to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradi. Do‘st tanlashga e’tibor berilmasa, sohta do‘stlarning ko‘payishiga bu esa odamlar o‘rtasida nopok manfaatlarga xizmat qilishga olib kelishga ishonadi. Shu bois g‘arazli kishilardan har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, yiroq bo‘lish, kasbi va xulq-atvori yaxshi, hamma hurmat qiladigan, xushfe‘l kishi bilan do‘stlashish lozimligini tavsiya etadi. Har bir kishi do‘stona hamkorlik bilan hayotiy muammolarni hal etishi mumkin, kishi yolg‘iz o‘zi, do‘stlarsiz hech narsa kila olmaydi. Uning ta’killashicha, har bir insonning axloqiy shakllanishi olimlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘likdir, ular o‘rtasidagi yaxshi hamkorlik talabalarning axloqiy tarbiyasida g‘oyat muhimdir. Bunday do‘stona va beg‘araz hamkorlik mohiyatini biz Ulug‘bek faoliyati misolida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Ali Qushchi umrining oxirigacha unga sodiq qoldi. Ulug‘bek o‘zining ko‘p-yillik mehnati evaziga yaratilgan “Ziji Ko‘ragoniy” asarini unga ishonib topshirdi.

5.4. Zahiriddin Muhammad Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari

Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan, o‘zining g‘oyat samarali faoliyati bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan, temuriylar avlodining so‘nggi vakillaridan biri

Umar Shayx Mirzo O'g'li Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur Mirzo Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx, ya'ni Sohibqiron Amir Temurning chevarasi oilasida 1483-yilda tavallud topdi. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi va o'qidi, yoshligidan ilmga, she'riyatga berildi. Dovyurakligi, jasurligi va epcilligi tufayli uni "Bobur, ya'ni "Yo'lbars" deb atadilar.

Zahiriddin Muhammad Bobur ilm va fanning, san'atning, umuman hayotning hamma sohaları bilan yaqindan qiziqqan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug' siymolaridan biriga aylantirdi. O'tkir zehnlı Bobur Mirzo 9 yoshida savodini chiqaradi, Qur'onni yod oldi, she'rlar yozib uni sharhlay bildi. 10-12 yoshlarida harbiy san'at sirlarini, davlatni boshqarish usulini, jismoniy tarbiya mashqlarini mukammal darajada egalladi.

Iste'dod sohibi bo'lgan Bobur 12 yoshida, otasi vafotidan so'ng taxtni egallab, podshoh etib tayinlandi va umrining oxiriga qadar o'zi ko'rgan, hayotda guvoh bo'lgan, jang suronlari, o'zga yurtdagi jahongashtaliklar, vatanni qo'msash, bolaga, oilaga qarindosh-urug'larga munosabat masalalarini o'zining tarixiy-geografik kitobi bo'lmish "BOBURNOMA"da bayon etdi. Bu borada o'zbek olimi taniqli geograf prof. H.Hasanov uni faqat davlat arbobi emas, balki mashhur lashkarboshi, tarixchi, geograf, biolog, musiqachi, tilshunos, me'mor ham bo'lganini ta'kidlaydi. Uning ijodiga mansub bo'lgan "Xatti Boburiy" uzoq-yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o'rgatish kitobi sifatida foydalaniladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotlik paytidayoq o'ziga xos ma'rifiy maktab yaratdi. Maktab tushunchasi turli ma'nolarda ishlatiladi. Maktab tor ma'noda farzandlarga ilm-ma'rifat, ma'lumot beruvchi joy, keng ma'noda fan, san'at, adabiyot, ijtimoiy, siyosiy hayot kabilarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yo'nalish, oqimdir.

Bobur hayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orqali boshlab berdi. Gulbadanbegim otasi Bobur vafotidan so'ng bu maktabni davom ettirib, "Xumoyunnoma" asarini yozdi. Bu maktab XX asr adabiyotida ham davom etdi. "Esdaliklar" (S.Ayniy), "Bolalik" (Oybek) va b. asarlar "Boburnoma" ga nisbatan tor ma'noda bo'lsada, yozuvchi yashagan davrni, muhitni bir muncha aks ettiradi. Boburning ta'lim nazariyasidagi yana bir muhim xususiyati, o'zi bilgan bilimlarni kelajak avlodga ilinishidir. Avlodim bilsin deb eliga o'rgatgisi keladi. Bu

hol uni bashariyatga buyuk ma'naviy boyliklar qoldirishiga muvaffaq qildi. Undan meros bo'lib qolgan lirik she'riy asarlar; "Boburnoma", "Muxtasar", "Mubayyin", "Volidiya" va boshka asarlari jahon fanida, ayniqsa xalq tarbiya qonunlarida alohida o'rin tutadi. "Boburnoma"da esa shu darajada ko'p va turli-tuman ma'lumotlar borki, ulardan hozirgi davrdagi mavjud fanlarning deyarli barcha sohalariga tegishli ma'lumotlarni olish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, "Boburnoma" bolalar va yoshlar kitobxonligida katta ahamiyatga molikdir.

Shunisi diqqatga sazovorki, "Boburnoma" katta tarixiy manbaa hisoblanadi Chunonchi, 12 yoshli Bobur Andijonga suv qayerdan, qaysi ariqlardan kelishini, u erda qanday mevalar pishishini, qanday qushlar ov qilinishini, qushlarning og'irligi qancha ekanligini biladi. Asarda bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, darhaqiqat "Boburnoma" - muhim terminologik va topinomik manba hisoblanib, unda er-suv, havo va turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi". "Boburnoma"da XVI asr boshlaridagi (bir mingdan ortiq) o'sha davrdagi holatida, shuningdek ayrim nomlarning turli variantlari berilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bobur Mirzo o'z hayoti faoliyatida ko'p yo'l bosganligi uchun er-suv taqsimotidagi hamda qurilish ishlaridagi masofa o'lchovlariga katta ahamiyat bergan. "Boburnoma"da tilga olingan o'lchov birliklarini hozirgi paytda qo'llaydigan bo'lsak, bu quyidagichadir: Yig'och - 8 km; kurux - 2,5 km; shar'i - 2,4 km; kari - 55 sm; tutam, musht - 8 sm; bir o'q otim er -110-125 metr; bir o'q choptirim er - 215 metr; Xarvor (bir eshak ko'taradigan yuk) - 300 kilodan 565 kilogacha; mo'g'uliy masofa, quloch - 170 sm. Bir kunlik yo'l - 40-45 km va hokazo.

Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur har bir territoriyani ma'lum bir tartibda tavsiflaydi; avvalo joyning geografik o'rni, so'ngra qaysi iqlimga mansubligi va qishloq xo'jaligi, shifobaxsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonoti va aholisi, uning urf-odatlariga haqida ma'lumot beradi. Bu bilan u dunyoviy iqlimlarni mukammal egallaganligi, olim darajasidagi bilimga ega ekanligi kishini lol qoldiradi. Umuman olganda Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosini o'rganish yoshlarda mehnatsevarlik, oliyanoblik, fan, madaniyat san'atga, ma'rifatga mehr uyg'otish hissini shakllantiradi.

Boburning she'rlari original ijod samarasi sifatida ko'p avlodlarga manzur bo'lib kelgan, ota-bobolarimiz serqirra faoliyatidagi ijobiy

jihatlari uchun Boburni e'zozlaganlar. Biz ham uning ma'naviy mero-sini, xususan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga molik bo'lgan axloqiy-ma'rifiy pedagogik qarashlarini qadrlaymiz.

Xulosa qilib shuni aytamizki, umuman XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishishdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Amir Temur barpo etgan mustaqil markazlashgan davlatda u qo'llagan siyosat o'lkada ilm-fan, san'at, adabiyot, hunarmandchilik va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Sohibqiron Amir Temur va Temuriy shahzodalar tomonidan ma'rifatga katta e'tibor berilishi natijasida shahar va qishloqlarda, ovullarda bolalarni 6 yoshdan o'qitish keng joriy etildi, madrasa ta'limi isloh qilindi, qurilish inshootlari, me'moriy obidalar, bog'u-rog'lar, savdo shohobchalari barpo etildi, "Buyuk ipak yo'li" jonlantirildi. Davlatni boshqarish, siyosat, hukuqshunoslik, iqtisodiyot-tadbirkorlik mezonlari ishlab chiqildi.

Amir Temurning tarix oldidagi ulkan xizmatlaridan biri uning ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shganidadir. Temuriy shahzodalar orasida, ayniqsa Mirzo Ulug'bekning xizmatini alohida ta'kidlab o'tmoq maqsadga muvofiqdir. Cheksiz aql-idroki, azmu qat'iyati, odilona siyosati bilan Mirzo Ulug'bek qariyb qirq-yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori bo'lib, xalqlarning azaliy orzusi - tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida shijoat va matonat ko'rsatdi. Mirzo Ulug'bek avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod kildi. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xarita va bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq qilmaydigan mukammal astronomik jadvalini yaratdi.

Uning hayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanga nechog'lik buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi.

XIV-XVI asrlarda xattotlik, tilla suv bilan yozish, surat solish va muqovalash kabi sohalar yanada rivoj topdi. Bu borada Kamoliddin Behzod, Sulton Ali al-Kotib va Mahmud Muzahhib al-Xiraviylarning xizmati katta bo'ldi. Ular Eron, Buxoro va Samarqandda kitob bezash bo'yicha o'z maktablarini yaratdilar va dunyo kutubxonalarida saqlanib kelayotgan qimmatbaho qo'lyozmalar xazinasini meros qilib qoldirdilar. Boburning pedagogika olamida xizmatlaridan biri shundaki, u Farg'ona, Samarqand, Afg'oniston, Hindiston geografiyasini o'zbek

tilida birinchi bo‘lib tavsiflagan olimdir. Shu sababli ham jahon ilmunida, uni birinchi o‘zbek afg‘onshunosi va Beruniydan keyingi hindshunosi deyilishi bejiz emas. Shuni ta’kidlash kerakki, Bobur o‘zining Afg‘oniston va Hindiston to‘g‘risidagi ajoyib xotiralarini yozgan davrda G‘arbiy Yevropa olimlarining Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston to‘g‘risidagi tasavvurlari tahminiyl bo‘lgan.

Boburning “Boburnoma” asari zoologiya, botanika, astronomiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik sohasidagi qimmatli yodgorlikdir. Shu bilan birga “Boburnoma”da adabiyot, diplomatiya, harbiy san’at, moliya sohalaridan ham ma’lumotlar olish mumkin. Boburning “tabiat va viloyatlar shaydosi” bo‘lishi uning avlodlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgani, uni o‘g‘illari Humoyun va nabirasi Gulbadanbegim, xolavachchasi Xaydar Mirzo hayotida ham ko‘ramiz. Gulbadanbegim XVI asr o‘rtalarida akasi Humoyun safarini hikoya qiladigan “Humoyun-noma” tarixiy-geografik asarini yozgan tarixnavis o‘zbek ayolidir. Bu asarni sharqshunos olimlar “Boburnoma”ning davomi deb juda o‘rinli aytadilar. Boburning xolavachchasi Toshkentlik Muhammad Xaydar Mirzo ham Hindiston, Tibet, Qashkar va Issiqko‘l atrofini kezib, “Tarixi Rashidiy” voqeanomasini yozib qoldirgan.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ko‘rinib turibdiki, Sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlar hamda ularning avlodlari o‘qimishli, fan va madaniyatni egallagan, zukko insonlar bo‘lib, ularning bizga qoldirgan ilmiy merosi bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va Mustaqil O‘zbekistonning obro‘sin oshirish yo‘lida katta xizmat qilmoqda.

Yurtboshimiz taklifi bilan va say’i-harakatlari tufayli o‘tkazilgan Amir Temur, Ulug‘bek, imom al-Buxoriy, al-Farg‘oniy va boshqa buyuk siymolarning tavalludiga bag‘ishlangan tantanalar va ular nomi bilan atalayotgan ma’rifat maskanlarining mavjudligi xalqimizning ularga bo‘lgan chuqur ehtiromidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti qay darajada edi?

2. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi - XVII asrlar Sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?

3. Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida qanday madaniy-ma'rifiy maskanlar barpo etildi, tarixiy obidalarni izohlang.
4. Amir Temur o'zi amal qilgan sifatlar qanday edi va ularni izohlang.
5. Ulug'bek Akademiyasi ("Dorul-ilm") va undagi ta'lim tizimini izohlang.
6. "Ziji Ko'ragoniy" asari va uning mohiyati nimada?
7. Boburning "Boburnoma" asari va uning didaktik mohiyatini yoritib bering.
8. Boburning ma'rifiy-axloqiy qarashlarining ahamiyati nimada?

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan kolsin. –Toshkent: O'zbekiston, 1994, 91-93-b.
2. Karimov I.A. Amir Temur faxrimiz, g'ururimiz. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Istiqlo'l va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1994.
4. Amir Temur va temuriylar haqida. Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manbaa va qo'llanmalar FIXRISTI (Muqaddima muallifi - Sh.Boboxonov, tayyorlovchi -N.M.at-Taroziy). -Qoxira, 1996.
5. Amir Temur o'g'itlari. -T.: Cho'lpon, 1992.
6. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996
7. Axmedov A. Ulug'bek. –Toshkent: Fan, 1991.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-2 jildlar. -T.: Mehnat 1992.
9. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. -Toshkent, Fan, 1993.
10. Pedagogika tarixi. Ma'ruza matnlari 1 qism. (Tuz. S.Nishonova., B.Hasanova.). -T.: TDPU, 2001.
11. Temur tuzuklari. Prof. B.Axmedov tahr. ost. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti 1991.
12. Hasanov X., Ahmedov B. Amir Temur darslari. – T.: Sharq, 2000.
13. Hasanboyev J. XIV asrning ikkinchi yarmi - XVI asrlarda Movarounnahrda maktab - madrasa va pedagogik fikrlar. (O'quv qo'llanma). –Toshkent, 1997.

14. Hasanova B. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. -T.: 2000.

15. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. - T.: O'qituvchi, 1997.

16. Hasanov R., Hasanova B. Sharq uyg'onish davri va bu davrdagi pedagogik fikrlar. -T.: MRDI, 2000.

17. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996.

18. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -T.: "Milliy kutibxona", 2006.

19. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. (Tuz. Hoshimov K., Safo Ochil.). -T.: O'qituvchi 1995.

VI BO‘LIM. ALISHER NAVOIY, ABDURAHMON JOMIY, HUSAYN VOIZ KOSHIFIYLARNING TA’LIMIY- AXLOQIY QARASHLARI

Reja:

1. Alisher Navoiy va uning ta’limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalari.
2. Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-axloqiy qarashlarida komil inson tarbiyasi.
3. Husayn Voiz Koshifiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.
4. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Husayn Voiz Koshifiylarning ta’lim-tarbiya tarixida tutgan o‘rni.

Tayanch tushunchalar: Alisher Navoiyning tarbiya konsepsiyasi, yaxshilik va yomonlik, munosib va nomunosib kishilar, Jomiy va poklik, Jomiy va komillik, pokizalar shahri, Husayn Voiz Koshifiy va komil inson tarbiyasi, voizlik, futuvvat, futuvvat va so‘fiylik, tarbiya metodlari.

6.1. Alisher Navoiy va uning ta’limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san’atning turli sohaları: adabiyot, tarix, til bilimlarini rivojlantirish bilan birga, ta’lim-tarbiyani takomillashtirishga ham e’tibor berdi. U o‘z “Hamsa”sida, “Mahbub ul-qulub” kabi yirik ta’limiy-axloqiy asarida, shuningdek, “Munojat”, “Vaqfiya”, “Majolisun nafoio”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlarida Abdurahmon Jomiyning Arba‘yin nomli asari tarjimasida “Chixil hadis” (“Qirq hadis”)da tarbiyaga oid o‘z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etdi.

V.Zoxidov ta’kidlaganidek, “Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yashashi, zarur jamiyat

masalalaridir”.

Alisher Navoiyning qarashlariga ko‘ra inson tabiatan tabiat bilan bog‘liq, shunga ko‘ra xudoning mevasi sanaladi, chunki tabiatning o‘zini ham Olloh yaratgan. Shuning uchun ham u hayotda hamma narsadan yuqori turadi, borliqning, butun mavjudotning bebaho boyligi sanaladi. Inson o‘ziga xos hislatga, xulqqa, xatti-harakatga ega bo‘lganligi uchun ham boshqa mavjudotlardan farq qiladi. “Bular xush ovoz bilan kuy kuylashdan, yoqimli soz chalishdan tortib, to do‘stga vafodorlikkacha, ilmu-hunar o‘rganib tog‘ni talqon qilishdan, tabiatni o‘z manfaatlarini xizmatiga qo‘yishdan, qaxramonlikdan tortib, to halol, o‘z kuchi bilan mehnat qilib, shod-xurram yashashlikkacha, insofli, vijdonli bo‘lishdan tortib, to qanoatli, sabrli, matonatli bo‘lishigacha, ozodlikni, hurlikni sevishdan tortib, to inson uchun zararli bo‘lgan yomonlikni nafratga uchratishgacha, shafolatli, shafqatli, adolatli bo‘lishdan tortib, to razillarga ayovsiz kurash e‘lon qilishgacha, shirin so‘zlikdan tortib, to ochiq ko‘ngillikkacha, sofdillikkacha...”, - namoyon bo‘ladi, deydi V. Zoxidov yuqoridagi fikrini davom ettirib.

Shuning uchun ham Alisher Navoiy butun umri davomida yiqqan tajribasi asosida “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) asarini yozadi va ana shu asarida o‘zining “Hayrat ul-abror”, “Nazmul javohir” va boshqa ta’limiy-axloqiy asarlaridagi axloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Uning mazkur asarni yozishdan maqsadi ham muqaddimada bayon etilgan: Har ko‘cha-ko‘yda yuguribman va olim axlidan har xil kishilarga o‘zimni etkazibman. Yaxshi va yomonning fe‘latvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarni tajriba qilibman”. Alisher Navoiy muqaddimada kishilarni ikki guruhga “munosib kishilar” va “nomunosib kishilar”ga bo‘lib, hayotda inson ana shu nomunosib kishilardan o‘zlarini tiyishi va yaxshi-yomonni ajrata olishda “Mahbub ul-qulub”dan foydalanishi zarurligini ta’kidlaydi. Demak, Navoiy hayot tajribalari asosida yoshlarni haqiqiy, komil inson bo‘lishga undaydi va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishda ushbu asaridan foydalanish mumkin, deydi.

Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko‘rdim. Hasilar va karamlilar etkazgan yara va bergan malhamni ko‘nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba’zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do‘stlar bu hollardan xabarsiz va ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonlikdan asarsizdir... Bu xildagi hamsuhbat va do‘stlarni

xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rindiki, har toifaning hislatlaridan ma’lumotlari va tabaqaning axvolidan bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan mahfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni xavas qilsa, bu kaminaning tajribasi yoshlar uchun etarlidir”. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, birinchi qismi har xil toifa odamlar fe’l-atvori va axvoli, kayfiyati; ikkinchi qism yaxshi fe’llar va yomon hislatlar xosiyati; uchinchi qism esa xilma-xil foydalar va hissalar ko‘rinishi, ya’ni yaxshi fe’llar va hislatlarga oid tanbehlardan iboratdir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘z davrining ilg‘or, ma’rifat allomasi sifatida inson kamolatida ilm-fanning o‘rni, aql va idrokning axmiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi.

Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo‘lgan eng yuksak fazilatlariga ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat ham kiradi. Chunki baxtli hayotga intilgan Navoiyning ijodkor, oqil, qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong‘ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi. Bu fikrni “Nazmul-javohir” asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni.

Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.

Har kimsaki yo‘q ilm anga ahmoq de oni.

Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmoq de oni.

“Hayrat ul-abror” dostonining o‘n birinchi maqolatida ilmni shunday sharhlaydi: “Ilm sehrining baland axtarligidakim, jahl tunin yoritmoq uchun “ayn”i, quyoshdan “lom”i oydin va “mim” kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig‘idakim, g‘aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shahovatdin fasona aytur. Va olimning bovujhai falokat quyoshdek sar balandligi va johilning bovujudi ganju mol tufroq aro najandlig‘i”. Bunda arab tilda aynning ma’nosi quyosh, lomning ma’nosi esa oy bo‘lib, yana lom shaklni oyga o‘xshaydi va abjad hisobida “o‘ttiz”ni bildiradi. Mim esa kunduz ma’nosini bildiradi.

Alisher Navoiy ilmni quyosh va oy hamda kunduzga o'xshatib, u insonni baxt-saodatiga eltadi demoqchi bo'ladi: ya'ni bu maqolat "ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunni yoritish uchun "ayn" quyosh, "lom" oy, "mim" kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'u ko'rinishi haqidakim, g'aflat chaqini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi johilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi" haqida fikr bayon etadi.

Demak, Alisher Navoiy ilmni inson kamolati uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson ham faqat ilmli bo'lishi bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni haqiqiy inson sifatida ta'riflashga yana sabr-qanoat, sahiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq-vafo va hokazolar ham asos bo'ladi. Navoiy insonning axloqiy hislatlari - yaxshi fe'l-atvorlar xususida to'xtalib o'tar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning ta'rifini beradi. U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, sahovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (halm) kabi hislatlarni kiritib, har birining ta'rifidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o'z fikrini to'ldiradi. Navoiy asarda mazkur hislatlarga ta'rif berish bilan birga, ularga qarama-qarshi bo'lgan yomon illatlardan qutulish yo'llarini bayon etadi.

Axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan. "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod baxramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi..." - deb ta'kidlaydi.

Demak, yaxshi xulq asosi - odob Navoiy tahsilida barcha insoniy hislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos hislatlar ana shunga bog'liq ravishda ta'rif beriladi. Zero, haqiqiy insonga xos hislatlar - qanoat, sabr, tavozul', ishq, vafo, sahovat, himmat, karam, muruvvat, halm (yumshoq ko'ngillik) xuddi shu odobli kishida tarkib topadi. Masalan, "qanoat - buloqdir - suvi olgan bilan qurimaydi, hazinadir -naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir - urug'i izzat va shavkat mevasi beradi; daraxtdir - shoxi tortinchoklik va hurmat mevasi etkazadi" - deb ifodalaydi.

Navoiy qanoatni to'ldiruvchi insoniy fazilatlardan sabr, sahiylik, karam, muruvvat, himmat, bir-biriga hamkor va g'amxo'r bo'lishini, bularni inson shaxsini ulug'lashga etaklaydigan, uni sof va pokiza inson darajasiga ko'taradigan hislatlar sifatida ko'rsatib o'tadi. "Sabr achchiqdir - ammo foyda beruvchi, qattiqdir - ammo zararni daf' etuvchi... Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir. Achchiq so'zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'lik yuz beradi".

Sahiylik esa insoniylikning haqiqiy mezoni sifatida ta'rif beriladi. Sahovatni Navoiy odamlarning mushkulini oson qilishda unga beriladigan minnatsiz yordam sifatida tushunadi va shunga da'vat etadi. Qimmatlilik, muruvvat, karam sahovatning tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi. "Yaxshilik, karam -bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'izga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik", - deb, uning asl mohiyatini yoritib beradi. Muruvvatni esa ana shu "karamning urug'-avlodi, egizak qarindoshi, kimki bu hislatlarga ega bo'lsa izzat va hurmatga sazovor bo'ladi", - deydi alloma. U karam va muruvvatni ota-onaga o'xshatsa, vafo va hayoni egizak farzandlarga o'xshatadi. Lekin alloma har qanday ehsonni sahiylik deb tushunmagan. Sahovat deb isrofgarchilik qilishni, minnatni qoralagan. Ularni (sahovat, himmatni) tor ma'noda olmagan, aksincha, chuqur ijtimoiy ma'noda, keng ko'lamda olgan, ularda, bir tomondan, aqliy, yirik didaktik qoidalardan, jamiyatni tuzatadigan vosita va odamlar ulug'langan tekinxo'rlar qoralangan. Qanoatni - sharaf va izzatning tantanasi desa, davlatli ta'magirni xor va pastkash deb ataydi. Shuning uchun ham yoshlikning qadriga etish, eng yaxshi hislatlarni o'zida tarkib toptirish, nafs istagidan o'zining tiyishini ulug'laydi, takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, yolg'onchilik, nodon va johillik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, shoshma-shosharlik, yalqovlik, haromdan hazar qilmaslik kabi illatlarni qoralab, ulardan xalos bo'lish yo'llarini ham bayon etadi.

Uning quyidagi ruboiysi ana shu yomon illatlar insonni ma'naviy o'limga olib borishi mumkinligi haqidagi hukmidek tuyuladi:

Uch fe'l erur kishiga qotil oxir,
Qotillik aro zahri halohil oxir.
Buxl atla birin, birin havo bil oxir,
Qil ujbini ham alarga dohil oxir.

Demak, Alisher Navoiy o'zining asarlari bilan bir qatorda, ilimiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan insonga xos axloqiy fazilatlar deb qanoat, sahovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, ilm, rostgo'ylik, tavozu', adab va boshkalarni tushungan, ana shu hislatlar tarkib topgan insonda yomonlik, razillik bo'lmasligi, unday inson yashagan jamiyat ham ravnak topishi, barcha xalq baxt-sodatga erishishi mumkin deb hisoblagan.

6.2. Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlarida komil inson tarbiyasi

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan boshqa mutafakkirlar kabi insonni, uning yuksak ahloqiy hislatlarini, go'zal fazilatlarini bayon etgan allomalardan sanaladi. Abdurahmon Jomiy ham o'z asarlarida insoniy yuksaklikni ta'rif etadi. Tadkikogchi Sh.Shomuhamedov A.Jomiy haqida fikrlar ekan, "Uning shaxsan o'zi bunga namuna bo'ldi, poklik shamlaridan biri bo'lib porladi", - deydi. Jomiy uchta lirik devon, etti doston don iborat "haft rang" ("Etti taxt"), ta'lim-tarbiyaga oid "Bahoriston" asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi.

Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Sa'diyning Guliston asari uslubida yozilgan. "Bahoriston" asari va "Xaft avran"ga kirgan "Tuhfatul axror" hamda "Silsilatuz zahab" (Oltin tizmalar) va boshqa dostonlarida ifodalangan. Bu dostonlarda va "Bahoriston"da Jomiy haqiqiy kamolatga erishgan inson haqidagi qarashlarini bayon etadi. Jomiy o'zining mashhur "Silsilatuz zahab" (Oltin tizmalar) dostonida esa "Sevimli aziz farzandga nasihat" bobida, avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu ulfni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga almal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtiradi.

Alloma ilmning ahamiyati haqida gapirar ekan, bu bilimni egallashda

kitobning har bir yoshning bilim olishidagi o'rniga, uning hislatlariga alohida to'xtab o'tadi va kitobni "teri yopingan olim" o'xshatadi. Bilimni yoshlikdan egallash lozimligini ta'kidlaydi va johillikni qattiq qoralab, dono bilan nodonni bir-biriga qarama-karshi qo'yadi:

Hammadan avval farzand, bilimdan bahramand bo'l,

Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon olgil yo'l.

Har bir kishiga bu so'z, oyna kabi ayondir,

Dono tirik hamisha, nodon o'liksimondir.

Abduraxmon Jomiy donolikni olqishlar ekan, avvalo, mamlakatni boshqaruvchi hukmdorlar ilimli bo'lishi, agar rahbar nodon, johil bo'lsa, el boshiga juda ko'p nadomat, zulm yog'ilishi mumkinligini ifodalaydi:

Shoh agar bo'lmasa bilimdon hokim,

Jahl botkog'ida bo'lur muqim.

Yog'ar undan doim jaholat, o'lim,

El boshiga tushar nadomat, zulm.

"Baxoriston" asarida esa ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs foydasi tegadigan ilmni egalashi zarurligini ta'kidlaydi: Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan, Zarur bo'lmaganin axtarib yurma. Zarurini hosil kilgandan keyin, Unga amal kilmay umr o'tkurma. Abduraxmon Jomiy asarlarida ham boshqa allomalardagi kabi tarbiyaning ahamiyatiga katta e'tibor beriladi. Etuk insonga xos bo'lgan axloqiy hislatlar uning barcha asarlarida keng tarannum etiladi. Masalan, haqiqiy insonga xos bo'lgan axloqiy hislatlardan yaxshilik, sahiylik, shirinsuhanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratadi. Bunday sifatlardan sahovat va kamtarlik, karamni eng ulug' insoniy fazilatlaridan biri deb biladi. "Baxoriston"da u "sahovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab bo'lsa, hatto talab etilgan narsa maqto'v va minnatdorchilik bo'lgani taqdirda ham, u sahovat emas", - deydi. Abdurahmon Jomiy inson ta'masizlik va qanoatda xirs va ta'madan uzoq bo'lishini istaydi.

Kimning qalb diliga kirdi qanoat, hirs bilan ta'madan qutuldi bori. Qanoat gilami to'shagan erda, Sindi ochko'zligu ta'ma bozori. Jomiy insoniylik fazilatlaridan sanalgan kamtarlikni targ'ib etar ekan, kibr-havo, manmanlik, razolat, johillik kabi illatlarni fosh etadi. Masalan, u takabbur, manman shaxslar bosh ko'targan boshqoq kabi o'roq zarbi bilan erga yiqilib, sarg'ayib so'lishi mumkin desa, kamtar kishilarni esa o'zini tuproqqa tashlagan don, qushlar tomonidan avaylab erdan

ko‘tarib ketganlaridek e‘zozda bo‘ladi, deb ta‘kidlaydi.

Ayniqsa, Jomiy “Iskandar xiradnomasi” asarining “Iskandarning pokizalar shahriga etishi” bobida ifodalangan insonga xos hislatlarning tarannum etilishi, bizga Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi “Fozillar shahri hokimining fazilatlar”ni eslatadi. Har ikki asarda ham fozillar shahri aholisiga xos hislatlar yaxshilikning g‘olib kelishi va barcha yomon illatlar: urush, nizo, johiliyat, zulm, boylikka xirs, ta‘magirlik yo‘q etilishi yoritiladi. Iskandar jahon aylanib, bir shaharga keladi. U erning xalqi, turmush tarzi shohni lol qoldiradi. Mazkur shaharda odamlar tinch, osoyishta, urush-janjallarsiz hayot kechiradi; barcha barobar mehnat bilan shug‘ullanadi. Shaharda o‘g‘ri yo‘q, barcha eshiklar qulfsiz. Bu shaharda adolat hukmron bo‘lib, barcha fuqarolar bir xil hayot kechiradi. Ularga bunday hayot ota-bobolaridan meros qolgan bo‘lib, shahar axli bu an‘analarni e‘zozlab asraydi va amal qiladi. Jomiyning “pokizalar shahri” uning yuksak orzu-umidi, insoniyat tarixidagi ideal tuzum timsolidir.

Jomiy tasavvurida haqiqiy etuk inson el, xalq uchun xizmat qilib, yaxshi nom qoldirishi zarur. “Silsilatuz-zaxob” dostonidagi quyidagi pandlar uning barcha qarashlariga yakundek sanaladi:

O‘z koningdan tashqari qo‘ygil qadam,
Gavharingni ayla, pardozi dam-badam.
El uchun undan kelur ne foyda,
Konda gavhar yotgani befoyda.
Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgil mudom,
Hech kishiga ranju ozor bermagil.

Jomiy asarlarida yaxshilikning barkamol inson ega bo‘lishi zarur bo‘lgan eng muqaddas axloqiy islat sifatida tarannum etilishi bejiz emas. Zero, eng qadimgi ma‘rifiy yodgorliklardan boshlab yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash va yaxshilik, ezgulikning g‘olib kelishiga bo‘lgan oliy istak barcha pandnomalarning asosini tashqil etgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning etti dostonidan iborat “Haft avrang” (“Etti taxt”) asarining “Tuqfatul-axror” (“Erkinlar tuhvasi”), “Sabxatul-abror” (“Yaxshilar tasbixi”) kabi falsafiy-axloqiy asarlari; “Xiradnomai Iskandar” dostoni, “Silsilatuz zaxob” (Oltin tizmalar) asarlarida uning barkamol inson tarbiyasiga oid umuminsoniy g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

6.3. Husayn Voiz Koshifiyning ta'limiy–axloqiy qarashlari

Husayn Voiz Koshifiy ham o'z davrining yirik olimi sanaladi. Husayn Voiz Koshifiyning (tahm.1440-1505 yy.) Hirotida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar bilan hamkorligi ilm-fan taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etgan. Husayn Voiz Koshifiy axloq, nujum, mantiq, adabiyotshunoslik, riyoziyot, hisob, islom tarixi, ilohiyot, tarix, musiqashunoslik, tasviriy san'at, tabobat ilmiga oid 200 dan ortiq asar qoldirib, sharq ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda o'z o'rniga ega.

Koshifiy Hurosonda Husayn Boyqaroning voizi (notig'i), ta'birchisi, maslahatchisi sifatida shuhrat qozonadi. Chunki Koshifiy Huroson shaharlarida va'z aytib, xulq-odob qoidalari, Qur'on va Hadis masalalarini sharhlab, xalq orasida hurmat-e'tibor qozongan.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqiy Muxsiniiy" asari ingliz, nemis, o'zbek, turk tillariga tarjima qilingan. Mazkur asar Husayn Boyqaroning o'g'li Abdulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan bo'lib, inson kamoloti uchun eng zarur hislatlar ta'riflanadi. Asarda inson aqliga, aqliy tarbiyaga katta e'tibor beriladi. Aqlni haqiqat sifatida ta'riflab, inson o'zining faoliyatini aql yordamida amalga oshiradi, deydi. U ilm boylik va dunyo orttirish uchun emas, balki hayot kechirish uchun zarurdir, chunki ilm - doimiy, mol-dunyo o'tkinchi, deb tushuntiradi. Haqiqiy dono, bilimdon kishilar o'tkinchi narsalarga e'tibor bermaydilar, deydi. Demak, Koshifiy ilmni amaliyot bilan bog'lab tushuntiradi. Koshifiy har bir ishning muvaffaqiyatini bilimlarni amalda qo'llanishi bilan belgilagan. Bunda u inson aqlini faoliyatning asosi sifatida talqin etib, o'z navbatida bu faoliyat yangi bilimlarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi, deydi va bu fikri bilan ancha ilgarilab ketadi. Masalan, u "Axloqi Muhsiniiy" asarida aql bilan faoliyatning o'zaro aloqasi xaqida gapirar ekan, barcha kishilar aqlga extiyoj sezadi, aql esa amaliy faoliyatga extiyoj sezadi. Harakat, faoliyat aqlning ko'zgusi sanaladi. Aql yordamida insoniyat tajribasi, ma'naviy qadriyatlar yig'ilib boradi va kelgusi avlodlarga etkaziladi" deb ta'kidlaydi. Koshifiy shuning uchun ham avvalo ilm-fan, olimlarning jamiyatdagi o'rniga katta baho beradi, ustozlarning qadriga etish zarurligini uqtiradi. Ikkinchidan, ustozga hurmat odoblilik namunasi sifatida ham qaraladi.

Xusayn Voiz Koshifiy insonni bilim orqali tarbiyalash, uning aqliy

qobiliyatini o‘stirish mumkin, deb bilimning insonni shakllantirish mezonni sifatida talqin etadi. U ilgari surgan axloqiy tushunchalar: yaxshilik va adolat, burch, vijdon, or-nomus, baxt-saodat kabilarni ta’riflab, har birini insonda shakllantirish yo‘llari va usullarini ham bayon etadi, ularning tarkibiy qismlarigacha ajratib, ularni ijtimoiy talab darajasida tushuntiradi. Shu bilan birga asosiy mezonlarini ham ko‘rsatib beradi. U axloqiylikning asosiy mezonlari sifatida insoniylik, adolatlilik, sof insoniy munosabatlar deb biladi. Bularga teskari bo‘lgan xatti-harakatlar: yolg‘onchilik, chaqimchilik, g‘araz, hasad, bahillik, pastkashlik, g‘iybatchilikni qoralab, ulardan qutulish yo‘llarini ham bayon etadi. Shuningdek, Koshifiy axloqiy talablarni ham bayon etadi. Bu talablar axloq qoidalari bo‘lib hisoblanadi. U o‘ttizdan ortiq axloqiy qoidalarni bayon etib, bular sabr, hayo, pokizalik, sobitqadamlik, avf, sahiylik va sahovat, tavoze‘ kamtarlik, rostgo‘ylik, shijoat, xushyorlik, farosat kabi insoniy fazilatlarini barcha qirralariga ta’rif beradi.

Demak, Koshifiy axloqiy qarashlarida komil insonga xos bo‘lgan barcha hislatlarni o‘zida ifodalagan ilm-ma’rifatli, haqiqatparvar, adolatli, har qanday adolatsizlikka qarshi kurashuvchi oliyjanob inson qiyofasini tasavvur etamiz. Husayn Voiz Koshifiyning yana bir asari “Futuvvatnomai Sultoni” bo‘lib, unda komil insonni shakllantirishning aynan amaliy yo‘llanmalari beriladi. Ma’lumki, X asrdan boshlab javonmardlik yoki futuvvatchilik harakati keng yoyilgan. Bunda barcha yosh yigitlar o‘z hayotini faqat ezgu hislatlarni tarkib toptirishga bag‘ishlab, zoxiran va botinan pok bo‘lish, o‘z ezgu niyatlarini amalga oshirish uchun jamoa bo‘lib uyushgan. Bunday yoshlarni javonmardlar yoki futuvvatlar deb atashgan. Ular ma’naviy va jismoniy etuklikka intilgan, mardlik va oliyjanoblik namunasini ko‘rsatgan. Ularning o‘z jamoasi, piri, ustozlari, yig‘iladigan joylari bo‘lgan. Sarbadorlar Abu Muslim, Yaqub ibn Lays, Mahmud Torobiy kabi qahramonlarimiz ham o‘z vaqtida javonmardlar bo‘lishgan.

Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoni” asari ham boshqa ta’limiy-axloqiy asarlar qatori ana shu javonmardlik ilmining qoida-nizomlarini ifoda etgan. Futuvvat (jvonmardlik) ilmi ham tasavvuf, so‘fiylikka muvofiq kelib, insonni axloqan poklash, mehru shafqat himmat va mardlik ko‘rsatishni targ‘ib etgan. Tasavvuf futuvvatda yuksak g‘oyalarning amaliy-ijtimoiy tadbiqini ko‘rsa, futuvvat esa tasavvufda nazariy-e’tiqod asosini topgan. Odatda futuvvat sifatleri mavjud kishini

fatiy deganlar. Fatiylarning lug'atiy ma'nosi - yoshlik. Bu so'z yosh yigitga nisbat berilgan. Shu bilan birga majoziy ma'noda insoniy fazilatlar nuqtai nazaridan kamolat chegarasini zabt etgan olamga - yoshlarga nisbatan ko'llanilgan.

Javonmardlikning ruknlari (ustunlari) o'n ikkita bo'lgan: oltita zohiriy, oltita botiniy.

Zohiriy ruknlar:

1. G'iybat, yolg'on, bo'hton, behuda so'zdan tilni tiyish.
2. Nojo'ya, nomaqbul so'zlardan qulokni berkitish.
3. Ko'rish nojoiz narsalardan ko'zni yumish.
4. Harom narsalardan qo'lni tortish.
5. Borish man qilingan joylardan oyoqni tortish, gunohga sabab bo'ladigan tannozlik, gap tashish, ziyon-zahmat ishlarga qadam qo'ymaslik.
6. Harom ovqatdan og'izni, zinodan a'zoni berkitish.

Botiniy ruknlar:

1. Sahovat.
2. Kamtarlik (tavoze').
3. Qanoat.
4. Avf va marhamat.
5. Kibr va g'ururni tark etish.
6. Kibr (ko'ngil) dunyo tashvishlaridan tozalanib, do'st (xudo) muhabbatining makoniga, ishq sultoni o'tiradigan taxtga aylanishi.

Asarda keltirilishicha futuvvat sharti 71 ta bo'lib, uning 48 tasi vujudiy, 23 tasi azaliydir.

Vujudiya: islom, imon, aql, ilm, halm (halimlik), vara' (parxez), sidq, karam, muruvvat, shafqat, ehson, vafo, hayo, tavakkul, shijoat, g'ayrat, sabr, istiqomat, nasihat, nafs, tahorat, oliyhimmatlilik, sirni yashirish, rahmdillik, shariat rioyasi, amri ma'rufni bajarish, ota-ona hurmatini bajo keltirish, ustoz xizmatida bo'lish, hamsoya haqqini ado etish, tilga faqat savobga qaratilgan kalomni keltirish, ko'p bilib, oz gapirish, ya'ni bilim mo'lligidan sukut saqlash, halollikning talab etilishi, salom odobini bajo keltirish, yaxshilar va poklar bilan suhbatlashish, oqillar bilan suhbatlashish, shukr qilish, mazlumlarga yordam, etim-esirlar, yolg'iz kishilar holini so'rab turish, fikrat (o'y-fikr, andisha) va ibrat ko'rsatish, ixlos bilan amal qilish, omonatga hiyonat qilmaslik, shaytoniy nafsga qarshi dushmanlik ko'rsatish, insof

chizigʻidan chiqmaslik, rizo-rozilik hissini yoʻqotmaslik, kasallarni koʻrishga borish, nokaslardan uzoqda turish, doimiy zikr bilan band boʻlish (xudoning nomini tilga olib turish) kabilardir.

Futuvvatning barcha qoida-nizomlari ustoz yordamida sinovdan oʻtgan va bel bogʻlash shartlari, shogird tushish shartlari bajarilgach, jamoaga qabul etilgan. Asarda eng muhimi, tariqat ahlining odobi haqidagi fasllardir. Unda tariqat ahlining koʻnglini asrash, koʻz, quloq, til, ogʻiz, qoʻl va farq (tanosil aʼzosi)ni saqlash odobi, tariqat ardobi va ularning toifalari odobi, taqyadorlar (xonaqo) odobi, oʻtirish odobi, suhbat odobi, mehmon kutish, yoʻlda yurish, salom berish odobi, kasal koʻrishga borish, janoza, taʼziyaga borish odoblari, kasb-kor, savdo-tijorat odoblari, maʼrakaga borish odoblari bayon etilib, turmush odobiga oid har bir xatti-harakatning uslubi ham oʻz ichida bayon etilgan. Soʻng turli kasb egalarining odobi, faoliyati taʼriflangan. Yuqoridagi javonmardlar qoida, talablaridan, umuman, tajribalardan hozirgi davrda qanday foydalanish mumkin, degan fikr tugʻiladi. Taʼlim-tarbiyada oʻrin-oʻrni bilan bu talablarni singdirib borish, ularning hozirgi davrga moslaridan tanlab olish juda muhim. Zero, Koshifiyning bu asari oʻz-oʻzicha paydo boʻlmagan, albatta. Javonmardlik haqida koʻp taʼlimiy-axloqiy asarlarda bayon etilgan. Xususan, Kaykovusning “Qobusnoma” asarining oxirgi 44-bobi ham javonmardlikka bagʻishlangan.

Xusayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy” asarini tojik olimi Qurbon Voseʼ tojik tiliga va oʻzbek olimi N.Komilov uning 12 bobidan 7 bobini oʻzbekchaga tarjima qildilar.

6.4. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Husayn Voiz Koshifiylarnig taʼlim-tarbiya tarixida tutgan oʻrni

Sharqning buyuk allomalari Jomiy va Husayn Voiz Hazrati Mir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy tomonidan yaratilgan va hozirgi kunda ham taʼlim-tarbiya sohasida dasturi amal boʻlib xizmat qilayotgan oʻnlab pandnoma tipidagi asarlar komil inson tarbiyasida muhim rol oʻynab kelmoqda. Demak, Sharq Uygʻonish davri pedagogik taʼlimotida, taʼlimiy-axloqiy asarlarda komil inson tarbiyasi asosiy va muhim masalalardan sanalgan. Shunga koʻra, buyuk allomalar ilmiy bilimlarni rivojlantirish bilan birga taʼlimiy-axloqiy

risolalar ham yaratib, etuk inson tarbiyasining ham nazariy, ham amaliy jihatlarini yoritib berganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savl va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiyning ta'limiy-axloqiy qarashlarida bosh yo'nalish nima?
2. Alisher Navoiy pandlarida ilgari surgan komil insonga xos hislatlarga ta'rif bering.
3. Abdurahmon Jomiy ta'limiy-axloqiy qarashlarida inson pokligi nimalarda ifodalangan?
4. Husayn Voiz Koshifiy va futuvvat tarbiyasi nima?
5. Futuvvatlar tarbiya qoidalaridan qaysilaridan hozirgi davrda foydalanish mumkin?
6. Siz hozirgi davr yoshlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan qanday tasavvur qilasiz?

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. -T.: O'qituvchi, 1972.
2. A. Navoiy. Nazmul - javohir. Asarlar, 15 tomlik. 15-tom. -T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
3. A. Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asrlar 15 tomlik, 13-tom - T., 1968.
4. Boboxonov A. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. -T.: O'qituvchi, 1967.
5. Mallayev N.M. Genial shoir va mutafakkir.- T.: Fan, 1968.
6. Pedagogika tarixi. Ma'ruza matnlari, 1 qism. (Tuz.S.Nishonova., B.Hasanova.). - T.: TDPU, 2001.
7. Hasanova B. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy- axloqiy qarashlari. -T.: TDPU, 2005.
8. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.
9. Hasanov R. «Pedagogika tarixi kursini o'rganish uchun metodik tavsiyalar».-T., 1990.

10. Hasanov S. Mutafakkirlar mehxnat tarbiyasi haqida. -T.: O'qituvchi, 1993.
11. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996.
12. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -T.: "Milliy kutibxona", 2006.
13. Husanxo'jayev I.A. Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. -T., 1963
14. O'zbek pedagogikasi tarixi (prof. A.Zunnunov umum. tahr.ost.). -T.: O'kituvchi, 1997.
15. O'zbek pedagogikasi antologiyasi (Tuz. Hoshimov K., Safo Ochil.). - T.:O'qituvchi, 1995.

VII BO‘LIM. ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Reja:

1. A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari va uning yaratilish tavsifi.
2. Asardagi asosiy g‘oya.
3. A.Avloniyning ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limoti va tarbiya yo‘nalishlari to‘g‘risidagi fikrlari.
4. Asarning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, axloq, xulq, tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, yaxshi xulqlar, yomon xulqlar.

7.1. A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari va uning yaratilish tavsifi

Taniqli o‘zbek pedagogi va olimi A.Avloniyning pedagogikaga oid asari asarlari ichida uning 1913-yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi bor nashr qilingan “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan muallifning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzviy bog‘liqdir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi” ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nosir Xusravning “Saodatnoma”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Maxbub ul-qulub”, Axmad Donishning “Farzandlarga vasiyat”, Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarlari shaklidagi o‘ziga xos tarbiyaviy asardir. Shuni ta’kidlash lozimki, XX asr boshlarida bunday asarni yaratish, milliy g‘oya, milliy rux singdirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning tatbiq etilishi pedagogika olamidagi yirik kashfiyotdir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, erdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmoq kabidur”, - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy hislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega.

O‘zbek pedagogikasi tarixida A. Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir”, deb ta’rif berdi. Tabiiy, bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy ko‘plab xorijiy tillarni bilgan, arab, fors, rus, ozarboyjon tillarini mukammal egallagan.

Sharq xalqlari ilmiy merosini “Chuqur o‘rganganligi “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobini yaratishda, o‘zbek va tojik adabiyoti klassiklarining asarlaridan ijodiy foydalanish imkonini berdi. U mazkur asarni yozishda xalq pedagogikasidan o‘rinli foydalanib, asarni 64 bobdan iborat tarzda bayon etdi. Har bir bob o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ta’lim tarbiya masalalarini yoritishda biri ikkinchisini uzviy to‘ldiradi va takomillashtiradi. Muallifning hizmati shundaki, u mazkur asarni yozishda har bir bobning maqsad-vazifalarini ilmiy, uslubiy jihatdan asoslab, sodda va ravon til bilan o‘quvchilarga tushunarli xolda bayon eta bildi. Buni biz asarning asosiy g‘oyasi, yo‘nalishlari, tarbiya turlari haqida bayon etgan fikr-muloxazalarida ko‘ramiz.

7.2. Asardagi asosiy g‘oya

Darxaqiqat, Abdulla Avloniy tarbiyadagi asosiy g‘oya, bu bizlar uchun: “Yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deya mushohada qilishi, uning tarbiya sohasida juda katta va keng bilimga ega ekanligi, komil insonni tarbiyalashda ta’lim-tarbiyaning har bir yo‘nalishiga e’tibor berish kerakligini, ong va tafakkurni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tarbiya katta rol o‘ynashini mohirona ifodalai bilishi, tahsinga loyiqdir. Bu g‘oya o‘z navbatida yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, insonparvarlik, odamiylik, olijanoblilik, mehnatsevarlik, iffatli, mehr-oqibatli, intizomli, adolatparvar, millat g‘ururini e‘zozlovchi, ulug‘ ajdodlarimiz an‘analari va ilmiy meroslarini ko‘z-qorachig‘iday asrash,

axloqi pok inson bo‘lib etishish borasidagi asosiy mezon hisoblanadi.

Birinchi prezident Islom Karimovning “Men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun “Yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, saodat - yo falokat masalasidir” - degan fikrini ko‘p mushohoda qilaman. Buyuk ma‘rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan xam ko‘ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta‘lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaktida ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta‘lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi.

Ko‘rib turganimizdek bularning barchasi bir-biri bilan zanjir kabi chambarchas bog‘lik masalalardir”¹, - deya ilgari surgan fikr va muloxazalari Abdulla Avloniy ijodiga berilgan katta bahodir. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, shu bois A.Avloniy bola tarbiyasiga katta e‘tibor bilan qarab, o‘zbek ziyolilar orasida birinchi bo‘lib, ta‘lim-tarbiya haqidagi ta‘limotni, tarbiya yo‘nalishlarini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etdi.

7.3. Abdulla Avloniyning ta‘lim-tarbiya haqidagi ta‘limoti va tarbiya yo‘nalishlari to‘g‘risidagi fikrlari

Demak, Abdulla Avloniy, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bola tarbiyasini nisbiy ravishda to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.
4. “Axloq tarbiyasi” hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi.

U “Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat, jamoatchilik va boshqalarning kiritishi kerakligini ta‘kidlaydi.


Muallif tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning

¹ Баркамол авлод орзуси. Т. “Шарқ” 1999 й. 39 – 40 бетлар

oxiriga qadar davom etadi, - deydi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog‘cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan deb, tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Avloniyni fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma‘rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

Abdulla Avloniyni ta‘lim-tarbiya haqidagi ta‘limoti



Biz buni yuqoridagi chizmada ham ko‘rdik. Asosiy g‘oya: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir”.

Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog‘lom qilib o‘stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o‘qituvchilarning faoliyatlariga alohida e‘tibor beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”.¹

Ayni zamonda muallif ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”² - deydi.

Avloniy fikricha, inson butun borliqning ko‘rki va sharafigidir. Inson o‘z go‘zalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha maxluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson uni sohibidir deydi. Chunki insonning, aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi:

“Aql, - deydi Avloniy, - insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, rux ishlovchi, aql boshlovchidir. ...insonni hayvonlardan so‘z va aql ila ayirmishdur. Lekin inson, aql va idroki soyasida o‘ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan bog‘lab, iplarining uchini qo‘llarga bergan insonlarning aqlidur”. Avloniy insonga va uning, aqliga ana shunday yuksak baho beradi. “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidur. Agar, aqlingning qo‘li nafsingning jilovini ushlasa, seni yomon yo‘llarga kirmoqdan saqlar. Xar narsa ko‘p bo‘lsa, bahoi arzon bo‘lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur”.³

Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida ilm haqida yana shunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm

¹ Абдулла Авлоний. Иккинчи китоб, 14-бет

² Ўша китоб, 15-бет.

³ А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ , 22 - 23 – бетлар.

inson uchun g‘oyat oliy muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur”. Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, “Bizlarni jaholat, qorong‘ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”. Mufakkirning obrazli ifodasiga ko‘ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag‘iz. Uni qo‘lga kiritish uchun mehnat qilish, ya’ni chaqib uni po‘chog‘idan ajratib olish kerak. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini echishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir. Avloniy o‘z ilmini amalda qo‘llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy o‘z davrida yosh avlodda chin insoniy axloqiy xislatlar tarbiyalashni istadi. U ta’lim va tarbiya, ilm va ma’rifat olish yo‘li bilan vatandoshlarining baxtli va saodatli bo‘lishini orzu qildi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobining ikkinchi bobi insonning ijobiy xulqlariga bag‘ishlanadi. Buni “Yaxshi xulqlar” sarlavhasi ostida bayon etadiki, unda biz insonning kamol topishida muhim rol o‘ynaydigan 30 dan ortiq axloqiy fazilatlarining mohiyatini, axloq tarbiyasi mezonlarini, ulardan foydalanish uslublarini moxirona ta’riflaganini bilib olamiz. Avloniyning mahorati shundaki, insonning kamol topishida yaxshi xulq bilan yomon xulqni bir-biriga taqqoslab, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, bolalarda axloqiy fazilatlarining shakllanishida muhim vosita ekanligini hayotiy misollar, hikoyalar asosida ilmiy jihatdan asoslab bera olganligidir.

Darxaqiqat asarda keltirilgan yigirmadan ziyod sarlavha ostida bayon etilgan, ya’ni g‘azab, shahvat, adovat, haqorat, hasad, ta’ma, zulm kabi yomon xislatlardan tiyilish, ularning zararli oqibatlari haqida mushohada yuritish, kishini yomon yo‘ldan asrashga, g‘aflet uyqusidan uyg‘onishga, milliy g‘ururi, o‘zligini anglashga, ongli, diyonatli, sahovatli, ma’rifatli inson bo‘lib shakllanishiga zamin degan fikr ilgari suriladi.

7.4. Asarning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

Biz yuqorida mushohada qilganimizdek, asarnig ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Chunki asar yozilganiga sal kam bir asr bo'lsada, o'z qimmatini yo'qotmadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, “u asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham muhim va dolzarbdur”. Zero, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham yangi insonni kamol toptirish yo'lida, kishilarni chinakam umuminsoniy tuyg'ular, ezgu-g'oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli tarixiy material sifatida e'tiborni o'ziga jalb qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining yaratilishi va uning asosiy g'oyalari nimadan iborat?
2. Asar necha bob va bo'limlardan iborat?
3. “Tarbiyaning zamoni” deganda qanday fikr ilgari surilgan?
4. “Badan tarbiyasi” hamda “fikir tarbiyasi” deganda nima tushuniladi?
5. Axloq tarbiyasi mezonlari deganda nima nazarda tutilgan?
6. Avloniy tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya yo'nalishlari va vazifasi qanday ifodalangan?
7. O'zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimov Avloniy faoliyatiga qanday baho bergan?

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992.
2. Barkamol avlod orzusi. -T.; Sharq, 1999.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.; O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: O'zbekiston, 1998.
5. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (tuz. O.Hasanboyeva). -T.: O'qituvchi, 1993.

6. Pedagogika tarixi. Maruzalar matni qo'llanma. II qism (tuz. S.Nishonova., B.Hasanova). - T., 2002.
7. O'zbek pedagogikasi tarixi. (prof.A.Zunnunov umum.tahr. ostida). -T.: O'qituvchi, 1997 .
8. Hasanboyeva O. Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.
9. Hasanova B. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. - T.: TDPU, 2005.
10. Hoshimov K. Nishonova S. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: Milliy kutubxona nashriyoti 2006.

VIII BO‘LIM. 1917-1991-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HAYOT, TA‘LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Reja:

1. O‘zbekistonda 1917-1924-yillardagi ma‘naviy-madaniy muhit hamda milliy maktab-maorifini joriy qilish borasidagi say‘i-harakatlar.
2. Turkistonda Milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgandan so‘ng xalk ta‘limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari.
3. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi-yillarida O‘zbekistonda xalk ta‘limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari.
4. XX asrning 70 - 80-yillarida O‘zbekistonda xalk ta‘limi.
5. Akademik Sidiq Rajabov hamda Habib Abdullayevlarning Respublika xalk ta‘limi, ilm va fan taraqqiyotini rivojlantirishdagi roli.

Tayanch tushunchalar: Milliy madaniyat, “Hurriyat”, “Anjumani maorif”, “Rushdiya”, “Tarbiyat”, “Qurultoy”, “Musulmon o‘kituvchilar kengashi”, “Dorilmuallimin”, “Xalq dorilfununi”, jadid maktablari, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari, umumiy boshlang‘ich ta‘lim, umumiy etti-yillik ta‘lim, “yozuv masalasi, islohotlari”. Ikkinchi jahon urushi, “Umumta‘lim maktablarining faoliyati”, sirtqi va kechki ta‘lim tizimi, Siddiq Rajabov, Habib Abdullayev, “Umumiy ta‘lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari”.

8.1. O‘zbekistonda 1917-1924-yillardagi ma‘naviy-madaniy muhit hamda milliy maktab maorifini joriy qilish borasidagi sa‘yi-harakatlar

Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-mafkuraviy, jumladan xalk maorifi sohalarida keskin o‘zgarish yuz berdi. Turkiston o‘lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma‘rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog‘ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Ammo O‘zbekiston xududida ma‘naviyat va madaniyat 1917-yildan

boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya koloniyasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar. Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod axli bo'lmish Munavvar Qori, Maxmuxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq Yunusov (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Maxmud Xodiyev (Botu), Baxrom Haydaryi va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqandda mashhur ma'rifatparvarlar Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Ahmad (Vasliy), Saidahmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli Shomuxammadzoda zudlik bilan maktab islohotini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan "Hurriyat" gazetasi saxifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdilar. "Anjumani maorif" jamiyatining mablag'lariga "Rushdiya" maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o'quvchilarga islom diniy ta'limotini, islom tarixini, musulmon huquqini, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'qitar edilar. Yoz faslida Samarqandning o'zida taniqli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo "Tarbiyat" maktabini ochdi.

1918-yilning yozida Samarqandda "musulmon o'qituvchilari uchun pedagogak kurslar" ochildi. O'sha-yilning kuzida Toshkentda - Toshkent uyezdining tub erli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi. 1918-yil 9 aprelda Munavvarqori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo'limi ham O'rus bo'limi kabi uch bosqichdan iborat bo'lishi belgilandi.

Yuqori bosqich - dorilmuallimin (o'qituvchilar kursi, keyinroq oliy o'quv yurti o'rta bosqich - boshlang'ich maktablarni o'z ichiga

olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo'lishi sharoitning o'zidan kelib chiqqan holda zamonaviy bilim va savodxonlikka ehtiyojdan tugalgandi. O'sha-yilning 3 mayida dorilfunununing Musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar qori rais (rektor), Iso To'xtaboyev birinchi muovin, Burhon Habib ikkinchi muovin, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muhtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do'koni binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon axoli uchun "Xalq dorilfununi" ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, aholi ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24 taga etdi. Dorilfununining musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undaga muallimlar soni 18 nafarga etadi.

1918-yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi – "Doril-muallimin" ochildi. Unda Fitrat ona tilidan, Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Xaydar Shavqiy gagiyena, gimnastika va nemis tilidan, Raximboyev arifmetikadan, Abduraxmon Ismoilzoda san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvar qori ona tilidan dars berishadi. Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvarqori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqni erkin muxofaza qila olmasligani, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvarqori ovro'pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda asosan dunyoviy fanlar o'qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi. Bu qarashlarini - u 1923-yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgan, 1923-yilda bu yangi usulda 30 dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilganligi ma'lum. Munavvar Qori 1922-yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha-yili 23-25 martda bo'lib o'tgan 2-Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'lim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o'zbek tili va

adabiyotidan dars berdi. Do'stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlari" kitobini (1925-yil) nashr ettirdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Isoqxon Ibrat, O.Dadaxo'jayev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziyev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Said Rizo Alizoda, To'xtanazar Shermuxammedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1918-yil boshida 330 taga, 1920-yilda esa Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida ham tashkil etilib ular soni 1405 taga etdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarda asosan 1-2 - boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'la boshladi. Bunday targ'ibot natijasida Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda qizlar maktablari ham birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solihaxon Muhammadjonova, Muxarrama Qodirova, Gulsum Ko'payeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar dars-tarbiya ishlarini olib borganlar. Keng doiradagi bilimdon ziyolilar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko'tardilar. 20-yillar boshida Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875-1943) mudirlik qilgan maktab, 1922-yilda Farg'ona shahrida Husanxon Niyoziy boshchiligidagi ochilgan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi. 1922-yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro Respublikasida 1921-yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924-yil o'rtalariga kelib maktablar 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganda turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

8.2. Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilgandan so'ng xalq ta'limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari

Ma'lumki, 1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. Shuni ta'kidlash lozimki,

20-30-yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yo'nalishlarini uzoq-yillarga belgilab berdi.

Xalq ma'rifatining yuksalish yo'lida aholining savodliligini oshirishga, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930-yili umumiy boshlang'ich ta'limni joriy etish savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi. 30-yillarning oxirlariga kelib, umumiy etti-yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi. Sovet davlatining statistik ma'lumotlarida ko'rsatilishicha 1925-1941-yillar davomida xalq ta'limi maktablari soni muttasil ortib borgan. Masalan, 1924-25 o'quv-yilida O'zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda 17209 o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941-yilga kelib maktablar soni 5504 taga va ularning o'qitilayotgan o'quvchilar soni esa 1 million 315 ming kishiga etgan.

Ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihddan ishonchli, aholining "mehnatkash" tabaqalaridan chiqqan kishilarini tanlab olish kerak, degan g'oya ilgari surildi. Chunki, avvaldan yaxshi ma'lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo'lsa, savollar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun ham madaniyat xodimlarning tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo'lgan "mexnatkashlar" hisobiga soddalashtirish, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarish maqsad qilib qo'yildi. Bu "madaniy inqilob"ning asosiy tezislardan biri bo'lib, "shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyati"ni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu g'oya sovet davlatining barcha o'n-yilliklari davomida yashab keldi - 30-yillarda uni amalga oshirish borasida qo'yilgan dastlabki qadam madaniyatning barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlash, yuqorida aytganimizdek, "mehnatkashlar", ya'ni, "proletar qatlamdan" boshlanganligi ham bejiz emas edi. O'sha-yillarda komsomol safiga ijtimoiy jihatdan faqat "mehnatkashlar" qatlamidan qabul qilinganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, nima uchun komsomollar safarbar qilinib, ularni qisqa muddatli kurslarda o'qitib maktablarga muallim sifatida yuborilganligini anglab etamiz. Buning natijasida respublikada o'qituvchilar soni 1928-29 o'quv-yilidagi 5,5 ming kishidan 1932-

33 o‘quv-yilida qariyb ming kishiga 1941-yili esa 42 ming kishiga etgan. Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, 1933-yil boshlarida xalq ta’limi tizimlarida o‘tkazilgan “tozalash” oqibatida ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan “ishonchsiz” bo‘lgan minglab bilimdon va tajribali muallimlar haydalib, ular o‘rniga qisqa muddatli kurslarni bitirgan saviyasi past, lekin ijtimoiy jihatdan “ishonchli” qatlamlardan qo‘shimcha muallimlar tayyorlanib, ular maktablar va madaniyatning boshqa sohalarida ishlash uchun yuborildilar.

Bu-yillarda respublika oliy o‘quv yurtlari tarmog‘i ham ortib bordi. Samarqandda O‘zbekiston davlat universiteti, Buxoro, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch shaharlarida oliy maktablar tashkil etildi. 20-yillar o‘rtalaridan boshlab mustabid tuzum O‘zbekistonda qator ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil qildi. 1932-yilga kelib o‘zbekiston olimlari Respublika Fanlar Akademiyasini tashkil etish ishiga kirishdilar. Bu yo‘lda ilk tashlangan qadam Markaziy Ijroiya Qo‘mita qoshida 1932-yil 11 oktyabrda O‘zbekiston ilmiy-tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi respublika qo‘mitasining tuzilishi bo‘ldi. 40-yillarning boshida O‘zbekistonda 60 dan ortiq maxsus ilmiy-tekshirish muassasalari, laboratoriya va stansiyalari mavjud bo‘lib, ulardan nazariy va amaliy fan sohaları bo‘yicha turli yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirildi. 1940-yil 9 yanvarda Fan Qo‘mitasi Ittifoq Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filialiga aylantirildi.

8.3. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi-yillarda O‘zbekistonda xalq ta’limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari

Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlardanoq O‘zbekiston xalqlari ma’naviy madaniyatining boy salohiyati insoniyatning eng yovuz dushmani bo‘lgan fashizmni tezroq tor-mor qilish ishiga safarbar qilindi. O‘zbekiston madaniyatining barcha yo‘nalishlari uning arboblari va xodimlarining fidoyiligi va vatanparvarligi tufayli juda qisqa muddatlarda urush davri ehtiyojlari va talablari oqimiga yo‘naltirildi. Urushning og‘ir sharoitlarida o‘zbek olimlarning ilmiy va amaliy ishlari front, aholi va g‘alaba uchun bekiyos ahamiyatga ega bo‘ldi,

xalqimiz ahlining ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini kuchaytirdi, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'unlashtirdi, mehnat faoliyatiga kuch-quvvat bag'ishladi.

Urushning suronli-yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943 yidda Respublikada 41 oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush-yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar etishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush-yillari O'zbekistonda barcha turdagi qo'shinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshta piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamiz joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

Urush xalq ta'limi muassasalari faoliyatini yanada murakkablashtirib yubordi. Ko'pgina o'qituvchilar harakatdagi armiya safiga chaqirildi, yuqori sinflarning o'quvchilari ishlab chiqarishga safarbar qilindi. Maktab binolarining anchagina qismi gospitallarga, evakuatsiya qilingan harbiy qismlarga, bolalar uylariga va harbiy - o'quv punktlariga berildi. Natijada respublikadagi maktablarning umumiy soni 1942-43 o'quv-yillarida 1940-41 o'quv-yilidagiga nisbatan 421 taga qisqarib, 4795 tadan 4374 taga tushib qoldi. Binolar va o'qituvchilar etishmasligi tufayli ko'pchilik maktablarda mashg'ulotlar 3 smenada olib borilardi. Darsliklar, o'quv qurollari va boshqa jihozlar ham etishmasdi. Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, o'zbekiston maktablarining jamoalari gospitallarni otaliqqa oldilar, yaradorlar huzurida konsertlar qo'yib berdilar, frontga ketganlarning oilalariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar. Harakatdagi armiya jangchilari uchun sovg'alar tayyorladilar, qishloq xo'jalik ishlarida ishtirok etdilar.

O'zbek fan axlining urush sharoitidagi izlanishlari, ilmiy tadqiqotlarining yo'nalishlari front va xalq xo'jaligi talablari hamda

manfaatlariga moslashtirildi. Bu boradagi ilmiy va tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirish, ularga rahbarlik qilish sobiq SSSR FA O'zbekiston filiali (O'zFA) va keyinroq, 1943-yil 4 noyabrda uning asosida tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi zimmasiga tushdi. Bu akademiyaning birinchi prezidenti etib T.N. Qori-Niyoziy saylandi. Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi o'zbek xalqi hayotida muhim tarixiy hodisa bo'ldi. Bu akademiya o'zbekiston ilmiy tafakkurining markazi bo'lib qoldi. Shu bilan respublikada ilmiy tafakkurni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi. Bu davrda taniqli matematik olimlar T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, geolog-olimlar M.Abdullayev, faylasuf I.Mo'minov, kimyogar olimlar O.S.Sodiqov, A.S.Uklonskiy, S.Yu.Yunusov, energetik A.N.Askochenskiy va boshqalar samarali izlanishlar olib bordilar. Fanlar Akademiyasi tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud bo'lib, ularda 818 ilmiy va ilmiy-texnik xodimlar faoliyat ko'rsatdilar. Urush tufayli Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk va boshqa shaharlardan ko'chirib kelingan olimlar o'zbekiston olimlari bilan mahkam aloqada ish olib bordilar. Ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari ilm-fan yutuqlarini front ehtiyojlari uchun xizmat qildirishga qaratilgan edi.

Matematika, fizika, mexanika, energetika hamda boshqa mavjud fanlar sohasidagi olim va ilmiy xodimlarning izldanishlari - metalni qayta ishlash, mashinasozlik va mudofaa sanoati boshqa tarmoqlarining rivojlanishini ta'minladi. Respublika olimlari artilleriya aslahasini mustaxkamlash, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish salohiyatini oshirish, mavjud harbiy texnika vositalarini yaxshilash va yangi turlarini yaratish kabi eng dolzarb amaliy masalalarni hal etdilar. Urush asoratlari umumta'lim maktablarining holati va faoliyatiga ham qattiq ta'sir qildi: o'qituvchilarning harbiy xizmatga chaqirilib, froshta yuborilishi oqibatida ularning soni keskin kamayib ketdi, bu o'z navbatida maktablar sonining qisqarishiga olib keldi. Faqat 1942-43 o'quv-yilida respublikada 200 ta boshlang'ich va o'nlab o'rta maktablar faoliyati to'xtatildi; turli sabablarga ko'ra o'quvchilarning maktabdan ketib qolishi, maktab yoshidagi bolalarning o'qishga jalb etilmasligi tufayli o'quvchilarning soni tobora kamayib bordi. 360 ta maktab binosi respublikaga ko'chirilgan harbiy qismlar, kasalxonalar va shu kabilarga berildi. Mavjud maktablarni yoqilg'i bilan ta'minlash qiyinlashdi, yozuv qurollari, darslik va ko'rgazmali qurollar etishmas,

o'quvchilarni kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minlash og'ir bo'lib qolgandi. Bular hammasi maktab ishida o'zining sezilarli izini qoldirdi, o'zlashtirish foizi pasayib ketdi.

Zero maktablar oldida turgan tarbiyaviy masalalarni bajarishda qator tadbiriy ishlar amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa:

1. Maktab yoshidagi bolalarning hammasini umumiy ta'limga tortish ishini davom ettirish;

2. O'quv-tarbiya ishlarini qayta qurish va sifatini yanada yuqori ko'tarish, fan asoslarini yuksak siyosiy-g'oyaviy saviyada o'qitish, o'quvchilarga zaruriy jismoniy tarbiya berish, yoshlarni ijtimoiy-foydali ishlarda keng qatnashishini ta'min etish uchun ularga agrotexnika ta'limini berish;

3. Aholi o'rtasida ommaviy mudofaa va siyosiy oqartuv ishlarini olib borish;

4. O'quvchilarning korxona va qishloq xo'jaligida mudofaa ehtiyoji uchun qilinadigan mehnatlarini yo'lga qo'yish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Urush-yillaridagi mavjud barcha qiyinchiliklarni bartaraf etish va yovuz dushman ustidan g'alaba qozonishda yoshlar tarbiyasi hal qiluvchi rol o'ynadi. Bunda asosan milliy xalq tarbiya an'analaridan ijobiy foydalanish, ularga yangi mazmun kasb etish bolalarni vatanparvar, uyushqoq, intizomli, sabotli, mehnatsevar qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda maktablarda juda ko'b uchrashuvlar o'tkazildi. Bu esa o'z navbatida yoshlar qalbida qahramonlik hissini uyg'otdi, mehnatsevarlik, fidokorlik kabi yuksak sifatlarni tarbiyaladi.

Respublika xalk ta'limi uchun urushdan keyingi-yillarda bir kator jiddiy muammolar qiyinchilarni engib o'tishga to'g'ri keldi. Urush-yillarida ta'lim tizimiga e'tibor berilmadi. Ana shu "odat" urushdan keyingi dastlabki-yillarda ham davom etdi. Urush davrida o'qishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi dastlabki-yillarda ta'lim tizimiga tortish juda muhim masala bo'lib qoldi. Bundan tashkari, urush-yillarida ta'lim sifati ham juda pasayib ketgan bo'lib, 20-yillardagi qoloq uslublarda olib borilardi. Bu esa o'quvchilarni o'qishdan bezdirar, o'qishni tashlash va sinfda qolish hollari ko'paymoqda edi. Masalan, 1945-46 o'quv-yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln.10 ming kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar soni ham

ko'p bo'lib, 1946-yilda u barcha o'quvchilarning 37%ini tashkil etardi. Ayniksa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qishni tugatguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. O'qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi-yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi xalok bo'lgandi. Xususan, 1947-yilda respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi etishmasdi. Tuman xalk maorif bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovinlarning 60%dan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emasdi. 1950-yilda 7125 maktab o'qituvchilarga muhtojlik sezardi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1 oktyabrdagi sessiyasida "O'zbekiston SSR da majburiy etti-yillik ta'limni to'lik amalga oshirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi. Yangi qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab haqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun xam 1959-yil martda O'zbekiston Oliy Soveti "Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabit tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga etkazmaslik odati bu gal ham muammoni xal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida axvol o'zgarmadi.

60-yillar O'zbekistonda "rivojlangan sotsializm" bosqichi deb e'lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy-iktisodiy va madaniy- ma'rifiy sohalarda jiddiy sifat o'zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Birok amalda unday bo'madi. Lekin buning o'rniga siyosiy rahbariyat aqidaparastlikni, lo'ttibo'z ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta'lim tizimi ham ana shu "girdobga" tashlandi. Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60-yillarda O'zbekiston tarixi, O'zbek tili va adabiyoti, chet tili, musika va qo'shiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan xaftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo'shagan soatlarga esa rus tili va adabiyoti fani o'qitildi. Masalan, o'qituvchilar "XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida o'zbek adabiy-badiiy muhiti", "Milliy madaniy jarayonlar"

to'g'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim bo'gan soatlarda rus madaniyatining "progressiv" ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Nihoyatda boy va ko'xna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan hodda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan.

1950-yilda respublika xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashda 26 ta oliy o'quv yurtlari, shuningdek, 2 ta universitet faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga 92 ta texnikum o'rta maxsus ta'lim tizimida ish olib bordi. 1950-1953-yillarda respublika oliy o'quv yurtlarida 16600, o'rta maxsus bilim yurtlarida qariyb ming mutaxassis tayyorlandi. Biroq, o'zbek qishloqlari va shaharlaridagi og'ir iqtisodiy axvol mahalliy aholi yoshlarini oliy maktablarda o'qishga imkon bermas, ulardan yuqori malakali mutaxassis xodimlar tayyorlash ishiga to'sqinlik qilardi. Xususan, 1950-1953-yillarda oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarning 33%ini o'zbek millati tashkil qildi, xolos. O'zbek millatiga mansub yoshlarni oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlariga bunchalik kam jalb etilishining yana boshqa o'ziga xos sabablari ham bor edi, albatta. Bulardan birinchisi, o'quv yurtlariga kiruvchi yoshlar o'rta maktablarda ommaviy-siyosiy tadbirlarga, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga (ayniqsa, kishloq yoshlari) asossiz ravishda ko'plab jalb qilinishi oqibatida ular oliy o'quv yurtlariga kira olishlari uchun talab qilinadigan bilimni olish imkoniyatiga ega bo'lmasdilar. 60-yillardan boshlab oliy o'quv yurtlari qoshida maxsus tayyorlov kurslarining tashkil qilinishi va ularga asosan qishloq yoshlaridan jalb qilinishi fikrimizning to'g'riligidan dalolatdir. Yana muhim sabablardan biri, oliy o'quv yurtlariga kirish uchun sinov sifatida xorijiy tillardan imtihon qo'yilishi va talabalarga rus tilida (80-yillardan boshlab) dars o'tilishi edi. Natijada respublika oliy o'quv yurtlarida qishloq yoshlarining salmog'i kamayib ketdi. Chunki, qishloq maktablarida na xorijiy tillar, na rus tili (bu soha o'qituvchilarining etishmasligi yoki ularning qishloq maktablarida ishlashni xoxlamasliklari natijasida) etarli darajada, ayrim maktablarda esa umuman o'qitilmasdi. Bu hol oliy maktablarda shaharlik yoshlarning ko'payib borishiga, qishloklarda esa oliy ma'lumotli mutaxassislar muammosining yuzaga kelishiga olib keldi.

Ayni paytda, qayd etish lozimki, respublikada-yildan-yilga oliy o'quv yurtlari soni ham ortib bordi. Yangi institutlar - Andijon medisina instituti,

Oʻrta Osiyo medisina-pediatrica instituti, Toshkent jismoniy tarbiya-fizkultura instituti, Toshkent aloqa va elektrotexnika institutlari ochildi. 1959-yilda Respublika Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tizimida 31 ta oliy oʻquv yurtlari mavjud boʻlib, ularda 88 ming kishi taʼlim olgan boʻlsa, 1985-yilga kelib oliy oʻquv yurtlari soni 42 taga, talabalar soni esa 285,5 ming kishini tashkil qildi. Shuningdek, respublikadagi 249 oʻrta maxsus bilim yurtlarida 281,7 ming oʻquvchi bilim oldi. Biroq bular miqdor koʻrsatkichlardagi ayrim siljishlar edi. Lekin masalaning asosiy jihati - oliy taʼlim muassasalarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarning sifati va saviyasi masalasida koʻplab muammolar mavjud edi. “Sotsializmning afzalligi”ni “koʻz-koʻz” qilish maqsadida asosiy eʼtibor oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlashning son koʻrsatkichlariga qaratildi. Bu esa mutaxassislarning jahon talablaridan jiddiy ortda qolishiga, xalq xoʻjaligi uchun keraksiz mutaxassislarning tayyorlanishiga, mablagʻlarning behuda sarflanishiga, mutaxassislardan ishlab chiqarishda samarasiz foydalanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimida oʻquv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; Mutaxassislik boʻyicha asosiy fanlarni oʻqitishni takomillashtirish oʻrniga barcha oliy oʻquv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini oʻqitishni yanada yaxshilash toʻgʻrisida tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Oʻquv jarayoni uchun muhim boʻlgan demokratik va ijodiy jihatlar inkor etildi. Natijada oliy taʼlim tizimida maʼsuliyatsiz, tashabussiz, loqayd, “oʻrtamiyona” mutaxassislar tayyorlash mexanizmi yuzaga keldi.

Respublikada urushdan keyingi-yillarda fan yutuqlari avvalo Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining olimlari, ilmiy xodimlari faoliyati tufayli qoʻlga kiritildi. Urushdan keyingi dastlabki-yillardayoq Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining yangi institutlari: inshootlar, botanika, zoologiya va parazitologiya institutlari, shuningdek, Oʻzbekiston ishlab chiqarish kuchlarini oʻrganish kengashi, turli laboratoriyalar tashkil qilindi. Akademiya tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Yangi sohalar boʻyicha mutaxassislar soni koʻpaydi, shunga muvofiq ravishda ilmiy jamoalarning tadqiqotchilik faoliyati istiqboli, ilmiy tadqiqotlarning yoʻnalishlari kengaydi. 50-60 --yillarda Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida Yadro fizikasi, oʻsimlik

moddalari kimyosi, kibernetika, seysmologiya, elektronika, biokimyo, fiziologiya va biofizika institutlari tashkil qilindi.

Shuni takidlash lozimki, mazkur davrda Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek guruhlarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

Oliy o'quv yurtlarining ish tartibi va o'quv rejasi Markazdan belgilangan yagona tartibga bo'ysundirildi, millatning ilg'or yoki qoloqligi mezoni rus madaniyatiga yaqinligida deb tushunildi. Ayrim o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida o'qitish rus tilida olib borildi. Bu hol mutaxassislar tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbek tili o'z o'rnini asta-sekin rus tilga bo'shatib bera boshladi. Jamiyatimiz hayotida uning mavqei va ta'sir doirasi kengayish o'rniga, -yil sayin torayib bordi.

Bu-yillarda o'zbek tilida chop etiladigan ilmiy kitoblarning soni kamayib ketdi. Jumladan, 1960-yilda o'zbek tilida 1060 nomda kitoblar chop etilgan bo'lsa, 1987-yilda esa 936 nomda kitob bosilib chiqdi.

Respublikada 1980-yilda chop etilgan 83 nomdagi jurnallarning 48 tasi rus tilida edi. 1985 yidda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix institutida tayyorlangan ilmiy asarlarning 80 foizida rus tilida, 16 foizi xorijiy tillarda, faqat 4 foizigina o'zbek tilida nashr etildi. Respublika, shahar, viloyat va tuman kutubxonalari va kitob do'konlarida o'zbek tilidagi ilmiy va badiiy adabiyotlarning soni juda kam edi. Masalan, 1987-yilda 1980-yildagiga qaraganda o'zbek tilida badiiy asarlar chop etilishi 0,9 mln. nushaga kamayib ketdi. O'zbekistonda yashayotgan har bir o'zbek kitobxoniga o'rtacha olganda 0,7 tadan badiiy asar to'g'ri kelardi. Bu o'zbek halqining ma'naviy qashshoqlanishi omillaridan biri bo'ldi.

Shunday qilib, o'zbek tilidagi kitoblarni, ayniqsa, milliy adabiyotni keng targ'ib qilish mumkin bo'lmadi. Tarjima masalalarida ham

ijtimoiy adolatsizlikka yo‘l qo‘yildi. Adabiy-badiiy etuk bo‘lmagan bo‘sh asarlar tarjima etilib ko‘proq markaziy nashriyotlarda chop etildi, shu tufayli milliy adabiyotimizga aynan o‘shanday asarlar nuqtai nazaridan baho beriddi. Bu ularning bari millatlarora munosabatlarga, milliy madaniyatlarning o‘zaro aloqasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro‘y bergan kamchilik va muammolar ta‘limga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Shunday bulsada, bu borada katta qadam tashlandi. O‘zbekiston yalpi savodhonlar respublikasiga aylandi. Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham-yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985-yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi. Jamiyatdagi turg‘unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma‘naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimi ham jiddii ta‘sir o‘tkazdi.

Maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo‘yab ko‘rsatish hollari salbiy ta‘sir qildi. Yaqin o‘tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g‘ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma‘nanaviy zarar etkazdi, ularning aksariyat qismida mudroqliq xafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko‘proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani etarli o‘zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va ma‘daniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o‘qish-o‘qitilish sifat o‘zgarishining ro‘y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o‘quv-yilida respublikamizda mavjud 7000 dan ortiq umumta‘lim umumta‘lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, kishlok maktablarida axvol og‘ir bo‘ldi. Ularning 75 foizga yaqini rovd va kanalizatsiyaga, yarmidan ko‘prog‘i markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisligi sababli 5800 ta maktabda o‘qish ikki smenada olib boriladi. Madaniy-ma‘rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash “qoldiq” prinsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino etishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta‘minlangan edi. Bu soha uzoq-yillar davomida diqqat-e‘tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning

eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga qilinadigan sarf-harajatlarni qo'shib hisoblaganda ular budjet mablag'larining 2,7 foizidan ortmas edi.

Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy ta'lim-tarbiya ishlari ko'p tomondan o'qituvchi kadrlar sifatiga bog'liq edi. 80--yillarning o'rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta'lim maktablariidagi o'qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma'lumotli edi. Qishloqlarda axvol birmuncha yomonroq bo'ldi, ularda ma'lumotli pedagoglar etishmas edi. Pedagoglar etishmasligidan bir soha o'qituvchisi boshka fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o'quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. O'quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilishi ta'lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi. O'sha-yillarda sovetlarning maorif sohasida amalga oshirgan siyosati bu sohada tangsizlik holatini kuchaytirdi. Respublikaning umumta'lim maktablarida yoshlarning g'oyaviy, axloqiy tarbiyasi sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari ustuvorligi asosida olib borildi. Maktablarda o'rganiladigan fanlar, ayniqsa, gumanitar fanlar o'ta siyosatlashtirilgan, mafkuralashtirilgan edi. Bu hol yoshlarning dunyoqarashini cheklab qo'ydi. Yoshlarni tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy madaniy-ma'naviy qadriyatlarga ahamiyat berilmadi. O'zbekiston tarixi mustaqil fan sifatida maktablarda o'qitilmadi. Iqtidorli yoshlarni tarbiyalashga e'tibor berilmadi, iste'dodli yoshlar moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmadi. Ularni chet ellarda o'qitish, jahon taraqqiyogi yo'llarini, tajribalarini o'rganish tashkil qilinmadi. Bularning barchasi Respublika maorifining rivojlanishiga to'g'anoq bo'ldi.

8.4. XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi

70-80-yillarida O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'kitish vositalaridan foydalanilmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi. To'g'ri, bu-yillarda maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni-yildan-yilga ortib bordi, son ko'rsatkichlari kishini hayratga solar darajasida ortdi. Masalan, O'zbekistonda 1945-46 o'quv-yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan

bo'lsa, 1970-71 o'quv-yilida respublikaning umumiy ta'lim maktablari soni 7072 taga, ularning o'quvchilari esa 3 mln. 164 ming kishiga etdi. Biroq, ularning sifat darajasi (ayniqsa, qishloq maktablari) ancha past edi. Chunki, ko'klarga ko'tarib maqtalgan "rivojlangan sotsializm" bosqichi ham 20-30-yillarda shakllangan "qoldiq prinsipi"ning ijtimoiy oqibatlarini yo'qota olmagan edi. 1970-1980-yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11 %dan 8%ga kamayib ketdi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi maktablarning 20-60%i zarur o'quv jihozlari, asbob-anjomlar bilan jihozlanmay qolaverdi, 50%dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishi ayniqsa o'lda-jo'lda qoldi. 70-80-yillarda 1-8-sinf o'quvchilarining atigi 8-9%ini bunday guruhlarga jalb etilgan edi, xolos.

Umumta'lim maktablarining faoliyati asosan "rivojlangan sotsializm" g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni "kommunistik ruhda" tarbiyalashdan iborat bo'ldi. "Kommunistik tarbiya" dan ko'zlangan maqsad esa yoshlarni "proletar internatsionalizmi"ga, "katta og'aga" sodiqlik, sinfiylik, partiyaviylik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Milliylik esa o'zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Yevropa madaniyati, tarixi amalda baynalmilallik namunasi sifatida talqin etildi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meros, o'z ona tili, urf-odatlar bilan faxrlanish hissi shakllantirilmadi. Maktablarda ayniqsa ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning milliy urf-odatlarni o'rganishiga to'sqinlik qildi. Natijada, o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analarga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari ro'y bera boshladi. Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy hol bo'lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ishlariga ko'proq jalb qilinishi bilan izohlanadi. O'quv-yilining 3-4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo'lishiga ketar edi. Bu esa o'zbek o'quvchisini jahon

standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermasdi.

XX asrning 80-yillarida, jamiyatimizning barcha bo'g'inlarida qayta qurish keng quloq yozdi. Uning mazmunida hayotni demokratlashtirish, tezkor iqtisodiy islohot, ma'naviy poklanish milliy qadriyatlar va axloqiy g'oyalarning tiklanish muammolarini xal etish zaruriyati yuzaga keldi. Qayta qurishning xal qiluvchi bosqichida jamiyat uchun chetdan tomoshabin emas, balki mamlakat iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti rivojiga javobgar, ma'suliyatli, sog'lom fikrli goyaviy-siyosiy dunyoqarashi shakllangan shaxs zarur edi. Maktab o'z tabiatiga ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi, uni saqlovchi, insoniyat tomonidan to'plangan umuminsoniy ma'naviy boyliklarni avlod-dan-avlodga etkazib va boyituvchi muhim tarmoq hisoblanadi. Xalq maorifini quyi va yuqori bosqichlarini isloh qilish, qayta qurish talablariga jamiyatning har bir a'zosi qonuniy javobdir.

Jamiyatimizda hukm surayotgan maorif tizimining barcha bo'g'inlarida xuddi mana shu jamiyat taraqqiyoti talablari asosida yosh avlodning kamolotga etishi, bir butun shaxs sifatida shakllanishiga nihoyatda kam e'tibor berildi. Natijada umumiy ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya tizimi, mazmuni, shakl va metodlari davr talabiga, yosh avlodni har tomonlama shakllangan yaxlit shaxs sifatida shakllantirishga mos kelmay qoldi. Bu esa umumiy ta'lim va hunar maktablarini isloh qilishni taqozo etdi. "Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari" 1984-yilda sobiq KPSS Markaziy Komiteti tomonidan 10 aprelda va SSSR Oliy Soveti tomonidan 12 aprelda ma'qullandi. Islohotdan maqsad maktabdagi barcha ta'limiy, tarbiyaviy, tashkiliy ishlarni jamiyat talablariga, shart-sharoitlari va ehtiyojlari mos keladigan sifat darajasiga ko'tarishdan, shuningdek, ma'lumotli, e'tiqodli, jamiyatga, xalqqa sadoqatli, faol ijodkor, tashabbuskor, tadbirkor, oshkoralik sharoitida ishlay oladigan va yashay biladigan; o'z mamlakati, o'z milliy mustaqilligi, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti yo'lida kurasha oladigan kishilar etib tarbiyalashdan iborat edi. Aynan shu maqsadni xal etish islohot zimmasiga yuklatildi.

"Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari"da maktabning o'ziga xos xususiyatlari, umumiy o'rta va hunar ta'limning qurilishi, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishi, mehnat tarbiyasi, ta'limi, kasb tanlashga o'rgatish, bolalar va

o'smirlarni jamoat yo'li bilan va oilada tarbiyalash; o'qituvchi shaxsi; maorifning o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash; xalq-maorifini boshqarishni takomillashtirish kabi masalalar nazarda tutilgan edi. Asosiy yo'nalishlar asosida hozirgi zamon maktablarida ta'lim-tarbiya borasidagi kamchiliklar ko'rsatilgan bo'lib, buni bartaraf etish uchun esa maorif tuzilishini takomillashtirish, umumiy ta'lim, mehnat va kasb egallashga tayyorgarlik sifatini oshirish, ta'limning samarali shakllari, uslublaridan foydalanish, o'qitishning texnika vositalaridan kengroq foydalanish, ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash, maktab, oila va jaoatchilik birligini ta'minlash, o'quvchilar bilimini baholashda rasmiyatchilikka barham berish, son ketidan quvish hollariga chek qo'yish tadbirlarini amalga oshirish lozim edi.

Islohotda qayd etilgan umumiy o'rta va hunar ta'limi kurilishining asosiy mohiyati shunday iboratki, unda umumiy o'rta ta'lim o'n bir-yillikdir. 1-9 sinflar esa to'liqsiz o'rta va X-XI sinflar - barchasi umumta'lim maktabini tashkil kiladi. Shuningdek, o'rta hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari kabi nomlangan. Mazkur qurilishga binoan o'rta umumiy ta'lim maktablarida bolalarni olti yoshdan boshlab o'qitish nazarda tutiladi. Islohotda o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasi, kasbga yo'llash, politexnik ta'limning mazmun, shakl va metodlarini yanada kuchaytirish masalasi isloh qilingan maktablar oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi alohida uqtirilgan. Bu borada barcha mashg'ulotlarni 3 bosqichga bo'lish, ya'ni boshlang'ich maktab (1-1U sinflar), to'liqsiz o'rta maktab (U-1X sinflar), o'rta umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, mehnat ta'limi va kasbga o'rgatish yuzasidan dasturlar ishlab chiqish, ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni rivojlantirish, politexnik bilim, mahoratni shakllantirish tadbirlarini belgilash, mehnat tarbiyasini iqtisodiy tarbiya bilan birga qo'shib olib borish masalalariga ijodiy yondashish maqsadga muvofiqdir. O'quvchiga ta'lim-tarbiya berishning muhim bo'g'ini oila va jamoatchilikdir. Bola oila, jamoatchilik, muhit ta'sirida tarbiyaning muhim ajralmas qismlari hisoblanadigan g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalanib boradi. Shuningdek, bola shaxsini bir butun yaxlit shakllantirishda maktabdan tashqari muassasalarning ahamiyati juda katta. Islohot ta'lim-tarbiya berishning bu bo'g'inining ish mazmunini tubdan o'zgartirishni ham nazarda tutadi. Isloh

talablarini amaliyotga tatbiq etish uchun ta'lim-tarbiya maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim va tarbiya birligining namunaviy dasturini ishlab chiqish; darsdan tashqarida o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni va shaklini jiddiy qayta qurish; kuni uzaytirilgan guruhlar tuzishni ommalashtirish; maktabdan tashqari muassasalar - bolalar saroylari, uylari, yosh texniklar va tabiatshunoslar, sayyohlar stansiyalari, sport, musiqa, badiiy va xoreografiya maktablari, bolalar kutubxonalar, oromgohlar va shu kabilarni vujudga keltirish; istiqomat joylarida olib boriladigan xilma-xil ishlarga barcha o'quvchilarni jalb etishga erishish; bolalar tarbiyasida oilaning ma'suliyatini oshirish va g'oyat qisqa vaqt ichida shu muassasalarning moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash zarurligi uqtirildi.

Ta'limning mazmuniga aniqliklar kiritildi. O'quv dasturlari qaytadan tuzildi. O'quvchilarni ortiqcha ma'lumotlar bilan band etishdan, zeriktirishdan xalos etildi. Ta'limning shakllari va metodlari takomillashtirildi, ba'zi fanlardan o'quv darsliklari, metodik qo'llanmalar yaratildi, o'quv rejasiga "Atrof-muhit bilan tanishish" (1-2 sinflarda), "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari" (X-XI sinflarda), "Oila etikasi va psixologiyasi" (X-XI sinflarda), "Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash" (8-10 sinflarda) kabi fan asoslari kiritildi va o'qitildi, o'qituvchilar mehnatiga tabaqalashtirib halq to'lash joriy etildi. O'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalasida ijobiy siljishlar ro'y berdi, o'quvchilarni mehnat ta'limi va tarbiyasining mazmuni takomillashtirildi; hunar-texnika ta'limi tizimida ishchi xodimlar tayyorlash kengaytirildi; maorifning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasiga nisbatan jamoat tashkilotlarining munosabatlari birmuncha o'zgargandek tuyuldi. Biroq, bu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uyushtirish uchun etarli emas edi, albatta. Xullas kutilgan natijalarga erishilmadi. Shuni qayd etish zarurki, o'zbek maktablari to'ntarishdan so'ng milliy zamindan batamom uzilib qoldi. Qarsakbozchilik bilan o'qish-o'qitishda Yevropa, xususan rus tizimini qabul qildik. Ammo bizning avlodlarimiz ongiga, qoniga bu zo'rma-zo'rakilik singmadi. Buni bugungi hayot, turmush tarzi ko'rsatib turibdi. Eng achinarli hol shu ediki, ayniksa, o'ttan etmish-yil ichida mustabid tuzimning "Yangi" davr "bilimdon" va "zukko" tashkilotchilari ming-yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirib, kimlargadir yaxshi ko'rinqochi yoxud o'zini dono hisoblab shuhrat

qozonmoqchi bo'ldilarki, natijada maktablarimiz o'kuv-tarbiyaviy ishlarda ham hayotiy asoslar va xalq ruhiyatidan deyarli ajralib qoldi avlod-ajdodlarimizning dunyoviy-hayotiy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy xazinasini bo'lgan kitoblar esa umuman o'qitilmay, o'rgatilmay tashlab qo'yildi.

8.5. Akademik Siddiq Rajabov hamda Habib Abdullayevlarning Respublika xalq ta'limi, ilm va fan taraqqiyotini rivojlantirishdagi roli

Pedagogika fanlari doktori akademik Siddiq Rajabovning O'zbekiston respublikasi va jahon pedagogikasi fani rivojlantirishda unig xizmati katta. U pedagogika fanining eng muhim muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, respublikamiz xalq maorifining tarqqiyoti va bu taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlari, xalq maorifining rivojlanish istiqbollari, pedagogika fani metodologiyasi, yoshlar tarbiyasi va xalk pedagogikasiga doir ko'plab asarlar yaratdi. Siddiq Rajabov o'zining butun hayoti va faoliyatini pedagogika fani va ravnaki uchun bag'ishladi. U 1937-yili aspiranturani tamomlagach, O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish institutiga ilmiy xodim va Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasiga o'qituvchi qilib tayinlandi. Yosh olim ilmiy tadqiqot ishini pedagogik faoliyati bilan qo'shib olib bordi. Shu-yillarda S.Rajabov kechki pedagogika instituti direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari lavozimida ham yosh o'qituvchi sifatida mutaxassilar tayyorlashda katta faoliyat ko'rsatdi, o'z ishini puxta bilgan rahbar, etuk ilmiy xodim va mahoratli o'qituvchi sifatida elga tanildi. Yosh olim matbuotda tez-tez ilmiy, pedagogik, publitsistik maqolalari bilan chiqa boshladi. Jumladan, urushgacha bo'lgan davrda S.Rajabovning "Oliy pedagogika o'kuv yurtlarining ish sifatini yuqori ko'taraylik", "Oliy o'quv yurtlari xayotida muhim davr", "Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar", "Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlari", "Imtihonlarning yuqori sifati uchun kurashaylik" kabi ishlari matbuotda e'lon qilindi. Shu-yillarda u "XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherki" asarini yozib tamomladi. 1941-yilda ana shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini respublikada birinchi bo'lib

muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu orada u Respublika matbuoti va rahbariy idoralarida samarali mehnat qildi.

S.Rajabov 1947-yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasiga mudir qilib tayinlangandan keyin uning o'z ilmiy pedagogik faoliyatini yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratildi. 1958-yilda Siddiq Rajabovning ilmiy faoliyatida unitilmas voqea sodir bo'ldi. 1961-yilda Siddiq Rajabov O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutiga direktor qilib tayinlandi. Olim mazkur institutga olti-yil rahbarlik qildi. Institutni yuqori malakali mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini xayotga - maktab amaliyotiga yaqinlashtirish, pedagogik tadqiqotlarni respublika bo'iicha muvofiqashtirish ishlariga boshchilik qildi hamda tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo'iicha bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Institutda yangi sektorlar tuzildi. Sektorlar huzurida laboratoriyalar tashkil etildi. Sektor va laboratoriyalarga ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan tajriba va etarli malakaga ega bo'lgan xodimlar rahbarlik qila boshladilar.

Bu davrda olim pedagogika fanini chin qalbdan sevgan mutaxassislarni, ko'pgana iqtidorli yoshlarni o'z atrofiga chorladi. Yosh olimlarga hamisha yordam berib keldi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uning hayotiy e'tiqodi va turmushining mazmuniga aylanib ketdi. Shu bois 10 dan ortiq fan doktorlari, 200 ga yaqin fan nomzodlari bevosita Siddiq Rajabovning ilmiy maslahatchiligi va rahbarligi asosida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

1964-yilda S.Rajabovning ilmiy pedagogik faoliyatiga yuksak baxolandi, unga "Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni berildi. S.Rajabov 1966-1990-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, "Umumiy pedagogika" kafedrasining katta jamoasiga boshchilik qildi. U kafedra a'zolarining har biriga murabbiy, ustoz edi. Bugina emas, olim o'qituvchi mutaxassislar tayyorlash sohasida fidokorona mehnat qilayotgan hamkasblari - institutning etuk olimlari bilan bir qatorda o'rta va oliy ta'limga aloqador juda ko'p muammolarni hal qilishda xormay-tolmay faoliyat ko'rsatdi.

Professor SRajabovning Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutidagi chorak asrlik uzluksiz ilmiy-pedagogik faoliyati alohida muhim davr bo'ldi. U safdoshlari, kasbdoshlari va o'zi mudirlik

qilib turgan kafedra a'zolari, shogirdlari bilan hamkorlikda katta ilmiy va tashkiliy-pedagogik muammolarni hal qilishga alohida e'tibor berdi. Birinchi navbatda kafedrani yuqori malakali ilmiy-pedagogik xodimlar bilan ta'minlash, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar sifati va samaradorligini oshirish, qolaversa, kafedra jamoasining ilmiy va metodik saviyasini yuqori ko'tarish kabi masalalar hal qilina bordi. S.Rajabov kafedra yig'ilishlari, nazariy seminarlar, metodbirlashma yig'ilishlari suhbatlarda ana shu masalalarga alohida to'xtalardi.

S.Rajabov bu davrda juda ko'plab pedagogik muammolarni kafedra a'zolari va ilmiy jamoatchilik tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinishiga boshchilik qildi. Xususan, didaktika-ta'lim nazariyasi, xususiy metodika, tarbiya nazariyasi va metodikasi, shuningdek maktabshunoslikning dolzarb muammolariga aloqador asarlar yaratdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, olim bu davrda o'z ilmiy faoliyatini bir necha yo'nalishlarda olib bordi. Jumladan, pedagogika fanining metodologik muammolari, odob-ahloq va tarbiya masalalari, oliy ta'lim didaktikasi, pedagogika tarixini o'rganish va uning rivojlanish istiqbollarini tahlil etish masalalari ilmiy faoliyatida markaziy o'rin tutdi. 1977-yili may oyida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti huzuridagi fan nomzodi ilmiy darajalari beradigan ixtisoslashtirilgan kengash tashkil etildi. Bir oz vakt o'tgach pedagogika tarixi bo'yicha fan doktori ilmiy darajalari beradigan yana shunday kengash tashkil etildi. Mazkur kengashlarga pedagogika sohasida ishlayotgan mutaxassis olimlar jalb etildi. Akademik S.Rajabov bu kengashlarga raislik qildi, shuningdek ular faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlashga katta hissa qo'shdi.

S.Rajabov respublikamizda pedagogika fanlari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni muvofiklashtirishni jamoatchilik asosida olib bordi. U O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi pedagogika fanlari ilmiy kengashining a'zosi va pedagogika Fanlari ilmiy-metodik seksiyasi ishini uzoq-yillar davomida boshqargan edi. Olim rahbarlik qilgan ilmiy metodik seksiya respublikamiz oliy o'quv yurtlarida pedagogika bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot mavzui va mazmunini hayotga - maktablarimiz amaliyotiga yaqinlashtirish masalasiga alohida e'tibor bergan edi. Olim 1945-yildan "Xalq ta'limi" jurnali tahrir hay'ati a'zosi edi. U O'zbek Qomusi bosh tahrir xay'atining a'zosi va

pedagogika fanlari seksiyasining raisi sifatida pedagogika, psixologiya va umuman pedagogika turkumidagi fanlarning muhim masalalarini yoritishda ham muallif, ham tashkilotchi sifatida katta hissa qo'shib keldi.

Respublikamiz fanini rivojlantirishga beqiyos kattahxisa qo'shgan olimlarimizdan yana biri akademik Habib Abdullayevdir. Uning geologiya, jumladan, bu fanning petrologiya-metallogenik tarmog'i sohasidagi tadqiqotlari O'zbekistondagina emas, chet mamlakatlarda ham e'tarof etildi. H.Abdullayev 1956-1962-yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining prezidenti lavozimida xizmat qilish bilan birga, yirik ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Yuqori malakali ilmiy xodimlar tayyorlashga aloxida e'tibor berdi. Uning tashabbusi va jonkuyarligi bilan tayyorlangan yuzlab fan nomzodlari va doktorlari fanning yangi yo'nalishlariga asos soldilar. Shuni ta'kidlash lozimki, XX asr 2 yarmida O'zbekiston Fanlari Akademiyasi olimlari fizika-matematika, mexanika, boshqaruv jarayonlari va informatika, kimyo-texnologiya, tuproqshunoslik, biologiya, ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bu yutuqlar akademiya laboratoriyalari va institutlari olimlarining ko'plab avlodlari fidokorona va yuqori kasbiy darajada olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasi bo'ldi. Aynan ularning mehnati tufayli keng e'tirof etilgan ilmiy maktablar vujudga keldi, yangi ilmiy yo'nalishlar rivoj topdi, ko'plab ilmiy xodimlar tayyorlandi, ilmiy ishlovlar amaliyotga tadbiiq etildi. O'zbek olimlari: geologlar Habib Abdullayev, Ibrohim Hamroboyev, biokimyogar Yolqin To'raqulov, kimyogarlar Obid Sodiqov, N.Nabiyev, Sobir Yunusov, fizik va matematiklar T.N.Kori-Niyoziy, Toshmuxammad Sarimsaqov, Ubay Oripov, texnika fanlari sohasidagi olimlar Muhammad O'rozboyev, Vosit Qobulov, faylasuf Ibroxim Mo'minov, tarixchi Yaxyo G'ulomov, pedagog Siddiq Rajabov, Iminjon Qodirov va boshqa ko'plab olimlarning nomlari O'zbekistondan tashqarida ham shuhrat qozondi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonda 1917-1924-yillardagi madaniy-ma'naviy muhit xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?
2. Milliy ziyolilarning maktab-maorif tizimini isloh qilishdagi say'i-harakatlari sharhlab bering.

3. Mazkur davrda mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda xalk ta'limi jarayonidagi ziddiyatli muammolar haqida fikringiz.

4. 1917-1924-yillarda yaratilgan darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari mohiyatini tushuntiring.

5. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda xalq ta'limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni qay ahvolda edi?

6. O'zbekistonda qachon majburiy etti-yillik ta'lim amalga oshirildi?

7. Sakkiz-yillik majburiy ta'limga qachon o'tildi?

8. Fan, madaniyat, maorif sohalarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar haqida fikr bildiring.

9. Ikkinchi jahon urushidan so'ng oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasining holati haqida fikr bildiring.

10. XX asrning 70--yillaridagi xalq ta'lim tizimini sharhlab bering.

11. Umumiy ta'lim va hunar maktablarini isloh qilish, uning natijalari.

12. Siddiq Rajabov xamda Habib Abdullayevlar faoliyatiga tavsif bering .

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998.

2. Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: Sharq, 1999.

3. Nurmatov S. Ustoz olim, murabbiy. - T.: O'qituvchi, 1980.

4. Pedagogika fani ravnaki yo'lida. //Prof. K. Hoshimov umumiy tahriri ostida. -T.: Fan, 1995.

5. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo'llanma II qism. -T.: TDPU, 2002.

6. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. - T.: O'qituvchi, 1997.

7. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'kituvchi, 1996.

8. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: "Milliy kutubxona", 2006.

9. O'zbekistonning yangi tarixi. - T.: Sharq, 2000.

10. Yo'ldoshev J. Ta'limimiz istiqlol yo'lida. -T.:Shark, 1996.

IX BO'LIM. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA TA'LIM VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

Reja:

1. Mustakillik va ta'lim tizimida islohotlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. Mustakillik-yillarida pedagogik fikr taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: mustaqillik, ta'lim tizimida islohotlar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", ta'lim tizimi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, pedagogik texnologiya, milliy istiqloq mafkurasi.

9.1. Mustaqillik va ta'lim tizimida islohotlar

Mustaqillik e'lon qilingan (1991-yil 1 sentyabr) dastlabki-yillarda-noq O'zbekiston hukumati ta'limga ustivor soha sifatida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo'lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonuniylashtirilgan. Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir.

Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamiz hukumati xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish vazifasini qo'ydi. Jamiyatni ma'naviy yangilashda avvalo ta'lim tizimini isloh qilishni va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib ta'lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi.

Respublikamiz bugungi kunda tubdan yangi davlat bo'lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi islohotlar ham yangi ta'lim

tizimida bosqichma-bosqich olib borishni nazarda tutadi. Zero, ta'lim sohasidagi islohotlar ham yangi bosqichma-bosqich o'tish tamoyiliga asoslangandir. "Kadrlar tayyorlash milliy dastur" ham uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi bo'lib hisoblanadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, u ijodiy va mustakil fikrlovchi, tafakkuri rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirish bilan barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash bilan ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustakillikning dastlabki-yillaridanok boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, uni zamon talablariga jabob bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko'tarish maqsadiga e'tibor berib borilmoqda.

Lekin hozirgi davrda amalga oshirilgan barcha ishlarga qaramay ta'lim tizimi hali hayot talabi darajasida natijalarga erishmayotgani, eski Sho'ro zamonidan meros bo'lib qolgan mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xalos bo'la olmagan, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish muammolari to'liq hal etilmagan va nihoyat, amaldagi ta'lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar darajasida rivojlana olmaganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularga bilim va tarbiya berish tizimi mamlakatimizda amalga oshayotgan islohotlar bilan bog'lanmagan, maktablarning moddiy bazasi talabga javob bera olmayotgani, kadrlar, o'qituvchilar tayyorlash muammosi hali hal etilmagan ma'lum bo'ldi. O'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklar ham talabga javob bera olmayotganini hayotning o'zi ko'rsatdi.

Shu maqsadda 2020-yil 19 mayda Qonunchilik palatasi tomonidan yangi tahrirdagi "Ta'ldim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi; ushbu Qonun 2020-yil 7 avgustda Senat tomonidan ma'qullandi hamda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 23 sentyabr kuni imzolandi (O'RQ-637).

9.2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (yangi tahrirdagi)

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va tarbiya fuqarolar kasbii tayyorgarligi va har bir fuqaroning ilm olish konstitutsion huquqini ta'minlash kabi qator dolzarb vazifalarni belgilab beradi. Yangi tahrirdagi "Ta'lim

to'g'risida"gi qonun 11 bob, 75 moddadan iborat.

Qonunning 1-bobida **"Umumiy qoidalar"** deb nomlanadi va unda: ushbu Qonunning maqsadi; ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari; qonunning asosiy tushunchalari; ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar; fuqarolarning ta'lim olish huquqi kabilar modda sifatida kiritilgan.

Qonunning 2-bobi **"Ta'lim tizimi, turlari va shakllari"** deb nomlanadi va unda: ta'lim tizimi; ta'lim turlari; maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim; ta'lim olish shakllari; masofaviy ta'lim; dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim; katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibdagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash kabi moddalarni qamrab olgan.

Qonunning 3-bobi **"Ta'lim tizimini boshqarish"** deb nomlangan va unda: O'zR VMning ta'lim sohasidagi vakolatlari; O'zR VM huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlari; O'zR VM huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablarni rivojlantirish agentligining ta'lim sohasidagi vakolatlari; ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari; ta'lim toshkilotini boshqarish kabi moddalarni o'z ichiga oladi.

Qonunning 4-bobi **"Ta'lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish"** deb nomlanadi va unda: ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi; ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish; nodavlat ta'lim tashkilotlari; ta'lim tashkilotining ustavi; ta'lim berish tili; DTS va davlat talablari; ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish; ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat; ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi; ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish; davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish; ta'lim to'g'risidagi hujjat; ta'lim tashkilotining reytingi; ta'lim tizimidagi monitoring; ta'lim sohasidagi davlat nazorati kabi moddalar kiritilgan.

Qonunning 5-bobi **"Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi"** deb nomlanib, unda: pedagogik faoliyat bilan

shugʻullanish huquqi; pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari; pedagog xodimlarning majburiyatlari kabi moddalar oʻz aksini topgan.

Qonunning 6-bobi **“Taʼlim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarning huquq va majburiyatlari”** deb nomlangan va unda: taʼlim oluvchilarning huquqlari; taʼlim oluvchilarning majburiyatlari; taʼlim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qoʻyladigan talablar; taʼlim tashkilotlarida taʼlim oluvchini vaqtincha yashash joylari bilan taʼminlash; voyaga etmagan taʼlim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarning huquq va majburiyatlari kabilar yoritilgan.

Qonunning 7-bobi **“Taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish”** deb nomlanagan, unda: taʼlim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish; taʼlim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish; etim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarning qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oʻqitish va ularning toʻliq taʼminoti; jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalarni (shaxslarni) oʻqitish hamda tarbiyalash; ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj boʻlgan bolalarni (shaxslarni) oʻqitish va tarbiyalash kabi moddalardan iborat maʼlumotlar keltirilgan.

Qonunning 8-bobi **“Nodavlat taʼlim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, taʼlim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan oʻtkazish. Xorijiy davlatlarda olingan taʼlim toʻgʻrisidagi hujjatni tan olish, taʼlim sohasidagi hujjatlarga apostil qoʻyish”** deb nomlanib, unda: nodavlat taʼlim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash; taʼlim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan oʻtkazish; taʼlim tashkilotlarining faoliyatini ichki va tashqi baholashdan oʻtkazish; xorijiy davlatda olingan taʼlim toʻgʻrisidagi hujjatni tan olish; taʼlim sohasidagi rasmiy hujjatga apostil qoʻyish kabi moddalar oʻz aksini topgan.

Qonunning 9-bobi **“Taʼlimni moliyalashtirish va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash”** deb nomlanib, unga taʼlim tashkilotlarini moliyalashtirish; taʼlimni rivojlantirish jamgʻarmalari; taʼlim sohasidagi davlat-xususiy sharikchilik; taʼlim sohasiga investitsiyalarni jalb etish; taʼlim tashkilotlarining mol-mulki kabilar kiradi.

Qonunning 10-bobi **“Taʼlim sohasidagi xalqaro hamkorlik”** boʻlib, unda: taʼlim tashkilotlarining xalqaro hamkorligi; taʼlim sohasidagi

xalqaro hamkorlik; xorijda ta'lim olish kabi moddalarga o'rin berilgan.

Qonunning 11-bobi "**Yakunlovchi qoidalar**" o'zida: nizolarni hal etish; ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik; O'zR ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish; ushbu Qonunning ijrosini, etkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash; qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish; ushbu Qonunning kuchga kirish kabi moddalarga o'rin berilgan.

9.2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasida quyidagi uzluksiz ta'lim tizimi asos qilib olingan. Bola shaxsini sog'lom va etuk o'qishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Mazkur ta'lim tizimi (3-modda):

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini;

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini;

- ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalarini;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida **ta'lim turlari** (7-modda) quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

- professional ta'lim;

- oliy ta'lim;

- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya (8-modda). Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek

bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi bo'lib, olti yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir-yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim (9-modda). Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X-XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining birinchi sinfiga bolalar etti yoshga to'ladigan-yilida qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettiriy uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, ko'nikma va malakalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta umumiy o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda majburiy bo'lgan o'n bir-yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz-yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki-yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun

Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarda) ta'lim oluvchilar soni **o'ttiz besh nafardan** oshmasligi kerak.

Professional ta'lim (10-modda). Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;

- o'rta professional ta'lim;

- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki-yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki-yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki-yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim (11-modda). Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir-yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz-yillik tayanch o'rta va ikki-yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz-yillik tayanch o'rta va ikki-yillik boshlang'ich professional

ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirgunga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz-yillik umumiy o'rta va uch-yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch-yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizida aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir-yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (12-modda). Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophie (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'liman keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'liman keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

(13-modda). Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talabalari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim (14-modda). Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishlaridagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etish mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim olish shakllari (15-modda). Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Masofaviy ta'lim (-16-modda). Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va

o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Masofaviy ta’limni tashkil etish O‘zR MV tomonidan belgilanadi.

Dual ta’lim (17-modda). Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur BKMni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta’limni tashkil etish O‘zR VM tomonidan belgilanadi.

Shuningdek ushbu bobda “Oiladi ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish” (18-modda); “Katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish” (19-modda); “Inklyuziv ta’lim (20-modda); “Eksternat tartibdagi ta’lim” (21-modda); “Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash” (22-modda) kabilar o‘rin olgan.

Hozirgi paytda Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, Jizzax, Qo‘qon, Navoiy, Nukus davlat pedagogika institutlari yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta’lim sohasi bo‘yicha Davlat ilmiy-texnikaviy dasturlarining ijrochilari hisoblanadilar.

Hozirgi davrda, O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti strategiyasi, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish yo‘lidagi ezgu orzu-umidlarini, milliy istiqlool mafkurasining asl mohiyatini yoshlar qalbiga va ongiga singdirish jarayoni kechayotgan bir davrda bu muhim ishni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun asosida uzluksiz tarzda olib borishni taqozo etadi. Zero, istiqlool mafkurasi hur fikrlilik va jur‘atsizlikdan holi bo‘lgan, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Respublikamizda mustaqillik e‘lon qilingandan so‘ng ta’lim sohasida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

2. Ta’lim sohasidagi islxotlarning mohiyati nimadan iborat edi ?

3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020-yil), O‘RQ – 637) qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida ta’lim tizimida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

4. Respublikamizda ta'lim tizimi qachon tuzilgan?
5. Mustaqillik-yillarida pedagogika fani taraqqiyoti haqida so'zlab bering.
6. Yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini qanday singdirish mumkin?

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq, 1997.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi -xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi muhbiri savollariga javoblar. –Toshkent: O'zbekiston, 2000.
4. Barkamol avlod orzusi.- Toshkent: Shark, 1999.
5. Mustakil O'zbekiston ta'limi. –Toshkent: Sharq, 1997.
6. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo'llanma II qism (tuz. S.Nishonova, B.Hasanova). - T.: TDPU, 2002.
7. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. . Pedagogika tarixi. - T.: O'qituvchi, 1997.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R., Pedagogika tarixi. –T.: O'kituvchi, 1996.
9. Hoshimov K., Nishonova S Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: MK, 2006.

X. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVİY-ESTETIK TARBIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari.
2. Ma’naviy taraqqiyot to‘g‘risida respublikada olib borilayotgan davlat siyosati.

Tayanch so‘z va iboralar: bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash, pedagogik texnologiyalar, “estetiklik”, “estetik qadriyat”, “estetik tarbiya”, “estetik madaniyat”, “ma’naviyat”, “ma’naviy-estetik tarbiya”, “badiiy meros”, “badiiy qadriyat”, “milliy-badiiy qadriyatlar”, badiiy meros, milliy g‘oya, kompetensiyaviy yondashuv.

10.1. Ma’naviyat va ma’naviy taraqqiyot to‘g‘risidagi davlat ta’lim siyosati

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi-yillarda bir-biridan muhim va unitilmas voqealar yuz bermoqda. Mamalakatimiz Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish uchun Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni negizida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va uning asosida Haraktalar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari-yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturlari qabul qilindi. Dasturlar doirasida Respublikani rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-mintaqaviy faoliyat bo‘yicha keng qo‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu kabi ishlarning barchasi, avvalo davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mamlakatimizning o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lidan yangi davrga qadam qo‘yganidan, uzoq va davomli maqsadlarni ko‘zlaganligidan, qat’iyat bilan ilgarilab borayotganligidan darak bermoqda. Bugungi kunda bu haqiqatni nafaqat respublikamiz, balki jahon hamjamiyatining nufuzli olim va mutaxassislari hamda siyosatshunoslar ham e’tirof etmoqdalar.

Ma’lumki, O‘zbekiston o‘zining mustaqilligini e’lon qilgan kundan

boshlab ma'naviyat, ma'naviy tarbiyaga e'tiborini kuchaytirdi, bunda, albatta, birinchi prezident I.A.Karimovning hissasi katta bo'ldi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ta'lim va tarbiyaning ma'naviy asoslarga e'tibor kuchaytirildi. Birinchi Prezident davlat siyosatini milliy ma'naviyatni takomillashtirish asosda qurishni: "Davlat - ma'naviy hayot, eng yaxshi milliy fazilatlarini tarbiyalash sohasidagi bosh islohotchi va biz ma'naviy rivojlanish yo'nalishini tegishli qonunlar asosiga qo'yishimiz kerak" [18, 47], deya taklif qildi. Birinchi Prezidentning ta'kidlashicha, ijtimoiy platforma ma'naviy yuksalishga bog'liq: "Biz iqtisodiy tiklanishlarning ma'naviy takomillashish, ruhiy poklanishlarga to'liq mos kelishini istaymiz" [14, 43].

Birinchi Prezidentning bir qator asarlari xalqni, jamiyatni, mamlakatni ma'naviy tiklantirish g'oyasiga bag'ishlagan: "Buyuk kelajak - bu xalqning yuksak ma'naviyati", "Iqtisodiyot va ma'naviyat", "Mustaqillik va ma'naviyat", "Ma'naviy tiklanish yo'lida" [23; 14; 19] va boshqalar. Shu munosabat bilan Prezident "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida barkamol, sog'lom avlodni - O'zbekiston taraqqiyotining asosi deb bildi va unda mamlakatimiz kelajagini ko'ra oldi [23]. Prezident jamiyat taraqqiyoti va kelajagimiz uchun yoshlarni ma'naviy tarbiyalashga munosabatni o'zgartirish lozimligini ta'kidlaydi, chunki "taraqqiyotni ma'nan rivojlangan odamlar ta'minlaydi" [18, 42]; "Maqsadlarimizga erishish, yangi jamiyat qurish, siyosat, iqtisodiyot va ma'naviy sohadagi islohotlar taqdiri yosh avlodga bog'liq" [18, 46]; "... kelajak bugun boshlanadi. Agar biz yosh avlodni tarbiyalash masalalariga e'tibor bermasak, unda biz kelajakni yo'qotamiz" [24 13], bu yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga ham taalluqli. I.A. Karimov - ta'lim va tarbiyani rivojlantirish va yangilash uchun: "Hayot davom etar ekan, ta'lim va tarbiya zamon talablariga muvofiq ravishda izchil rivojlanib boraveradi" [26, 25], avvalambor milliy tiklanish g'oyasi "davlat faoliyatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak" [24]. Prezident milliy g'oya, mafkura "asrlar va ming-yilliklar davomida shakllangan xalqimizning muqaddas urf-odatlarini va intilishlarining o'ziga xosligini aks ettiruvchi yuksak maqsad va vazifalarni, shu jumladan ma'naviy maqsadlarni qamrab olishini" ta'kidlaydi [26, 13]. Va u yangi avlod ma'naviy merosi, milliy ma'naviyat tarbiyasidan

foydalanish zarurligini ta'kidlaydi: "Yuksak ma'naviyat - kelajak poydevori" [21, 41]. Prezidentimiz xalqimizning poydevori sanalmish - ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros, bu bebaho boylikni, bu xazinani oqilona ishlatishimiz, ota-bobolarimiz, ajdod-larimizga sodiq qolishimiz va ularning merosiga munosib bo'lishimiz kerakligi haqida gapiradi. Prezident bizning ma'naviy poydevorimiz, chuqur ildizlarimiz ularga mos keladigan mustaqillik qurilishini barpo etishimizga imkon berayotganini, Qodir Tangri har kimga shunday kuchli ruhiy kuch, bunday meros bermasligini, bu Ollohning millatimizga bergan haqiqiy barakasi ekanligini eslatib o'tadi.

Prezident zamonaviy avlodni o'zbek xalqining ma'naviy merosi asosida, birinchi navbatda, xalqning boy ma'naviy dunyosi, donoligi, axloqiy, estetik madaniyati, ijodiy-ijdkorlik qobiliyati, milliy ruhrini aks ettiruvchi tarixiy-madaniy, ayniqsa madaniy, axloqiy, ma'naviy estetikaga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. I.A. Karimov "yoshlarni o'qitish va tarbiyalash usullariga, ularning ta'lim va kasbiy darajalariga g'amxo'rlik qilish" muqaddas burch ekanligini, "darsliklar va o'quv qo'llanmalarini milliy ma'naviyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqish zarurligini" eslatadi [21, 49]. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash dasturlariga o'zgarishlar kiritish, ayniqsa yangi pedagog kadrlarni ma'naviy-estetik tarbiyalash jarayonida estetik madaniyatni takomillashtirish zarur. Ma'naviy-estetik tarbiyalashga ehtiyoj etilib kelmoqda, faqatgina ma'naviy-estetik bilimli odam milliy-estetik qadriyatlarni qadrlashi mumkin, faqat ma'naviy-estetik bilimli o'qituvchi boy ma'naviy-estetik dunyoga ega bo'lgan talaba shaxsini shakllantirishi mumkin.

Yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlash vazifasi, shu jumladan ma'naviy-estetik tarbiyalash, milliy g'oyani amalga oshirishga yordam beradi.

Ma'lumki, ma'naviy poklanish umuminsoniy ma'naviyatni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat quyidagilarni: ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish; ijtimoiy va didaktik taraqqiyot; falsafiy-pedagogik taraqqiyot; diniy ta'lim; milliy axloq normalariga bo'ysunish; ilmiy ta'lim; qarashlar pokligi va tafakkur ravshanligi; milliy tamoyillarga hurmat; vatanparvarlik, xayrixohlik, millatchilik, adolat tuyg'ulari; fidoyilik, mardlik, jasorat, tashabbuskorlik; mamlakat va xalq mustaqilligini himoya qilishga va ularga xizmat qilishga tayyorlik; huquqiy qat'iylik va benuqsonlik; islom

diniga ishonch; ajdodlar va ularning merosiga hurmatni shakllantiradi. Ushbu konseptual yoʻnalishlar maʼnaviy taʼlimning metodologik asosiga aylanishi kerak. Bu maʼnaviy taʼlimning asosiy yoʻnalishlarini belgilaydi: maʼnaviy taʼlimning tarixiy ildizlarini oʻrganishga alohida eʼtibor qaratishni taqozo qiladi (milliy maʼnaviyat talab qilganidek).

Maʼnaviyat milliy xususiyatlar va quyidagi tarkibiy qismlarga boʻlinadi: “madaniy-maʼrifiy yuksalish; ijtimoiy-didaktik rivojlanish; falsafiy-pedagogik taraqqiyot; qatʼiy ishonch; milliy axloq, odob-axloq meʼyorlariga toʻliq muvofiqliq; insonda yuqori axloqiy fazilatlarni chuqur shakllantirish: insonparvarlik, vatanparvarlik, xayrixohlik, adolat tuygʻusi, milliy qadriyatlarni sevish, oʻzini qurbon qilish, jasorat, tashabbuskorlik, poklanish; islomga ishonch bilan munosabatda boʻlish, har doim vatan va xalq mustaqilligini himoya qilishga tayyorlik va ularga sadoqat; ajdodlarga, ularning merosiga va shu kabilarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda boʻlish. Nazarimizda, milliy maʼnaviyatning asosiy vazifasi, uning asosiy mohiyati va tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: birinchidan, islohotlarning hozirgi bosqichida, maʼnaviy-axloqiy jihatdan etuk shaxslarni tarbiyalashga eʼtiborni yanada kuchaytirish; ikkinchidan, halollik, axloq va poklik xalq xoʻjaligining barcha sohalarida toʻliq yutuqqa erishish; uchinchidan, milliy qadriyatlarni toʻla tiklash va shu asosda milliy gʻurur hissini shakllantirish.

Milliy gʻurur milliy ishonch bilan bogʻliqdir. Quyidagi milliy eʼtiqodlar nazarda tutilgan: doʻstlik va ijtimoiy hamjihatlikda yashash va ishlash; kattalarni hurmat qilish, kichiklarga gʻamxoʻrlik qilish, vatanni sevish; ota-onanalarni hurmat qilish va ota-ona oldidagi burchni bajarish; oila va bolalarga gʻamxoʻrlik qilish; millat ajratmaslik; hashar anʼanalarini davom ettirish va koʻpaytirish (baʼzi bir ishlarda begʻaraz yordam); ota-onalarning urf-odatlariga sodiq qolish, mehnatsevarlikni namoyon etish; doimiy ravishda bilimga ega boʻlish; islom diniga hurmatni saqlash; ichki va tashqi siyosatni mustahkamlashga hissa qoʻshish; maʼnaviy-axloqiy marosimlarning rivojlanishi va shakllanishiga taʼsir koʻrsatish va ularga rioya qilish; milliy madaniyatlarni rivojlantirish; milliy-axloqiy anʼana normalariga rioya qilish; Vatan va xalqlar tarixini hurmat qilish; yoshlarni oʻqitish va tarbiyalashga alohida eʼtibor berish, uning rivojlanishiga gʻamxoʻrlik qilish va hokazolar. Ushbu eʼtiqodlarni odamlar va ayniqsa yosh avlod ongiga singdirish mustaqillik uchun sharoit yaratib beradi va mustaqillik ruhini tarbiyalashga yordam beradi.

Bu yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berishga, uning rivojlanishi - milliy madaniyat asosida amalga oshirilayotgan milliy e'tiqod yo'nalishi bo'yicha g'amxo'rlik qilishga chorlaydi.

O'zbek xalqi tarbiya sohasida boy ma'naviy merosiga ega: mashhur "Avesta" ta'limiy qarashlar va yo'nalishlarni o'zida ifoda etgan, "Qur'on" musulmonlarning hayotida, ularni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydigan ma'naviyatni aks ettirgan, ruhiy tamoyillarda ifodalangan. Muqaddas Hadis, shu jumladan ta'lim nuqtai nazaridan musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'on" - ma'naviyat manbai hisoblanadi.

Ma'naviy tarbiyada tarbiya tarixiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega: tarbiyaning har qanday sohasida, buyuk ajdodlarimizning tarbiyalash tarixi, tajribasi va didaktik-axloqiy, aforistik bayonlarini o'rganish keyingi vazifalarni hal etishda beqiyos rol o'ynaydi, chunki ma'naviyat va axloq tarixi kelajak avlod uchun mash'aldir. O'z asarlarini ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlagan buyuk ajdodlarimiz: Abu Abdullo Mu'hammad ibn Muso al Xorazmiy (780-850), imom Buxoriy (810-870), Ahmad ibn Xambari al Marvasiy (780-855), imom at Termiziy (824-892), Abu Nasr Forobiy (870-930), Abu Rayxon Beruniy (970-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Hojib, Xoja Ahmad Yassaviy (1044-taxminan 1166-1170), az Zamaxshariy (1070-1143), Shayx Najmitdin Kubro (1145-1221), Paxlavon Mahmud (1247-1326), Alisher Navoiy (1141-1501), Ogohiy (1809-1914) va boshqalar. Shuningdek, XIX asr - XX asr boshlarida yashagan va ishlagan olimlar - Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat shular jumlasidandir.

I.A.Karimovning asarlari va nutqlarida milliy ma'naviyatni tarbiyalash asoslari ifodalangan. Uning pedagogik g'oyalarini o'quv jarayonida, o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalashda qo'llashning maqbul usullari va shakllarini, tizimlarini ishlab chiqish talabalarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish mazmuni, tuzilishi va jarayonini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va ilmiy-pedagogik asoslarini boyitadi, pedagogika fanida yangi ma'naviy va ilmiy yo'nalishni - milliy ma'naviylikni milliy, umuminsoniy qadriyatlar asosida qayta tiklashning ma'naviy tizimi yaratiladi.

I.A. Karimov milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirishga e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi, shu bois milliy tamoyillar qayta tiklandi va hayotga tatbiq etildi, ma'naviy-madaniy meros o'rganildi,

milliy bayramlar nishonlanmoqda, ma'naviyatni rivojlantirish borasidagi ishlar jonlantirildi, ma'naviyat markazlari tashkil qilindi va boshqalar. Shu jumladan, oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jonlantirildi, ta'limning barcha tuzilmalarida ma'naviyat-ma'rifat darslari o'tkazilmoqda. Xuddi shu kabi ishlar respublika telera-dioyeshittirishlariga olib borildi. I.A. Karimovning ma'naviyat, milliy ma'naviyat haqidagi g'oyalari rivojlantirilib, takomillashtirildi.

I.A. Karimovning zamonaviy yoshlarning ma'naviyati, ma'naviy tarbiyasiga bag'ishlangan asarlaridan, o'qituvchi-pedagoglar uchun izohlaridan kelib chiqib, tadqiqotlarimizning nazariy, uslubiy va ilmiy-pedagogik pozitsiyalarni aniqlab oldik:

- insonda yuksak ma'naviy madaniyatni hurmat qilish;
- milliy-umumestetik qadriyatlar asosida insonlar ma'naviyatini tiklash maqsadida bilim olayotgan yoshlarni ma'naviy tarbiyalash;
- xalqning ma'naviy-madaniy merosini milliylik omiliga ustuvorlik berish orqali ma'naviy tarbiyalash;
- ma'naviy-ma'rifiy jarayonda zamonaviy yoshlarning shaxsini shakllantirish va takomillashtirish, uning har tomonlama va barkamol rivojlantirish;
- xalqning ma'naviy merosidan foydalanish orqali milliy uyg'onish g'oyasi bo'yicha ta'lim-tarbiyani rivojlantirish va yangilash;
- ta'lim tizimidagi tarbiya omilini yuqori professional darajada kuchaytirish – pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimiga o'zgartirishlar kiritish, ularni ma'naviy-estetik tarbiyalash jarayonida xalqning boy ma'naviy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlaridan ma'naviy madaniyatini takomillashtirishda foydalanish;
- ma'naviyat tarbiyasining barcha qirralarini yoritish;
- milliy ma'naviyat xususiyatlarini tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish;
- munosib ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash maqsadida milliy-umumestetik qadriyatlar asosida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni mustahkamlash;
- milliy g'urur va milliy ishonch tuyg'usini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi [23] zamonaviy kadrlar tayyorlashning milliy modeli bo'lib, ushbu dasturni amalga oshirishning maqsadi va vazifalarini belgilaydi, bu yuqori ma'naviyatli, yuqori

malakali kadrlarning yangi avlodini tayyorlashga qaratilgan muhim hujjat sanaladi.

Milliy dasturning tarkibiy qismlari va funksiyalari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Shaxs ko'p qirrali bo'lib, intellektual salohiyatga ega va umr bo'yi ta'lim jarayonida ruhan tarbiyalangan, kasbiy ta'lim va tegishli malaka darajasiga ega bo'lib, jamiyat va mamlakat manfaati uchun muayyan ishlab chiqarishda potensial ishtirokchi sifatida qatnashadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy ta'limning yuqori qadriyatlari orqali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular zamonaviy jamiyat quruvchisi - zamonaviy mukammal shaxsini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim qadriyatlariga xalqning boy madaniy-tarixiy an'analari, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy boyliklari ham kiradi. Ushbu qadriyatlar madaniy, ma'rifiy va ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni hal qilish uchun ta'lim mazmuniga kiritilgan. Ta'limning barcha tuzilmalarida o'quv jarayonidagi tarbiyaning ustuvorligi kengayib bormoqda. "Tarbiyalash, keng ma'noda, ijtimoiy va madaniy tajribani avloddan-avlodga etkazish va shaxsni rivojlantirish uchun sharoit yaratish jarayonidir" [87, 85].

Milliy-ma'naviy tarbiyalash - bu ma'lum milliy-madaniy bilimlarning yig'indisi, yuqori milliy fazilatlarni tarbiyalovchi - ta'lim jarayonining maqsadi va natijasi sifatida ifodalanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi aynan shunday yo'nalishga, shunday ta'limning qadriyatlariga qaratilgan. Shuningdek, o'quv jarayonida shaxs, uning individualligi, qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlari, qadriyatli yo'nalishlari va shaxsiy tajribasi, bilim va ta'lim faoliyatida o'zini namoyon qilish imkoniyatlariga (pedagogik hamkorlik va ijodiy o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda) qaratilgan.

Milliy dastur nafaqat talabalarning qobiliyati va iqtidorini ochib berishga, balki xalqning yuksak madaniy-tarixiy merosiga asoslangan milliy va umumbashariy g'oyalar va qadriyatlarni o'zlashtirishga qaratilgan. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi talabalarning ma'naviy tarbiyasi va rivojlanishining ustuvorligini talab qiladi. Milliy dastur, shuningdek, ushbu imkoniyatni ta'lim tizimiga - eng yuqori milliy-umumbashariy qadriyatlarni inobatga olgan holda izchil o'z ichiga oladi. Xalqning ma'naviy, madaniy, axloqiy-estetik merosi, shuningdek,

umuminsoniy qadriyatlar barcha o'quv va kasbiy dasturlarda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi strategiyasida ta'lim omili qayta ko'rib chiqilmoqda, asosiy e'tibor ma'naviy-axloqiy va, albatta, ma'naviy-estetik tarbiyaga, shuningdek ushbu ta'limning ijodiy-innovatsion yondashuvi, tarbiyaning qadriyatli-shaxsiy mezonlariga qaratiladi. Shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogika fani milliy-madaniy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Kadrlar tayyorlashda bu juda muhim vazifaga aylanadi. Shu bilan birga, davlat milliy-umuminsoniy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash va o'qitishning kafolati bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda fan muhim rol o'ynaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun tadqiqotlar olib borilmoqda, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifati yaxshilanmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida o'quv jarayonini metodik ta'minlash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq, ma'naviy tarbiya sohasi hozirgacha faqat ma'naviy-axloqiy omil bilan cheklangan. Shunga qaramay, milliy pedagogikamizda ma'lum bir jonlanish kuzatilmoqda. Tadqiqotlarda ma'naviyat muammosi, ma'naviy-axloqiy tarbiya tomonlarini kengaytirish, shu jumladan milliy qadriyatlar, o'zbek xalqining badiiy-estetik merosiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bular A.Abdunabiyev, A.Azizxonov, Sh.Qurbonov, E.Seitxalilov, T.Muradimova, S.Ochilov; N.Azizxodjayeva, M.Inomova, Sh.Mardonov, O.Musurmanova, S.Nishonova, K.Xashimov; S.Annamuratova, D.Djamalova, S.Fayzullina [29; 35; 90; 102; 98; 103; 111; 169; 40; 63; 162] larning ishlaridir.

Muammolarni o'rganish bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash milliy dasturidan quyidagi nazariy, uslubiy va tashkiliy-pedagogik pozitsiyalar belgilangan:

- ijtimoiy, pedagogik-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lajak pedagog kadrlarga ma'naviy bilim berish;
- yuqori ma'naviyat talablariga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash;
- bo'lajak pedagog kadrlarga, ularning ma'naviy imkoniyatlariga e'tiborni kuchaytirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy bilimlariga e'tibor – kasbiy-shaxsiy rivojlanish omili sifatida;

- bo'lajak o'qituvchilarga yuksak madaniy-tarixiy qadriyatlar, xalqning urf-odatları, umumbashariy insoniy g'oyalari va qadriyatlari haqida ma'lumot berish;

- oliy milliy fazilatları tarbiyalash, o'quvchilar shaxsini rivojlantirish maqsadida ta'limning tarbiyaviy jihatlarını kuchaytirish;

- bo'lajak pedagog kadrlarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida innovatsion tarbiyalash.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik fanlarni o'qitishda bosh masala - bu o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash hamda uni o'z millati, o'z xalqi, o'z Vataniga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, barcha xalqlar o'rtasida qarindoshlik va birodarlikni mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat ramzlari – bayroq, gerb (muhr), madhiyasiga, Respublika Prezidentiga hurmat, mamlakatning ma'naviy boyligi, tili, tarixi, madaniyatini, qadriyatlarını asrab-avaylash, o'z huquq va burchlarını to'liq anglash, shaxsiy halollik, poklik, rostgo'ylik, iymone'tiqod, vijdon, insof kabi ma'naviy-estetik mazmunidagi fazilatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bevosita va bilvosita bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasidan o'rin olgan pedagogik fanlar mustaqil respublikda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lida mamlakat tarixi, madaniyati, iqtisodi, ma'naviyati, tarixiy voqealarning vorsiyligi va qonuniyligini, moddiy borliq va ijtimoiy hayotning nazariy-amaliy, falsafiy-dunyoviy ildizlarını talabalarga o'rganish bilan birga:

- insoniyat va jamiyat rivojida umumbasharish, milliy-ma'naviy merosning o'rni va moddiy ishlab chiqarishning ahamiyati;

- O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy tamoyillari, axolining huquqlari, burchlari va erkinliklari qonun bilan kafolatlanishi hamda jamiyat va shaxs munosabatlarıning dialektik mutanosibligi;

- mustaqillik tafakkuri ma'naviy-estetik dunyoqarashning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarını anglab etish;

- shaxsning ma'naviy-estetik rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotida ta'lim-tarbiyaning ustuvorligi, uning dunyoviylik, insonparvarlik va demokratik xarakter kasb etishi; inson hayotining maqsadi, mazmun-

mohiyati, moddiy borliq va ijtimoiy hayot o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlarining anglab etilishi;

-ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida ma'naviy-estetik dunyoqarashning mohiyati, ong va o'zini o'zi anglash to'g'risidagi ta'limot, gnoseologiya, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining xususiyatlarini idrok qilish;

-milliy mustaqillik sharoitida ilmiy, ma'naviy-estetik tarbiyalanganlikning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etishining tan olinganligi, uni taqozo etuvchi ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillar hamda ularning istiqlol g'oyasi, mustaqillikni asrash va himoya qilishdagi ahamiyatini anglash;

-ma'naviy-estetik dunyoqarashning milliy, umuminsoniy, tarixiy, nazariy va amaliy zaminlarning mustaqillikni rivojlantirishdagi, shaxs kamolatini takomillashtirishdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar talabalar ongu-shuuriga etkaziladi.

10.2. Badiiy merosi asosida pedagogik kadrlarni ma'naviy-estetik tarbiyalash, uning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash - bu pedagog kadrlarni o'qitish va tarbiyalashga zamonaviy talablar darajasida bajariладigan davlat ijtimoiy-pedagogik buyurtmasidir. Bo'lajak o'qituvchilarni ota-bobolarimizning muhim badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash muammosini hal qilishda, avvalo, zarur bo'lgan "tushunchalar makoni"ni aniqlashtirib olish kerak: "ma'naviyat", "ma'naviy-estetik tarbiya", "badiiy meros", "badiiy qadriyat", "milliy-badiiy qadriyatlar", "estetiklik", "estetik qadriyat", "estetik tarbiya", "estetik madaniyat".

Ushbu kategoriyalar mohiyatini zamonaviy ta'lim siyosati va tadqiqot kontekstida aniqlashtirib: "ma'naviyat", "badiiy qadriyatlar asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash", "o'zbek xalqining badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash", "bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash" tushunchalarini shakllantiramiz; tadqiqot konsepsiyasini ifodalaymiz; pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik tarbiyasi ko'rsatkichlarini ishlab chiqamiz; pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak

o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashga tizimli yonlashuv; shuningdek, pedagogik kadrlarni milliy-badiiy meros asosida ma'naviy-estetik tarbiyalashda ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlaymiz.

“Qisqacha pedagogik lug‘atda” (-M .: GTI, 2005) “Ma’naviyat” deganda quyidagilar nazarda tutiladi: 1) umuminsoniy va milliy ahamiyatga ega bo‘lgan, eng yuqori qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllangan, yuqori intellektual, axloqiy va hissiy-irodaviy rivojlanishni ko‘rsatuvchi tizim, ijodiy (o‘quv) faoliyatiga qodir shaxs; 2) shaxsni rivojlantirish va o‘zini o‘zi tartibga solishning eng yuqori darajasi, uning asosini insoniy qadriyatlar tashkil qidadi; 3)... insonning Olloh bilan uchrashishga bo‘lgan eng yuqori intilishlari [148, 42]. “Insonning ma’naviy hayoti - bu faol faoliyat jarayonida insonning axloqiy, intellektual-estetik ehtiyojlari va qiziqishlarini rivojlantirish, shakllantirish va qondirishdir” [149, 43].

Ma’naviy ta’lim umuminsoniy ma’naviyatga erishishga qaratilgan. Ma’naviy-estetik tarbiyalash. Biz ushbu tushunchani yuqoridagi qayd etilgan nazariyalar asosida shakllantiramiz. Bizning nazarimizda ma’naviy-estetik tarbiyalash - estetik tarbiyaning ajralmas qismidir. Bu tabiatda, hayotda, san’atdagi yuqori estetik hodisalarning qayta shakllantirilishi natijasida paydo bo‘lgan estetik hissiyotlar, qiziqishlar, bilimlar, ehtiyojlar, intellektual, estetik-ijodiy rivojlanish, shakllanish va qanoatlanish jarayonlaridir. Insonning ma’naviy-estetik fazilatlarini, birinchi navbatda, milliy-badiiy xazina “abadiy qadriyatlar”ni ifoda etuvchi milliy-badiiy merosda shakllantirishdir.

Tadqiqotlarimiz quyida muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan “tushunchalar makoni”da: “abadiy qadriyatlar”, “badiiy qadriyat”, “badiiy meros” va “milliy-badiiy meros” kabilar ko‘rib chiqiladi.

Badiiy qadriyatlar asosida ma’naviy-estetik tarbiyalash – bu estetik hisni (tuyg‘uni) shakllantirish, rivojlantirish, qanoatlantirish jarayoni (san’atning yuqori darajadagi badiiy asarining emotsional-hissiy idrok etilishi), bu badiiy-estetik bilim, tushuncha va g‘oyalarga, badiiy asarga qadriyatli munosabat (badiiy asarni o‘rganish, mulohaza qilish, tushinish), bu jarayonga intellektual-ijodiy yondashish, paydo bo‘lgan badiiy-estetik bilimlarni ko‘rsatish, badiiy asarga munosabatni shakllantirish, shaxsning badiiy-estetik sifatlarini shakllantirishdir.

Ma’naviy-estetik tarbiyalashning badiiy merosga asoslanishi - bu o‘tmishdagi odamlarni badiiy madaniyati bilan tanishtirish jarayonida

“abadiy badiiy qadriyatlar” namunalariga, shu jumladan, haqiqiy estetika va yuqori badiiy ijod namunalariga hamda xalq ijodiyoti – folklor namunalariga tayanish tushuniladi.

Shuningdek, asarni hissiy idrok etish bilan estetik hissiyotlarni (hayrat, quvonch, zavq, mamnunlik, ma’naviy farovonlik) rivojlantirish, shakllantirish va qondirish jarayoni; intellektual-ijodiy darajadagi g’oyaviy va badiiy tushunchasini, badiiy-estetik xususiyatlarini bilish, unga bo’lgan hissiy va qadriyatli munosabatini aniqlash jarayonida intellektual-kognitiv qobiliyat; qabul qilingan badiiy-estetik taassurotlarni, bilimlarni, tushuncha va g’oyalarni o’zida aks ettirish, qobiliyat (ma’naviy, ijodiy, kommunikativ, ma’rifiy va boshqalar) orqali ma’naviy-estetik salohiyat va badiiy qadriyat to’g’risidagi mantiqiy-analitik mulohaza, shaxsning ma’naviy-estetik fazilatlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Bo’lajak o’qituvchilarni o’zbek xalqining badiiy merosi asosida ma’naviy-estetik tarbiyalash umumiy ta’lim tizimida, gumanitar va pedagogik fanlarni o’rganish jarayonida sodir bo’ladi, unga o’zbek xalqining yuksak badiiy “abadiy qadriyatlari”, milliy o’ziga xosligi, umumbashariy, milliy qadriyatlarga qo’shgan hissasi hamda ma’naviy-estetik tarbiyalash manbai sifatida qaraladi.

Bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalashda o’zbek xalqi va ajdodlarining o’tmishdagi badiiy madaniyati – “abadiy milliy-badiiy qadriyatlar”i namunalaridan foydalanish, shu jumladan, miniatyuralar, an’anaviy me’morchilik, bezak san’ati, “kitob bezatish, folklor, she’riyati” - Bobur, Mashrab, Nadira, Berdaxlarning she’riyatlari, otabobolarimiz san’atining yuksak ma’naviy-estetik, estetik-ma’rifiy qadriyatlari, kuchli salohiyati va yorqin milliy koloriti bilan tanishtirish jarayonlari tushuniladi. Bu jarayon:

- hissiyotlarni shakllantirish - estetik (hayratlanish, quvonch, zavqlanish, mamnuniyat, ma’naviy farovonlik), milliy g’urur tuyg’usi, milliy o’zlikni anglash (san’at asarlarini hissiy-idrok etish bilan);

- o’zbek xalqining badiiy merosining ko’plab “abadiy qadriyatlari” asarlarini - hissiy, intellektual-ijodiy, mantiqiy-kognitiv, badiiy-tahliliy (berilgan algoritmlarga muvofiq) idrok etish;

- o’zbek xalqining boy milliy-madaniy merosi xazinasi asariga o’zining hissiy-estetik va qadriyatli munosabatni aniqlash;

- kelajakdagi o’quv-pedagogik amaliyotida o’zbek xalqining badiiy

merosidan olingan ma'naviy-estetik e'tiqodlar, motivlar, bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, taassurotlar, qobiliyatlar, ma'naviy-estetik salohiyatni "integratsiyalash";

- o'zining ma'naviy-estetik, kasbiy-shaxsiy rivojlanishiga ob'ektiv baho berish;

- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik kamoloti, shu jumladan, milliy-badiiy merosning yuqori darajadagi kasbiy-shaxsiy rivojlanish omiliga bo'lgan ehtiyojlarini faollashtirish.

Umumiy va milliy-madaniy bilimlar egallanmoqda, yuqori milliy fazilatlar, birinchi navbatda, ma'naviy-estetik tarbiyalovchi milliy-ma'naviy tarbiya amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot konsepsiyasining asosiy pozitsiyasi. Zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb va talabga javob beradigan ma'naviy-estetik, xususan, pedagogik tarbiyada, zarur:

- davlat ta'lim siyosati bilan bog'liq zamonaviy umumiy metodologik qoidalarining aniq ta'rifi;

- zamonaviy matnda "ma'naviyat", "ma'naviy-estetik tarbiya" tushunchalarini oydinlashtirish;

- talabalarining yosh xususiyatlarini inobatga olish, shaxsning ma'naviy-estetik komponentining yaxlit rivojlanishi, kasbiy-shaxsiy shakllanishida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash;

- pedagogik fanlari dasturlarini modifikatsiyalash va uning bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi imkoniyatlarini aniqlash;

- ishlab chiqilishi: bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning umumiy pedagogik tizimi (pedagogika fanlarining fanlararo aloqalari darajasida)ni, o'ziga xos mavzu (talabalarini o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha materiallar tayyorlash) sini;

- o'zbek xalqining milliy-estetik qadriyatlarga asoslangan boy badiiy merosidan bo'lajak o'qituvchilarning hissiy-estetik, intellektual-ijodiy, kasbiy-faoliyatli rivojlanishi hamda ma'naviy hayotining boyitilishini ta'minlaydigan yuqori darajadagi milliy-estetik qadriyatlarni tanlab olish orqali ularning estetik talablarni, rivojlanayotgan pedagogik faoliyatga qiziqishlarni shakllantirish va qonoolantirish;

- bo'lajak o'qituvchilarning hissiy-estetik, intellektual-ijodiy, kasbiy-faoliyatli rivojini ta'minlovchi o'zbek xalqi badiiy merosidan yuksak milliy-estetik qadriyatlarni tanlash orqali ularning ma'naviy hayotini

boyitish, ya'ni kelgusi pedagogik amaliyotida kerak bo'ladigan estetik talablarini qandirish uchun amalga oshirish;

- o'zbek xalqining ma'naviy-estetik merosini o'rganish bo'yicha ma'ruzalar mazmuni, ularning texnologiyalari, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar va seminarlarni aniq mavzular bo'yicha ishlab chiqish (yuqori darajadagi badiiy qadriyatlar namunalaridan foydalangan holda);

- bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashning ishlab chiqilgan mezonlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarga ma'naviy-estetik ta'sir ko'rsatadigan sharoit va omillarni, samarali shakllar, maqbul usul va vositalarni aniqlash. Bunda bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-estetik qiyofasi takomillashadi, kadrlar tayyorlash sifati yaxshilanadi.

Muallif konsepsiyasining aniqlangan va shakllangan tushunchalari asosida davlat ta'lim siyosatining muayyan pozitsiyalari va qoidalari nuqtai nazaridan, milliy, umuminsoniy qadriyatlar asosida yoshlarning ma'naviy rivojlanishi, pedagogik jarayonga tizimli yondashuvi asosida, uning eng muhim didaktik tamoyillari, talabalarning yoshini va maqomini hisobga olgan holda, ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kelajakda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash imkoniyatlari (ularning dasturlarini biroz o'zgartirgan holda), ma'naviy-estetik tarbiyaning emotsional jihatdan ustuvorligi intellektual, intellektual-ijodiy va qadriyatli omillari, o'z-o'zini anglash va ijodiy, amaliy, kasbiy-pedagogik jihatdan o'zini ifoda etish, ma'naviy-estetik o'z-o'zini tarbiyalash zarurligini anglash, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik tarbiyalash mezonlarini, jadval va tarbiya tizimini ishlab chiqdik.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqining badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash mezonlari (Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida):

1. Davlat ta'lim siyosati kontekstida ma'naviy-estetik rivojlanish zarurligini kasbiy-shaxsiy anglashi, idrok etishi.

2. Ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasida zarur bo'lgan kategoriyalar, tushunchalar va g'oyalar, bo'lajak o'qituvchini ma'naviy-estetik tarbiyalashga qo'yiladigan talablar. Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida o'zbek xalqining badiiy merosiga asoslangan ma'naviy-estetik tarbiyasi mazmuni, ushbu materialda ma'naviy-estetik rivojlanishning imkoniyati va kelajagi to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi.

3. O'zbek xalqi badiiy merosining "abadiy qadriyatlari", bu milliy g'urur va umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi, ularning ulkan ma'naviy-estetik tarbiyaviy salohiyati to'g'risida tarixnavislik bilimlarga ega bo'lish.

4. Idrok - o'zbek xalqining badiiy merosiga oid qator "abadiy qadriyatlar" bo'yicha asarlarni o'rganish: 1) hissiy-estetik fikrlash-idrok qilish, anglash; 2) intellektual-ijodiy, badiiy-tahliliy darajada o'qish (berilgan algoritmlarga muvofiq); 3) badiiy asarga bo'lgan o'zining munosabatini aniqlash: a) hissiy, b) qadriyatli, v) asarning kelajakdagi pedagogik faoliyatda foydalanish istiqbollari kasbiy qarashlari (talabalarni ma'naviy-estetik tarbiyalashda).

5. O'zbek xalqining badiiy merosidan olingan ma'naviy-estetik e'tiqodlar, motivlar, bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, taassurotlar, qobiliyatlar, ma'naviy-estetik, maorifiy-pedagogik salohiyatning kelgusi pedagogik o'quv amaliyotidagi "integratsiyasi", asarlarda: 1) metodologik; 2) tarixnavislik va san'atshunoslik mazmundagi; 3) idrok qilish. Va asarlar tahlili; 4) nazariy-pedagogik; 5) uslubiy. 6) o'z = analitik (tahlilchi) , baholovchi (berilgan havola bo'yicha).

6. Ma'naviy-estetik jihatdan o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj: a) ajdodlarimizning badiiy merosi sohasida; b) o'zbek xalqining badiiy madaniyati sohasida; v) boshqa xalqlarning badiiy merosi to'g'risida; g) kasbiy va shaxsiy hayotda.

Bo'lajak o'qituvchilarni badiiy merosning yuksak namunalarida ma'naviy-estetik tarbiyalash jadvalida quyidagi komponentlarni (qismlarni) ajratib ko'rsatamiz: motivatsion-ta'kidlovchi, kelajaklimo'ljalli, kategorial-tushunchaviy, tarxonavislik, o'quv-anglash, badiiy-tahliliy, ijodiy-namunaviy, o'zini o'zi takomillashtirish – bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash asoslari tizimiga kiritilgan hamda pedagog kadrlarni tarbiyalashning kasbiy yo'nalganligida hisobga olingan.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqining badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash tizimi.

I. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik rivojlanish zaruratini ijtimoiy-shaxsiy va kabiyy-pedagogik motivlar asosida tushunib etishlari. Kelgusida ma'naviy-estetik ishlar mazmunini, uning ma'naviy-estetik rivojlanishdagi imkoniyat va istiqbolini muhim kabiyy-shaxsiy omil ekanini tushunib etishlari.

II. Kerakli tushunchaviy “makon”ni o‘zlashtirish.

III. Milliy g‘ururni ifoda etuvchi o‘zbek xalqining badiiy madaniyatining “abadiy qadriyatlari” haqida tarixiy bilimlar. Ular orasidan yuksak ma’naviy-estetik mazmundagi tarbiyaviy xususiyatga egalarini tanlash.

IV. O‘zbek xalqining badiiy merosin asarlarni hissiy idrok etish, anglash, ularni mantiqiy-tahliliy, badiiy-estetik o‘rganish va baholash (tavsiya etilgan ko‘rsatma asosida), ularga munosabati (hissiy-shaxsiy, ob‘ektiv-qadriyatli).

V. Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalarning ma’naviy-estetik darajadagi pedagogik, uslubiy va boshqa ishlarda aks ettirilishi.

VI. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zining ma’naviy-estetik rivojlanishiga bo‘lgan bahosi (kasbiy-shaxsiy nuqtai nazardan).

VII. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zini ma’naviy-estetik takomillash-tirishga bo‘lgan ehtiyojlari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-estetik tarbiyalariga tizimli yondashuv pedagogika fanlarini o‘qitish modelida amalga oshiriladi:

Pedagogika tarixi

Pedagogika nazariyasi

Pedagogik mahorat

Ta’lim texnologiyasi

Izoh: bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalash mazmuni ularning o‘zaro aloqalari, modifikatsiyalangan dasturlarga muvofiqligi pedagogik fanlarni o‘rganish jarayonida keltirilgan.

Ushbu tizimning markazida quyidagi tarkibiy qismlar mavjud: motivatsiyaviy; elementar-konseptual (zaruriy ma'naviy-estetik toifalarni assimilyasiya qilish); badiiy-estetik bilimlar; kasbiy-informatsion (ma'naviy-estetik chegaralar doirasida); texnologik-pedagogik; kasbiy ma'naviy-estetik faoliyatda pedagogik san'at, ijodkorlik va mahorat; amaliy ma'naviy-estetik mazmun (shaxsiy-kasbiy); faollashtirish; ijtimoiylashuv. Bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy-estetik tarbiyaning barcha bosqichlarida talabalar shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv va ularning ma'naviy-estetik ko'rinishi bo'yicha mustaqil ish uchun tavsiyalar va ko'rsatmalar berilgan. Ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi ma'naviy-estetik fazilat-larining qanday shakllanib, rivojlanib borishini kuzatish muhimdir: estetik, badiiy qadriyatlarga hissiy ijobiy munosabat; milliy badiiy qadriyatlarni bilish; **qobiliyat**: ularning hissiy tuyg'ulari, badiiy-estetik idroklari, tushunish, anglash, ularga nisbatan munosabat; turli tadbirlarda ma'naviy-estetik ufqlarni ijodiy aks ettirish; **ehtiyoj**: go'zallik, uni yaratish, shu jumladan, o'qituvchining faoliyati (xulq-atvori, aloqasi); ma'naviy-estetik (badiiy) bilimlarni boyitishda; ma'naviy-estetik qadriyatlar dunyosiga yo'naltirish - milliy-badiiy, ular bilan tanishish; estetik-ijodiy rivojlanish (hissiy-estetik, hissiy-ixtiyoriy, intellektual-ijodiy, estetik-transformatsion, profes-sional) – shaxsiy-kasbiy faoliyat uchun muhim bo'lib, nafaqat yaxlit ma'naviy-estetik tarbiyalashni, balki kasbiy rivojlanishni, yuqori kasbiy-shaxsiy obro'-e'tiborni va ijtimoiy ahamiyatga ega pedagogik maqomni.

Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchi-lar-ning, ota-bobolarining milliy-badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik tarbiyalashning pedagogik texnologiyasi. "Ta'lim texnologiyasi - bu pedagogik muammolarni echishga qaratilgan o'qituvchi harakatlarining izchil o'zaro bog'liq tizimidir; oldindan rejalashtirilgan o'quv jarayoni amaliyotida rejali va izchil amalga oshirish" [149, 129]. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash texnologiyasida umumiy texnologiyalar - ma'lum bir "tugunli nuqtalar" bilan integratsiyalashgan tizimda bosqichma-bosqich qo'llanilgan; metod va uslublar tizimi bilan ma'ruza; milliy badiiy qadriyatlarni, o'ziga xos usullarni o'rganish texnologiyasi; bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik fazilatlarini tarbiyalash texnologiyasi, va boshq. Masalan, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashning fanlararo jadvali:

“Pedagogika tarixi”

“Pedagogika nazariyasi”

“Pedagogik texnologiyalar”

“Pedagogik mahorat”.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalashga umumiy yondashuv, bu erda ma’naviy-estetik tarbiyalash tizimining asosiy tarkibiy qismlari aks ettirilgan: motivatsion, axborot-anglash va kasbiy-anglash, pedagogik-ijodiy, ma’naviy-estetik “amaliyot” va ijtimoiylashuv, o‘zini takomillashtirish.

Ma’ruza bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy badiiy merosning “abadiy qadriyatlar” mavzusida ma’naviy-estetik tarbiyalashni tashkil etishning asosiy shakli sanaladi, talabalar bilan darsning ushbu shaklida an’anaviy-texnologik tuzilishidan foydalanilgan hamda u biroz takomillashtirilgan:

-kirish qism;

-yangi material taqdimoti muammoli bo‘lib, u dialog, munozara va boshqa usullar to‘plamidan iborat, uni qaytarish (musthkamlash);

-ma’ruza mavzusi bo‘yicha topshiriqlar;

-mustaqil ishlarni taklif qilish (tavsiya etilgan adabiyotlar va metodologiyalar bilan).

Pedagogik fanlarni o‘rganish jarayonida ajdodlarimizning badiiy merosi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalash shakllari, usullari, vositalari, o‘qitish usul va usublari. Talabalarni ma’naviy-estetik tarbiyalash faoliyatini **tashkil etish shakllari**: ma’ruza soatlari, munozaralar, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, talabalar konferensiyalari, davra suhbatlari, bahs-munozaralar.

Talabalarni ma’naviy-axloqiy **tarbiyalash usullari**: maqsadni aniqlash, o‘rnatish, ko‘rsatmalar, ishlashning keys usuli; motivatsiya, ishontirish, tushuntirish, taklif qilish, istiqbolli qarash, suhbat, munozara, hisobot; misol, namuna, standart; model bo‘yicha harakatlarni bajarish orqali bilimlarni takrorlash; harakatning o‘zaro bog‘liqligi (mavzu-ob‘ekt); muammo qidirish, izlash, “tadqiqot”ning muammoli-qidiruv usuli; raqobat, jismoniy mashqlar, mashg‘ulotlar, pedagogik talablar; jamoatchi-lik fikri, jamoaviy ta’sir; komissiya; vazifa (majburiy, qiziqish bo‘yicha); tarbiyaviy vaziyatlar; pedagogik hamkorlik; pedagogik tadqiqotlar: kuzatish, sinov, so‘rov, tartiblashtirish, masshtablash; xulosa, umumlashtirish; boshqarish, o‘zini o‘zi boshqarish; introspeksiya,

o'ziga-o'zi hisobot berish, rag'batlantirish, baholash. Biz metodlarni tasniflashni kuzatdik: bilim manbasiga ko'ra biz og'zaki (taqdimot, aloqa, ma'lumot, hikoya, tushuntirish, suhbat, munozara, ma'ruza, kitob bilan ishlash) foydalanganmiz; vizual (rasm, namoyish); amaliy (mashqlar, laboratoriya va amaliy ishlar) [149, 250]. Biz kognitiv faoliyat darajalariga qarab usullarni kuzatdik: tushuntirish va illyustratsiya (axborot va retsept); reproduktiv (mashqlar, ko'rsatmalarga asoslangan topshiriqlar - algoritmlar), dasturlashtirilgan (talabalar tomonidan vazifalar, harakatlar bajarish usullarini o'qitish va o'zlashtirish); muammoli (muammoning bayoni, uni o'rganish, tushunish, dalillarga asoslangan hukm); qisman izlanishli yoki evristik (evristik suhbatda, yangi muammolar, muammolarni hal qilish uchun talabalarning ijodiy faoliyatini izlashda) [149, 250].

Usul – “umumiy usulning bir qismi, harakat (ta'sir), aniq takomillashtirish, ko'pincha tarbiya usulini takomillashtirish” [149, 107].

Talabalarni ma'naviy-estetik tarbiyalash usullari: hissiy-estetik ta'sir ko'rsatish; o'qituvchi va talabalarning o'zaro bog'liq faoliyatining ta'siri; badiiy qadriyatlarni sintez qilish, tahlil qilish, taqqoslash.

Metodlar bu usullarning tarkibiy qismlari yoki alohida jihatlari. Usul “faoliyatning dinamik tuzilishining tarkibiy qismi, uning natijasini ta'minlaydigan faoliyat usullari va uslublari to'plamidir” [149, 419]. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashda qo'llaniladigan usul va uslublarga to'plam. Masalan: o'quvchilar o'quv materiallarini faol va ijodiy idrok etishga e'tibor qaratishganida; san'at asarlarining ma'naviy-estetik salohiyati aniqlanganda; ma'ruza materialini takrorlash yoki birlashtirish paytida (talabalarga mavzuning asosiy savollarini berish, ularni ma'ruza materialining qisqacha mazmuni bilan tanishtirish, talabalarni yangi materialni tinglashga o'rgatish; talabalarni dialog va munozaraga taklif qilishda ma'ruzaning muammoli taqdimoti; “sintez” tizimida san'at asarlarini individual-ijodiy idrok etish - tahlil - sintez”; asosiy mavzular bo'yicha ma'ruza materiallarini, asosiy tezislarni muhokama qilish, nazorat qilish orqali takrorlash (konsolidatsiya) muammolari va boshqalar.

Bo'lajak o'qituvchilarni milliy badiiy meros asosidagi ma'naviy-estetik tarbiyalash vositalari. Vositalar - o'quvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashga jalb qilishda yordamchi manbalar, bo'lajak o'qituvchilar

faoliyatining o'ziga xos turlari va shakllari, "moddiy va ma'naviy madaniyat ob'ektlari, ommaviy axborot vositalari - rasmlar, film lentarlari, badiiy asarlar va boshqalar" [149, 124]. Bizning ilmiy amaliyotimizda: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Sh.M. Mirziyoyevning nutq va ma'ruzalari; lug'atlar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar; psixologik-pedagogik adabiyotlar; badiiy merosga oid tarixiy, nazariy va badiiy tanqidiy asarlar; xalq pedagogikasi, o'zbek xalq og'zaki ijodi; Sharq she'riyati; sharq miniatyura rangtasvirining reproduksiyalari; Sharq Uyg'onish davri me'morchiligi fotosuratlari; ko'rsatilgan asarlarning slaydlari, ularni idrok etish - o'rganish; ajdodlarimizning milliy-badiiy merosining "abadiy qadriyatlari" haqidagi kompyuter materiallari.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy-estetik mazmundagi topshiriqlar, nazariy-pedagogik va amaliy, uslubiy ishlar. Bo'lajak o'qituvchilar uchun, ularni ma'naviy-estetik tarbiyalashga yordam beruvchi maqsadi, turi, mazmuni va hajmi jihatidan turli topshiriqlar. Mustaqil ravishda bajariladigan ishlar. Pedagogik fanlarni o'rganish natijasida ma'ruza mavzularida, dasturlar-ning bo'limlariga kiritilgan topshiriqlar. Lug'atlar, m'lumotnomalar, tavsiya etilgan manbalar va kitoblar bilan mustaqil ishlashni talab qiluvchi masalalar. Uslubiy-pedagogik, tarixshunoslik, "san'at tarixi", badiiy-tahliliy, nazariy-pedagogik, nazariy-amaliy va xususiy metodik ishlar, shuningdek o'z-o'zini tahlil qilish, tanqid qilish va baholash (berilgan parametrlar bo'yicha) asarlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bular: ma'ruza mavzusidagi fundamental tezislar, ma'ruza materiallarini tayyorlash rejasi; yoshlarning ma'naviyati, ma'naviy tarbiyasi to'g'risida Sh.M. Mirziyoyevning asarlari va nutqlarini yozib olish; talabalarning ma'naviy tarbiyasi bo'yicha milliy dasturdan ko'chirmalar; Sharqning buyuk mutafakkirlari asarlarida ma'naviy mavzunini o'rganish; ma'naviyat, ma'naviy-estetik tarbiya, ushbu tarbiya pedagogikasi muammolari bo'yicha adabiyotlarni qidirish va izohlash; lug'at va konseptual apparatlar, ma'naviy-estetik tarbiya toifalari ustida ishlash; ularni dasturlash, ularning ma'naviy-estetik tarbiya konsepsiyasini shakllantirish (rivojlantirish), o'zi uchun ma'naviy-estetik fazilatlarini aniqlash; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash mezonlarini o'rganish; asarlarning vizual mohiyati tasvirini saqlab qolgan holda, epik, afsonaviy, ertakning qisqacha mazmuni; milliy badiiy qadriyatni badiiy-estetik idrok etish (uning sxemasi yoki taklif qilingan

algoritmiga binoan); asarning ma'naviy-estetik imkoniyatlarini milliy-badiiy merosning "abadiy qadriyatlari" asosida ochib berish; yuqori ma'naviy-estetik salohiyatga ega milliy-badiiy merosga oid asarlarni izlash va tizimlashtirish (kelajakda pedagogik va o'quv faoliyatida foydalanish uchun); xalqimizning milliy-badiiy merosi haqida qiziqarli ma'lumotlarni to'plash (ma'naviy-estetik ta'sir); o'zbek xalqining badiiy madaniyatini tarixnavislik jihatdan ko'rib chiqish (ma'lum davrlar); o'quv insholari va ma'ruzalar, shuningdek talabalarni ma'naviy-estetik tarbiyalash bo'yicha nazariy-pedagogik hamda uslubiy ishlanmalari; eng katta milliy-badiiy qadriyatlarning ma'naviy-estetik boyliklari to'g'risidagi e'lon qilingan materiallarni o'qish va sharhlash; talabalar bilan birga ma'naviy-estetik tarbiya bo'yicha eslatmalar, maslahatlar, tavsiyalar; albomga kiritilgan milliy-badiiy va jahon qadriyatlarining yuksak namunalari to'plamlari. Bo'lajak o'qituvchilarning kelgusi o'quv ishlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan vazifalar va topshiriqlar: o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash bo'yicha umumiy, o'ziga xos va xususiy texnologiyalari bo'yicha milliy-badiiy qadriyatlar, shuningdek, kelajak avlod o'qituvchilarining yosh avlod ma'naviy-estetik tarbiyasiga ijodiy, innovatsion yondashuvi.

Ajdodlarimizning badiiy merosidan olingan "abadiy qadriyatlar" vositasida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash ijtimoiy maydoni. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarini ma'naviy-estetik tarbiyalash potensialini ta'lim sotsiumida turli xil faoliyat turlarida amalga oshiradilar, ma'lum bir ijtimoiy (ob'ektiv) tajribaga ega bo'ladilar va shu bilan kelajakdagi ijtimoiy-ma'rifiy tadbirlarga tayyorgarlik ko'radilar. Talabalarda qiziqish uyg'otadigan faoliyat turlari (ma'ruzalar, dokladlar, xabarlar, o'quv asarlari va boshqalar): o'quv jarayonida, darsdan tashqari vaqtda, murabbiy soatlarida, seminarlarda, kollokviumlarda, hisobot yig'ilishlarida, talabalar konferensiyalarida, talabalar ishlarining universitet ichidagi tanlovlarida, turli madaniy tadbirlarni tayyorlashda, havaskorlik tomoshalarida. Ushbu tadbirlarda ularning ma'naviy-estetik tarbiyasini namoyish etish va tasdiqlash, ijtimoiy va kommunikativ tajribani to'plash amalga oshiriladi. Va bu bo'lajak o'qituvchini ma'naviy-estetik tarbiyalashni haqiqiy ijtimoiy muhitga "integratsiyalashtirish"ga yo'naltirgan juda muhim tarbiya omilidir. Talabalarni ma'naviy-estetik tarbiyalash ijtimoiy ahamiyatga ega deb tan olingan. Bo'lajak o'qituvchilar ushbu tadbirda faol ishtirok

etadilar, o'zlarining imkoniyat-larini har tomonlama ochib beradilar, shu jumladan, ma'naviy-estetik jihatlarini ham, shu tariqa pedagog kadrlar shaxsini rivojlantirish jarayoni sodir bo'ladi.

Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida o'zbek xalqining badiiy merosi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik **tarbiyalash talablari**:

- ma'naviy-estetik tarbiyaning yuqori darajasiga intilish, ma'naviy-estetik tarbiyada ajdodlarimizning milliy, umuminsoniy va milliy g'ururga sabab bo'lgan yuksak badiiy "abadiy qadriyatlar" dan foydalanish;

- milliy va jahon badiiy madaniyatiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish;

- ushbu qadriyatlardan kasbiy-shaxsiy rivojlantirish uchun ma'naviy-estetik potensialni oshirish;

- o'zbek xalqi uzoq ajdodlarining badiiy madaniyatiga, o'z va boshqa xalqlarning milliy-badiiy qadriyatlariga qiziqish uyg'otish;

- o'zbek va boshqa xalqlarning yuksak ma'naviy-estetik, estetik-tarbiyaviy salohiyati va yorqin milliy koloritni o'z ichiga olgan "abadiy qadriyatlar"ni bilish;

- milliy san'at xazinasidan san'at asarlarini hissiy-irodaviy, estetik-ma'naviy asosda tahliliy (berilgan algoritmlarga muvofiq) idrok etish; o'z hissiy-estetik qadriyatlarini anglash, shuningdek, professional munosabatni aniqlash;

- shubhasiz, olingan ma'naviy-estetik e'tiqodlar, motivlar, his-tuyg'ular, bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, taassurotlar, faol qobiliyat, ma'naviy-estetik salohiyatni ajdodlarimizning tarixiy-madaniy merosidan yuqori darajadagi badiiy "abadiy qadriyatlar"ga "kiritish" - kelajakdagi o'quv amaliyotida turli xil vazifalar va ishlarni bajarish, ma'naviy-estetik mazmundagi ma'rifiy faoliyatga kiritish;

- o'zining "ma'naviy-estetik yutuqlari" bo'yicha o'zini tanqidiy baholash, o'zining ma'naviy-estetik tarbiyasini ob'ektiv baholash ("Men" tushunchasi kontekstida kasbiy-shaxsiy nuqtai nazardan); ma'naviy-estetik o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj nafaqat o'zbek badiiy merosi sohasida, balki boshqa xalqlarda ham zarur;

- shaxsning nafaqat muhim milliy ma'naviy-estetik, balki umuminsoniy fazilatlarini shakllantirish;

-ma'naviy-estetik tarbiyaning kasbiy-shaxsiy konsepsiyasi zarur.

Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar uchun milliy-badiiy qadriyatlar bo'yicha ma'naviy-estetik tarbiya muammosini hal qilish ilmiy asoslangan pedagogik asoslarni talab qiladi. Pedagogik fanlar dasturlarining mazmunini (modifikatsiyalangan yondashuv darajasida) ko'rib chiqish va aniqlash, shuningdek muammoni hal qilish uchun nazariy-pedagogik va nazariy-amaliy asoslarni ishlab chiqish kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida ularning dasturlarini o'zgartirish uchun (ma'lum bir munosabatda), tadqiqotning maqsadi va vazifalariga muvofiq amalga oshirildi. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviylashtirilgan dasturlar ularning konsepsiya, maqsad va vazifalari asosida amalga oshirildi. Pedagogik fanlar dasturlariga bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash bo'yicha qo'shimchalar kiritilib, kelgusi pedagogik faoliyatida erishilajak ma'naviy-estetik tarbiya natijalarning "integratsiyalashuvi"ga erishildi.

Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning badiiy meros bo'yicha ma'naviy-estetik tarbiyalashning nazariy, pedagogik va amaliy asoslari ishlab chiqilgan, ularning eng muhimlari quyidagilar: metodologiyasi, bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashga konseptual yondashuvi; ma'naviy-estetik tarbiyalashda ishlatiladigan o'qituvchilarning psixologik va yoshga bog'liq xususiyatlari; bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy-estetik tarbiyalash jarayonini optimallashtiradigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlari; bo'lajak o'qituvchilar uchun ma'naviy-estetik tarbiyalash tamoyillari, omillari va qonuniyatlari; bo'lajak pedagogik kadrlarni ma'naviy-estetik tarbiyalashning pedagogik jarayoni, uning tizimli-mazmunli asoslari, asosiy tarkibiy qismlari; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashning pedagogik texnologiyalari; ma'naviy-estetik tarbiyalash-ni tashkil etish shakllari, usullari, vositalari, uslubiy yondashuvlari; bo'lajak o'qituvchilarga ma'naviy-estetik, potensial-tarbiyaviy mazmun-dagi topshiriqlar; bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash natijalarini ijtimoiylashtirish; bo'lajak pedagogik kadrlarni ma'naviy-estetik tarbiyalash bo'yicha qo'yiladigan talablar.

Pedagogik fanlarning zamonaviylashtirilgan mazmunidan pedagogik-

ijodiy foydalanish, pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash-ning nazariy-pedagogik va nazariy-amaliy asoslari - bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashning xalq tarixiy-madaniy merosidagi milliy-badiiy qadriyatlari asosida qurilishini kutilayotgan natija sharti sifatida qarash mumkin.

Keyingi bo'lim o'rganilayotgan jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalashning taxminiy mezonlariga erishilganligini isbotlashga bag'ishlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida talabalarni ma'naviy-estetik tarbiyalash mazmuni tushuntirib bering.
2. "Pedagogika tarixi" fani dasturini tahlil qilib bering.
3. "Pedagogika nazariyasi" fani dasturini izohlab bering.
4. "Pedagogik texnologiyalar" fani dasturini tahlil qilib bering.
5. "Pedagogik mahorat" fani dasturini tushuntirib bering.
6. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy-estetik tarbiyalashda foydalanish mumkin bo'lgan o'zbek xalqining badiiy merosidan olingan ma'naviy-estetik qadriyatlarga nimalar kiradi?
7. O'zbek xalq og'zaki ijodi ma'naviy-estetik qadriyat sifatida o'zbek she'rlari, afsonalari, dostonlari, ertaklari, matallari, maqollariga misollar keltiring.
8. O'quv-tarbiyaviy jarayoni qonuniyatlarini shunday tasniflab bering: didaktik komponent (mazmuniy-protsessual) - maqsad, mazmun, turlari, usullari, vositalari, usullari, shakllari; gnoseologik-kognitiv; psixologik (asosan kognitiv); axborotli; ijtimoiy (o'quv jarayoni sub'ektlari va ob'ektlarining ijtimoiy o'zaro ta'siri); tashkiliy-pedagogik jihatlar (I.P. Podlasıy bo'yicha).

Mavzu yuzasidan tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmanov B. Xudojestvennaya kultura Uzbekistana: XX vek. –Tashkent, Uzbekistan, 2000. -180 s.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –Toshkent: TDPU, 2003. -174 b.

3. Aldjanova I. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish.-Toshkent,2012. -56 b.
4. Annamuratova S.K. Xudojestvenno-esteticheskoye vospitaniye obuchayushixsya Uzbekistana. –Tashkent, Fan, 1991. -370 s.
5. Arxitekturnye pamyatniki Sredney Azii. –Leningrad, Avrora, 1989. -40 s. (illyustr.).
6. Батырова М.А. Творческоye razvitiye obuchayushixsya. – Moskva, 1999.- 98 s.
7. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva, 1996. -98 s.
8. Zufarov Sh. Ta'limda innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish: nazariya, tahlil va tasnif. –Toshkent, 2010.-52 b.
9. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. –Toshkent: Fan, 2009.
10. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. –Toshkent: Istiqlof, 2003. -224 b.
11. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. –Toshkent: Fan, 2003. -114 b.
12. Otamurotov S va b. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. -243 b.
13. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. –Toshkent, O'qituvchi, 2001. -132 b.
14. Temur tuziklari. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. -184 b.
15. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya.-Toshkent: Fan, 2005.
16. Yarmatov R. Bo'lajak o'qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.-128 b.
17. Quronov M. Milliy tarbiya.-Toshkent: Ma'naviyat, 2007. -240 b.

XII BO‘LIM. JAHONDA PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISHI

Reja:

1. Qadimgi Sparta va Afina davlatlarida ta’lim-tarbiya va maktab.
2. Qadimgi Yunon faylasuf olimlari (Suqrot, Platon, Arastu, Demokrit)ning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari.
3. G’arbiy Yevropada maktab, maorif va pedagogik fikrlar.

Tayanch tushunchalar: Lakoniya, Attika, grammatist, kifarist, polestra, gimnasiy, Efeb, demos, “Evristik” suhbat, cherkov, gildiya, prixod, monastir maktablari, O’rta asr universitetlari.

12.1. Qadimgi Sparta va Afina davlatlarida ta’lim-tarbiya va maktab

Tarixiy manbalardan bizga ma’lumki, qadimiy Sharqda ibtidoiy jamoa tuzumi emirilib, uning o’rniga yangi quldorlik tuzumining paydo bo’lishi moddiy va ma’naviy madaniyatga asos solinishiga zamin yaratdi. Ayniqsa qadimiy Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma’lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va butun jahon madaniyatiga, maorifiga ulkan hissa qo’shganlar. Masalan: Xitoyda birinchi marta qog’oz ixtiro qilingan. Hindistonda hisoblashning o’nlik tizimi kashf etilgan. Mesopotamiyada esa er qurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va diqiqalarga bo’lish o’ylab topilgan.

Eramiz boshlanishidan oldin Markaziy Osiyoning janubiy chekasiga yaqin bo’lgan joylarda O’rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo’li qurilgan. So’ngra Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O’rta dengizga tomon “Buyuk ipak yo’li” ochildi. Natijada Markaziy Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo’lib kelgan. Bu esa o’z navbatida Markaziy Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan. Bizga ma’lumki, quldorlik formatsiyasi davrida qadimiy Sharq mamlakatlari orasida, ayniqsa Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta paydo bo’lgan va rivojlangan. Yunoniston unchalik katta bo’lmagan quldorlik davlatlaridan iborat bo’lgan. Uning katta

shaharlaridan biri Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) bo'lib, bu shaharlar madaniyat markazi hisoblangan.

Bu ikki shaharda tarbiyaning o'ziga xos tizimi vujudga keldiki, natijada bu tarbiya tizimi "Sparta" va "Afina" usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi. Lekin bu ikki shaharning iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti, madaniyat darajasi turlicha edi. Shuning uchun ular birbiridan tubdan farq qilar edi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmronlik qilar edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalarini manfaatini ko'zlar edi.

Yunonistonda qullarni "gapiradigan ish quroli" deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar. Spartada dehqonchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, bu qullar mehnati evaziga asoslangan edi. Spartada qullar shafqatsiz ta'qib ostiga olinar edi. Shu sababli ular tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turar edilar.

Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, asosiy maqsad bolalarni baquvvat, jismonan sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan, so'ng "Agella" deb atalgan maktabda o'qishgan. O'qish muddati 7-18 yoshgacha davom etgan. Shu maktabda hukumatning taniqli kishisi "pedanom" butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilgan. Tarbiya jarayonida bu maktabda o'smirlarga alohida e'tibor berishgan. Ularni jismonan sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirishgan. Masalan: sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidash, og'riqqa bardosh berishga o'rgatib borishgan. Ta'lim jarayonining asosiy qismini harbiy gimnastik mashqlari: yugurish, sakrash, nayza otish, qo'l bilan jang qilish, musiqa darsi, qisqa so'zlashuv, madaniyat darsi, surdo darsi tashkil etilar edi.

Qadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki ma'naviy tomondan ham barkamol bo'lishi nazarda tutilgan. Bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar ham o'rgatilgan. Bu mashg'ulotlarning mazmuni jangovar hamda harbiy tusda bo'lgan.

Spartada olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning yana muhim tomonlaridan biri yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Shu maqsadda yoshlar "Kreptiyalar"da ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashtirilar edi. Ular shubhali bo'lib ko'ringan qullarni o'ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o‘tkazib, shu yo‘l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Masalan: Vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolar ko‘rsatgan mardligi va jasurligi, qahramonlar haqida suhbatlar uyushtirishar, shuningdek bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo‘nda qilib javob berishga o‘rgatib borilar edi.

Spartada 18-20 yoshga etgandan keyin maxsus “Efeblar” (Efeblar qadimgi Yunonistonda balog‘atga etgan o‘spirinlar) guruhiga o‘kazilgan. Bu guruhda bolalarga harbiy ta‘lim berilgan va ular harbiy xizmatni o‘taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. O‘g‘il bolalar bilan qizlar birga qo‘shib o‘qitilgan. Ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Bundan maqsad erkaklar urushga ketgan vaqtlarida qizlar, ayollar shaharni, uy-joyini qo‘riqlash, qurollanib qo‘riqchilik vazifasini o‘tashi, qullarni itoat saqlashini ta‘minlashi ko‘zda tutilgan, ular hatto jangda ham qatnashganlar.

Qadimiy Gretsiyaning katta shaharlaridan biri Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta‘lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo‘yilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu erda tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san‘at, me‘morchilik, haykaltaroshlik taraqqiy etgan edi.

Tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya birga qo‘shib olib borilgan. Lekin bu tarbiyalarni mukammal egallash fakat feodallarning farzandlariga nasib etgan xolos. Afinada tarbiya va maorif masalasi Spartaga nisbatan tubdan farq qilar edi. Bu erda **grammatist, polestra, gimnasiy, efeb, demos** kabi maktab turlari mavjud edi.

Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanganlar. 7 yoshdan o‘g‘il bolalar maktabga borishgan. Qizlar esa oilada ona ko‘magida uy-ro‘zg‘or ishlariga o‘rgatilgan. Xotin-qizlar faqat uyda bo‘lishgan. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13-14 yoshgacha “grammatist”, (savod o‘qitish ma‘nosida), “kifarist” (grekcha musiqa o‘qituvchisi ma‘nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo‘lib, haq to‘lanar edi. Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta‘lim ololmas edilar.

Bu maktablarda “ditaskol” deb atalgan o‘qituvchilar mashg‘ulot olib borar edilar (Men o‘qitaman degan ma‘nodagi “didasko” so‘zidan,

keyinroq “didaktika” ta’lim nazariyasi kelib chiqqan).

O‘g‘il bolalarni maktabga qullar etaklab borishgan. Bunday qullar “pedagog” deb atalgan. Afinadagi grammatist maktabida o‘qish, yozish va hisoblash o‘rgatilgan. O‘qishda harflarni alohida o‘qitish usuli, so‘ng qo‘shib o‘qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o‘rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho‘p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblangan. Kifarist - maktabida o‘g‘il bolalarga adabiy bilim berilar, estetik mazmundagi deklomatsiyalar o‘rgatilar (“Iliada va Odisseya”dan parchalar o‘qitilar) edi.

O‘g‘il bolalar 13-14 yoshga etganlaridan keyin “Polestra” kurash maktabi deb atalgan o‘quv yurtiga o‘tar edilar. Bu o‘quv yurtida ular 23-yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanar edilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irg‘atish mashqlari va suvda suzish o‘rgatilgan.

Spartadagi kabi Afina maktablarida ham o‘quvchilar bilan siyosiy va axloqiy masalalarda suhbatlar o‘tkazilgan, o‘qish tekin bo‘lgan “Gimnasiy” maktabida polestra maktabini tugatgan badavlat oila farzadlari tahsil olganlar. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o‘rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin bo‘lgan.

“Efeb” maktabida 18-20 yoshga qadar tahsil olganlar. Bu maktabda harbiy xizmatga tayyorlanar va o‘zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Bu maktabda istehkomlar qurishni, harbiy aslahalarni ishlata bilishni, garnizonlarda xizmat qilishni, dengizchilik o‘rgatilgan. Bundan tashqari “Demos” (xalq) maktabi ham mavjud edi. Afinada quldorlik jamiyati ichida tabaqalanishning tarbiya sohasiga o‘tkazgan ta’siri shundan iborat bo‘ladiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigagina hos bo‘lib qoldi. Aholining ko‘pchiligi bolalarini maktablarda o‘qita ololmaganligi sababli ularga kasb-hunar o‘rgatar edilar. Ayrim xatsavodli kishilar bolalariga o‘zlari xatsavod o‘rgatganlar. Bu usul ham davlat tomonidan qonunlashtirib qo‘yilar edi.

12.2. Qadimgi Yunon faylasuf olimlari Suqrot, Platon, Arastu, Demokritlarning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokritlar asos soldilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdilar. Quyida biz ushbu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot e.a. (469-399y)da yashab ijod etgan. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishlariga undar edi. Suhbatning bu usuli "Suqrot usuli" deb atalgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini, ya'ni "Evristik" suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonlarini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli "mumtoz"largagina xos, "mumtoz" kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi.

Platon e.a. (424-347)-yillarda yashagan. U Suqrotning shogirdi bo'lib "ob'ektiv idealizm" nazariyasining asoschisidir. U tanadan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar haqidagi nazariyani ilgari suradi. Platon arestokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat 3 xil ijtimoiy guruhlardan iborat bo'lishi, ya'ni bular: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar ularni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil etishtirib faylasuflar va jangchilarni boqadilar degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, u qullarning ham saqlanib qolishini aytib uning tasavvurida qullar ham, hunarmandlar ham, huquqsiz doiralar, pastkashlik, qanoat va itoatkorlik fazilatlarigina hunarmand kosiblarga va dehqonlarga xos deb takidlaydi.

Tarbiya, - deydi Platon, - davlat tomonidan tashkil etilmog'i, hukmron guruhlarning manfaatlarini ko'zlamog'i lozim. Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida tarbiyalanishini tavsiya etadi. 7 yoshdan 12 yoshgacha esa davlat maktablarida tahsil olib, ularga o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula darslari o'rgatiladi. 12-16 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy mashqlarni o'rgatadigan "Polestra" maktabida, 18 yoshga qadar dunyoviy fanlarni o'qitadigan maktablarda, 18-20 yoshgacha esa "Efeb" maktablarida tahsil olib harbiy ta'lim o'rgatiladi. Uning fikricha, "Efeb" maktabini tugatgandan so'ng qobiliyatli va iqtidori bo'lgan yigitlar falsafa ilmini o'rgatadigan uchinchi bosqich oliy ta'limni o'taydilar.

Platon tarbiya tizimida asosan jismoniy mehnatga nafratni singdirish, quldorlar manfaatini himoya qilish maqsadi nazarda tutiladi.

Uning pedagogika tarixida tutgan o'rni shundaki, u dastlab maktabgacha tarbiya to'g'risidagi g'oyani ilgari surib, yoshlarga ta'lim berishning izchillik tizimini ishlab chiqqanligidadir.

Yunon faylasuf olimlaridan yana biri Arastudir (Arestotel). U e.a. (384-322)-yillarda yashagan. Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya aqidalarni ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir. U insonni yoshlik-yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7-14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. U oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli harakatli mashqlar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb hisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lim berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi.

Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi erkaklarning tarbiyasiga o'xshashi mumkin emas, chunki xotin-qizlarning tabiati erkaklarning tabiatidan farq qiladi deb hisoblaydi. Arastu Platondan farq qilib, bola tarbiyasida

oila tarbiyadan chetlashtirilmaydi. Axloqiy tarbiya berish asosan oila zimmasida ekanligini uqtiradi.

Demokrit, e.a. (460-370)-yillarda yashagan. U tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo‘lib ilgari surgan olim bo‘lib, u “Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi” deydi. “Ta’lim mehnat asosidagina go‘zal narsalarni hosil qiladi” deb tarbiya ishida mehnatning roli beqiyos ekanligini takidlaydi. Uning xizmati shundaki, u inson kamolatida mehnat tarbiyasining roliga katta e’tibor berib, yoshlarga mehnat tarbiyasi berishning usullarini ko‘rsatib berganligidadir.

12.3. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif va pedagogik fikrlar

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida quldorlik jamiyatining o‘rnini olgan feodalizm V asrda paydo bo‘lib, to XVIII asrlargacha davom etdi. O‘rta asr feodal jamiyatining hayotida din va unga xizmat qiluvchi ruhoniylar g‘oyat katta rol o‘ynardilar. O‘sha davrlarda hamma ta’lim-tarbiya ishlari ruhoniylar qo‘lida qurol bo‘lib, batamom diniy ruh va xurofot bilan sug‘orilar edi.

Xristian dini ta’limotiga binoan, odam guyo gunoh ishlarga banda bo‘lib tug‘iladi, uning gunoh ishlarga moyil bo‘lgan tabiatini bosish uchun uni daxshat bilan qo‘rqitish ruhida tarbiyalash kerak. O‘rta asrda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 2 guruhga bo‘lingan va 7 fanni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturi vujudga keltirildi. 1 guruh 3 ta fandan iborat edi, shu sababli unga lotincha “trivium” nomi berildi. Bunga grammatika (lotin tili grammatikasi), ritorika va dialektika kirar edi. 2 guruh 4 fandan iborat bo‘lgani uchun uni lotincha (kvadrivium) deyiladi. Unga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirar edi. Hammasi bo‘lib bu 7 ta fanni «7 ta erkin san’at» deb atash rasm bo‘lib qoldi.

Hamma fanlarning toji deb - teologiya (din aqidalari) hisoblanar edi. O‘rta asrlarda beriladigan ta’lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilardi. Cherkov maktablarining asosiy turlari: **prixod maktabi** (ya’ni 1 cherkovga qarashli), **monastir maktabi** va **bosh cherkov yoki episkop maktablaridan** iborat edi.

Prixod maktablari boshlang‘ich diniy maktablar bo‘lib, unda o‘g‘il bolalar o‘qirardi. Prixod maktablarida bolalar xristian dini asoslari va

qoidalarini, diniy ashulalar aytishni, lotin tilida o'qish va yozishni o'rganadilar. Monastir maktablari monastir huzuridagi maktablar bo'lgani sababli shu nom bilan yuritiladi. "Monastir" maktablarida o'qitish vazifasi uchun maxsus monaxlar tayinlanardi. Monastir maktablarining quyida paxod maktabida o'qitiladigan fanlardan tashqari, yana yuqorida aytilgan "7 ta erkin san'at", ya'ni grammatika, ritorika, dialektika, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqadan dars berilar edi.

Bosh cherkov yoki episkop maktablari markaziy diniy okrugdagi bosh cherkov (sobor)ga qarashli maktablar edi. Bunday okrugda din ishlari boshqarmasi joylashgan bo'lib, uning boshida yuqori lavozimli ruhoniylar episkop turar edi. Shuning uchun bu maktablarning bosh cherkov yoki episkop maktablari deyilar edi. Bu turdagi diniy maktablarda ham faqat o'g'il bolalar o'qir edilar. Bosh cherkov maktablarida odatda yuqorida ko'rsatilgan 7 fanning hammasi o'qitilib, bu fanlardan tashqari eng oliy va asosiy fan deb hisoblangan - teologiya (din aqidalari) ham o'qitilar edi. Bu maktablarda qattiq intizom o'rnatilar edi. O'quvchilar qilgan har bir aybi uchun qattiq va shafqatsiz jazolanardilar. Bunday maktablarda odatda o'quvchilarga tan jazosi berilar edi (savallash, och qoldirish kabilar). O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada xotin-qizlar, ayniqsa mehnatkashlarning xotin-qizlari yoppasiga deyarlik savodsiz edilar. Mulkdor feodal va aslzoda tabaqasiga mansub oilalarda tug'ilgan qiz bolalar odatda xotin-qizlar monastirlari ichida yoki maxsus murabbiylar va oilaga birkutilgan ruhoniylar qo'l ostidagi uylarda tarbiya olardilar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ritsar tarbiyasi XII asrga kelib to'la tarkib topdi va rivojlandi. Ritsar tarbiyasining mazmuni ritsarlarga oid fazilatdan tashkil topdi. Bu fazilatlar quyidagilardan iborat: ot minib yurishni bilish, qilichbozlikni bilish, nayzabozlikni bilish, suza bilish, ov qila bilish, shashka (keyinchalik shaxmat) o'ynashni bilish, she'r to'kish va qo'shiq ayta bilish. Bu fazilatlardan birinchi o'rinda turgan uchtasi ritsarga berilmog'i zarur bo'lgan, harbiy tarbiyaga taalluqlidir; ritsar otliq askar, qilich va nayza esa o'sha zamon jangchisining asosiy quroli edi. Suzish va ov qilishni bilishi jismoniy chiniquish, chaqqonlik va bardoshlilikni o'stirish uchun talab qilinardi.

G'arbiy Yevropada XII-XIII asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharlarning o'sishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shaharning asosiy aholisini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o'z bolalariga amaliy faoliyat uchun zarur

bo'lgan bilim berishga manfaatdor edilar. O'sha vaqtda ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar bunday bilim bermas edilar. Shu sababli sexda birlashgan hunarmandlar va gildiyalarda birlashgan savdo ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar, sex maktablari va gildiya maktablari deyilar edi. Keyinroq borib sex va gildiya maktablari magistrat maktablariga, ya'ni shahar boshqarmasi harajatidagi maktablarga aylandi. Bu maktablarning mudir va o'qituvchilari tegishli sex, gildiya va magistratura tomonidan tayinlanardilar va ular cherkovga qaram emas edilar. Bu maktablarda pul to'lab o'qilardi. Cherkovga qarashli diniy maktablarga nisbatan, bu maktablarda diniy rasmlar bilan bir qatorda amaliy ish uchun zarur bo'lgan xatsavod va hisob malakalarini egallashga ko'proq e'tibor berilardi. Ba'zi maktablarda esa grammatika, ritorika va geometriya o'qitilar edi.

Sex, gildiya va magistrat maktablarining vujudga kelishi - G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi maktab ishining taraqqiyotida katta yutuq edi. Yevropada birinchi universitetlar XII asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Bolonya shahrida), Angliyada (Oksford shahrida), Fransiya (Parijda) tashkil kilindi. XIV-XV asrlarga kelib, universitetlar Yevropa mamlakatlarining hammasida ochilgan edi. O'rta asr universitetlari odatda to'rta fakul'tetdan tuzilgan bo'lib, bular tayyorlov fakulteti, yuridik, medisina va teologiya (din aqidalari) fakultetlaridan iborat edi. Tayyorlov fakulteti talabalari yuqorida aytilgan triviumga, kvadrivium tarkibiga kirgan fanlarni o'qir edilar. Tayyorlov fakul'tetida o'qish muddati 6-7-yilgacha, asosiy fakultetlarda esa 5-6-yilgacha cho'zilar edi.

Universitetlarda o'qitish metodlari ma'ruza, cherkov tomonidan tasdiqlangan darslik va asarlarni yodlash va disput (munozara)lardan iborat edi. Universitetlarda o'qish faqat lotin tilida olib borilar edi.

Universitet ta'limining va undagi metodlarning sxolastik mazmunidan qat'iy nazar, O'rta asr universitetlari Yevropa madaniyatining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ular ma'rifat tarqatish va o'sha davrdagi ma'lumotli kishilarni etishtirishda katta xizmat qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va tavsiyalar:

1. Qadimgi Sparta va Afinada qanday ta'lim-tarbiya muassasalari mavjud edi, ularning farqini izohlang?

2. Qadimgi Yunon faylasuflarining pedagogik qarashlarida qanday g'oyalari ilgari surilgan?
3. G'arbiy Yevropadagi maktablarga tavsif bering?
4. Ritsarlik tarbiyasi nima?
5. O'rta asr universitetlaridagi ta'lim tizimini izohlab bering?

Mustavil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo'llanma II qism. (tuzuvchilar: S.Nishonova, B.Hasanova). – T.: TDPU, 2002.
2. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. - T.: «O'qituvchi», 1997.
3. Hoshimov K., Nishonova S, Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. –T.: «O'qituvchi», 1996.
4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: “Milliy kutubxona”, 2006.

XIII BO‘LIM. YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK TIZIMI

Reja:

1. Ya.A.Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati.
2. Komenskiyning talim- tarbiyaga oid asarlari va darsliklari.
3. Komenskiy bolalarning yoshi xususiyatlari, o‘qitishning mazmuni hamda ahlok haqida.
4. Komenskiy o‘qituvchilik kasbi haqida.
5. Komenskiy pedagogik qarashlarining ahamiyati.

Tayanch tushunchalari: “Chex qardoshlari”, “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi”, “Buyuk didaktika”, “Onalar maktabi”, “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari”, tarbiyaning tabiatga uyg‘unligi, bola yoshini davrlashtirish, sinf dars tizimi.

13.1. Yan Amos Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati

Buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy 1592-yil mart oyida Chexoslovakiyaning Ugorskiy Brod degan joyida tegirmonchi oilasida tug‘iladi. Uning oilasi ruhoniy “Chex qardoshlari” jamoasiga tegishli bo‘lib, o‘zlarini Yan Tusning davomchisi deb hisoblar edilar. Yan Tus katolik cherkoviga qarshi chiqqanligi uchun uni gulhanda yoqib o‘ldiradilar. Shuning uchun bu jamoa uning g‘oyasini amalga oshirishni maqsad qilib oladi. Ularning maqsadi demokratik g‘oyani ilgari surib, Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o‘z atrofiga yig‘ishdan iborat edi.

Komenskiy ota-onasidan juda yosh etim bo‘lib qoladi. Shuning uchun u 16 yoshgacha o‘qiy olmaydi. 16 yoshida “Chex qardoshlari” jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o‘qishga kiradi. Bu erda u tarbiya tizimining yomonligini, o‘qitish uslublarining yaxshi emasligini ko‘radi. U “Men o‘sha vaqtdayoq tarbiya masalasida mamlakatimiz orqada ekanligini ko‘rdim. Fan va tarbiya hammaga tegishli bo‘lishini o‘yladim» - degan edi. Komenskiy maktabni tugatgach Gerbern universitetiga (Germaniya)da o‘qishga kiradi, uni tugatgach Geydelberg universitetida ma’ruza kurslarini tinglaydi. U erda ilg‘or professorlar

ishlar edilar.

U Avstriya, Gollandiyada bo‘lib, u erdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush bilan tanishadi, o‘rganadi va o‘zining ilmiy dunyo-qarashini kengaytiradi. U xorijiy mamlakatlardan qaytib kelgach, chex qardoshlari jamoasida ruhoni bo‘lib ishlaydi. Shu bilan birga maktab ochib, o‘zi unga rahbarlik qiladi.

13.2. Komenskiyning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari va darsliklari

O‘sha davrda urush alohida knyazliklar orasida tez-tez bo‘lib turar edi. Chex qardoshlari jamoasi o‘zining mustaqilligi uchun nemis dvoryanlari tomonidan haydaladi. Haydalish natijasida Komenskiy xotini va bolasidan judo bo‘ladi. Qo‘lyozmalari esa yo‘qoladi. Jamoa Polshaning Leshko shahrida yana tiklanadi. Komenskiy u erda gimnaziya tashkil etadi. U o‘zining qariyb 80-yillik umri davomida xalq ta’limining turli masalalariga bag‘ishlangan asarlar, darsliklar yaratadi. Masalan: 1631-yil “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi”, 1632-yilda “Buyuk didaktika”, 1632-yilda maktabgacha tarbiya masalalariga bag‘ishlab, “Ona maktabi”, 1648-yilda “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” nomli asarlar, shuningdek Pan Sofiya, logika, fizika, lotin tili, grek tili kabi darsliklar yozadi. Pan Sofiya darsligida u tabiiy va jamiyat bilimlarining yig‘indisini ifodalab beradi.

Tanqli pedagog olim S.Rajabov Komenskiyning faoliyatiga baho berib, u faqat “Buyuk didaktika” asarini o‘zini yozib qoldirganda ham pedagogikada o‘lmas iz qoldirgan bo‘lur edi, deb ta’kidlaydi.

Komenskiy yuqoridagi asarlari bilan butun dunyoga taniladi, ko‘p mamlakatlar uni taklif eta boshlaydilar. Masalan: “Buyuk didaktika” asarida ilgari surgan “Pan Sofiya” g‘oyasini (ya’ni hamma narsani bilish hamma uchun bilim berish) Angliyaning ilg‘or kishilari tomonidan quvvatlanib, parlamenti tomonidan Angliyaga taklif qilinadi.

U 1641-yil Angliyaga keladi, lekin u erda grajdanlar urushi boshlanib ketganligi sababli Komenskiy faoliyat ko‘rsata olmaydi. U Shvetsiyada lotin tili darsligini va til o‘kitish uslublarini ishlab chiqadi.

Komenskiy o‘z vatanini juda sevadi, uning mustaqilligi uchun kurash olib boradi. U o‘zining ko‘p asarlarida o‘z xalqining tilini saqashga, sevishga undaydi.

Xo'sh, Komenskiyning dunyoqarashi nimadan iborat edi? Komenskiy dunyoqarashida 3 xususiyatni ta'sirini ko'ramiz:

1. Natural falsafaga asoslanishi (ya'ni XVI-XVII asrda yashagan ingliz faylasufi Bekon nazariyasiga asoslanishi). U Bekonning sensualistik falsafa nazariyasini ravojlantiradi. Komenskiy ham o'qitish jarayoniga shu nuqtai nazardan qarab, bilim sezishdan boshlanadi, sezish bo'lmagan erda bilim ham yo'q deydi.

2. Talim va tarbiyani diniy talimot bilan qo'shib olib borish. Uyg'onish davri ta'sirida vujudga kelgan tarbiyani takomillashtirish (yani odamlarga nisbatan muhabbat, odamlarning yaxshilik yaratishga ishonch bilan qarashi).

3. Komenskiyning o'z dunyoqarashida tashqi ob'ektiv dunyoni hukm surishiga ishonadi, dunyo qarama-qarshiliklardan iborat ekanligiga, qotib qolgan emasligiga, u o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga, ya'ni xudoga tegishli ekanligiga ishonadi.

Borliq dunyoni sezish organlari orqali bilamiz. Agar aql ojizlik qilsa, xudoga yolvorish kerak deydi.

Komenskiyning dunyoqarashida stixiyali materializm va realizmning ba'zi belgilari bilan dindorlik g'oyalarini bog'lanib ketganligini ko'ramiz. Bu uning pedagogik nazariyasida ham o'z aksini topadi. U bir tomondan tabiiy bilimlarini egallashga undasa, ikkinchi tomondan dinni o'rganishga, diniy axloqni yoqlashga undaydi.

13.3. Komenskiy bolalarning yoshi, hususiyatlari, o'qitishning mazmuni hamda ahloq haqida

Komenskiy shuningdek o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchasini ilgari suradi. Masalan: Bog'bon daraxtlarini parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini xhsobga oladi. O'qituvchi ham bolani tarbiyalash bilan undagi xususiyatni hisobga oladi. Bog'bon o'sish qonuniyatini hisobga olsa, o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysunadi, o'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi deydi. Lekin tabiat qonunini kishining o'sishiga olib kelishi noto'g'ridir. Kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi. U tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan:

Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; er, suv, havo, yorug'lik.

Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular:

- bahor, yoz, kuz, qish, (ya'ni asoslar).

Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi:

- go'daklik – 0-6 yosh,
- bolalik – 6-12 yosh,
- o'smirlik - 12-18 yosh,
- etuklik – 18-24 yosh.

Shuningdek talim jarayoni ham 4 ga bo'linadi:

- maktabgacha tarbiya,
- boshlang'ich ta'lim,
- o'rta ta'lim,
- oliy ta'lim.

Komenskiyning umumiy ta'lim g'oyasi quyidagicha edi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga qirishi shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak degan g'oya mavjud edi. Komenskiy aksincha hammani o'qishga tortilishini, hamma umumta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. Chunki o'sha davrda xotin-qizlarni o'qishi muammo edi. Shunga qaramay, u bu masalani ilgari suradi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatib o'tib, buni 3 xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin deydi. Bular:

- aqliy,
- ahloqiy,
- diniy.

Bu vazifalarni bola tug'ilgandan to 24 yoshgacha amalga oshirilishi kerak deydi. Bu davr ichida bola to'rtta maktabni o'qib tugatishi, har birida olti-yildan o'qishi kerak deydi. Komenskiy bolani yosh xususiyatlarini tabiiylik prinsipiga amal qilib davrlarga bo'ladi.

1. Tug'ulgandan 6 yoshgacha. Ona maktabi - bunda bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishiga jalb etish kerak. Ona bolada axloqiy tarbiyaning asoslarini to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevishtirish va hokazolarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha - xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o'quvchi eslashi, so'zlashga o'rganishi, yozishi, boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak bo'lib, buning uchun geometriya,

geografiya, tabiyot, fanlarini o'rganishi kerak bo'ladi.

3. 12-18 yoshgacha gimnaziya. Bunda bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirish kerak, klassik tillar, tabiyot bilimlari, axloq, xudogo'ylik fanlari o'qitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha universitet, akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasi, kishi shaxsini bir butun o'stirishi kerak. Shunday qilib yuqoridagi biz ko'rib o'tgan to'rt maktab Komenskiyning qarashicha o'quvchilarni o'ylashga mehnat qilishga, masalalarni mustaqil echa bilishga, so'zlashga, o'z fikrlarini to'g'ri ifoda qilishga va isbotlab berishga o'rgatishi kerak deydi.

“Mehnat kishini ulug'laydi” - deydi Komenskiy. Shuning uchun bolani mehnatga yoshlikdan o'rgatish kerakligini isbotlab beradi. Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim-o'qitish katta o'rin egallaydi. Bunda u tabiiylik usulini asos qilib oladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda bolaning yoshi, bilim darajasi, psixologik xususiyatlari hisobga olinib darsni tabiat borlig'iga moslab olib borish kerak degan g'oya ilgari suriladi.

Komenskiy o'zining “Buyuk didaktika” asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyilga amal qilishni tavsiya etadi:

1. Onglilik va faollik tamoyili;
2. Ko'rsatmalilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarini guruhda egallash tamoyillari.

1. Onglilik va faollik tamoyili o'qitishda ma'no-mazmunga tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. Bilim va malakalarning faol ravishda aniq, har bir narsani aql, idrok bilan yaxshi tushuna bilish kerakligi, zo'rlab yodlatmaslik kerak deb hisoblaydi.

2. Ko'rsatmalilik tamoyili - Komenskiy bu tamoyilni nazariy jihatdan isbotlab berdi. Talim jarayonida ko'rsatmalilik prinsipini joriy etish uchun qo'yidagilarga amal qilish zarur deb hisoblaydi. Mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holda kuzatishlar o'tkazish; Narsalarning shaklini yoki nushasini ko'rsatish; Narsa va hodisalar tasvirlangan suratlarni ko'rsatish.

Komenskiy ko'rsatmalilikni o'qitishning “Oltin qoidasi” deb atab, bolaga real narsalarni ko'rsatish, dunyoni narsalar orqali tushuntirish, o'qitilayotgan, o'rganilayotgan narsalarni ushlab, ko'rish, hidlash,

eyish bu orqali o'rganilayotgan materialning chuqur bo'lishiga, uzoq vaqt esda saqlanishiga yordam beradi deb ko'rsatadi.

3. Izchillik va tizimlilik tamoyili - bunda fan asoslarini izchil bayon qilish va sistemali tarzda o'rgatish talab etiladi. Izchillik tamoyilida, kun, oy,-yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi, material izchillik bilan o'rganilishi, ya'ni bugungi material ertangi kun bilan bog'lanilishi va keyingi o'tiladigan darslarga yo'l ochish kerakligi nazarda tutiladi.

Komenskiy fikricha ta'lim boshidan boshlanishidan oxirigacha izchil davom etsin, talimning poydevori mustahkam qurilsin, hozir o'rganilayotgan bilimlar oldingisiga asoslansin, keyingisiga yo'l ochsin.

Komenskiy talimning izchilli va tizimli bo'lishini talab qiladi. O'qitilayotgan fan o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Aniqlikdan mavhumlikka, osondan qiyinga, umumiydan xususiya o'tish kerak, avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini ayrim ayrim o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

4. Komenskiy mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyiliga katta e'tibor beradi. O'qitilayotgan fanlarning bir-biriga bog'lab olib borish lozim deydi. Har bir mavzu qisqa aniq qoidalar asosida tushuntirib berilishi kerak. Bu esa o'tilgan darslarni mustahkam o'zlashtirishga olib keladi. Takrorlangan dars matnlari esda yaxshi saqanib qoladi, ovoz chiqarib takrorlashning foydasi ko'pligini ko'rsatadi. Mashqlar va takrorlashsiz o'qitishni tasavvur etish qiyin. Takrorlash o'qitishning onasi degan hikmat ham shundan kelib chiqqan. Komenskiyning fikricha mashq ishlash va takrorlash tamoyili o'quvchilarning ongliligi va faoliliga asoslanib, bilimlarni puxta egallashga xazmat qilishi kerak.

Komenskiy o'quvchilarning bilish qobiliyatini o'stirishga, bilimga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishga va ilm ishiga bo'lgan g'ayratini oshirishga intiladi.

Komenskiyning yana katta xizmatlaridan biri sinf dars tizimini ishlab chiqqanligidir. U sinf darsligini ishlab chiqib, o'qituvchi butun sinf

bilan jamoa bo‘lib ish olib borishini, ya’ni sinf dars tizimida o‘qitishni tavsiya etadi. Dars vaqtida o‘tgan darsni qaytarish yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko‘rsatadi. Darsni rejalashtirish va olib borish to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlarida faol qatnashishlarini ta’minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini aytadi.

U maktabda o‘quv-yilini choraklarga bo‘lish, ta’tillar berish, o‘quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinishi ya’ni o‘qish kuzda sentyabrda boshlanishi kerak deb, o‘quv kunini Ona tili maktabida 4 soat, lotin tili maktabida 6 soat deb belgilaydi.

Komenskiy darslik qanday bo‘lishi to‘g‘risida ham qimmatli fikrlar aytib, o‘zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshiradi. Uning fikricha darslikda o‘quv materiali etarli bo‘lishi, oddiy mazmunli bo‘lishi, tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo‘lishi kerak. Bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart deydi.

Bu fikrlarni o‘zining “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi” (1631) va “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” (1648) kabi darsliklarida bayon etadi. Uning ayniqsa “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari” kitobini boshlang‘ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan “Ensiklopediyasi” deyish mumkin. Bunda 150 ta suratlar berilgan bo‘lib, tabiat haqida, odamning faoliyati haqida, ijtimoiy hayot haqida ma’lumotlar beradi. Bu kitob ko‘p tillarga tarjima qilindi. Boshlang‘ich talim uchun 150-yildan ko‘proq darslik bo‘lib xizmat qildi.

Komenskiy axloqiy tarbiya, intizom haqida ham o‘z fikrlarini bildiradi. Uning fikricha yoshlikdan boshlab bolada axloq va odob hosil qilish kerak. U axloqiy tarbiya vazifalariga kamtarlik, pokizalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmat qilishni, mehnatsevarlik hislatlarini tarbiyalashni kiritadi. U axloqiy tarbiya vositalariga: ota-ona, o‘qituvchi namunasi, o‘rtoqlarining namunasi, bolalarga yo‘l yo‘riq ko‘rsatish, ular bilan suhbatlar o‘tkazish, bolalarni yaxshi xulqqa o‘rgatishda mashqlar o‘tgazish, yalqovlik, intizomsizlikka qarshi kuzatishni kiritadi.

13.4. Komenskiy o'qituvchilik kasbi haqida

Komenskiy intizomning ahamiyati borligini ko'rsatib "Intizomsiz maktab suvsiz tegirmondur" degan chex maqolini keltiradi. U O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan uradigan intizomga qarshi chiqadi. Kaltak, xipchin - qullik qurolidir deydi. U bolalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya etadi. Bunda u o'qituvchi namuna ko'rsatishi, samimiy ochiq xayrixohliga, o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati, bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari ichida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi deydi.

Komenskiy o'qituvchining vazifasi haqida fikr bildirib o'z davridagi iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid qiladi.

O'qituvchilikni "er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda fahrli kasb" deb hisoblaydi. O'sha davrda o'qituvchiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy axolining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etish bilan o'qituvchining ham vazifasini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha o'qituvchi sof vijdonli ishchan axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'quvchilarga o'z farzandlaridek muomala qilishi, o'zi namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirishi kerak deydi.

13.5. Komenskiy pedagogik qarashlarining ahamiyati

Hulosa qilib aytganda Komenskiining pedagogik nazariyasi va "Buyuk didaktika" asarida o'qitish haqida ilmiy ta'limot yaratildi va quyidagi masalalar asoslab berildi. Insoniyat baxt-saodatining muhim vositasi sifatida umumiy ta'limni amalga oshirish; yosh avlodga chuqur va keng ma'lumot beradigan maktablar tizimini yaratish, xotin-qizlarga ham erkaklar singari bilim, ma'lumot berish; maktabgacha tarbiyaning mukammal tizimini ishlab chiqish, hamma bolalarga aniq bilimlar berishni talab etish; didaktik tamoyillarini asoslash; ta'limning sinfdars tizimini yaratish.

Shunday qilib ajoyib slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmiga, pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham butun insoniyat Komenskiyni behad qadrlaydi.

Uning darsliklari ko'p tillar, jumladan rus tiliga tarjima etiladi.

Komenskiyning yozgan asarlari 150-yildan ortiq boshlang'ich ta'lim uchun darslik sifatida xizmat qildi. Uning pedagogika sohasida yaratgan darsliklari hozirgacha o'z qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ya.A.Komenskiyning tarbiyaning vazifasi, maqsadi, ahamiyati haqidagi fikrlarini izohlang?
2. Tarbiyaning tabiatga uyg'unligi deganda nimani tushunasiz?
3. Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi nimalardan iborat edi?
4. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi haqida qanday fikr bildirgan?
5. Komenskiyning ta'lim tizimidagi didaktik talablari nimalardan iborat edi?

Mustaqil o'qishga tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Ya.A.Komenskiy. "Buyuk didaktika". -T.: O'qituvchi, 1975.
2. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo'llanma II qism tuz. (S.Nishonova, B.Hasanova). T.: TDPU, 2002.
2. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi O. Hasanboyeva. -T.: O'qituvchi, 1993.
3. Hasanov R. Pedagogika tarixi kursini o'rganish uchun uslubiy tavsiyalar. - T., 1990.
4. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997.
5. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996.
6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: A.Novoiy nomidagi O'z.Res "Milliy kutubxona" nashryoti, 2006.

XIV BO'LIM. IQTISODIY RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA TA'LIM TIZIMI

Reja:

1. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
2. AQSHda ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Fransiya ta'lim tizimi.
5. Germaniyada ta'lim tizimining rivojlanishi.
6. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustakil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro hamkorlik masalalari.

Tayanch tushunchalar: AQSH ta'lim tizimi, Fransiya ta'lim tizimi, Yaponiya ta'lim tizimi, Germaniya ta'lim tizimi, Buyuk Britaniya ta'lim tizimi, "Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch", "2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi" dasturi, "Merit" dasturi, AKSELS Markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, "Gomogenlar", "Yarim gomogen", "Gegeron", "Ixtisos maktablari", "Davlat maktablari", "Xususiy maktablar", "Oraliq maktablar", "Kollejlar", "Dorilfununlar".

14.1. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif ishlarining yo'lga qo'yilishi

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarda ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini etishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda

eng ilgʻor pedagogik vositalarni qoʻllash, taʼlimda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yoʻl ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini oʻrganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng koʻlamdagi islohotlarni oʻz boshidan kechirayotgan bizning taʼlimimiz uchun bu katta ahamiyatga egadir.

Keyingi-yillarda chet el taʼlimi boʻyicha koʻpgina maqolalar, broshyuralar, qoʻllanmalar chop etildi, unga bagʻishlab seminarlar, anjumanlar, oʻquvlar, uchrashuvlar oʻtkazildi. Bu bizning taʼlim tizimlarimizda, chet ellarda oʻquv-tarbiya ishlarining qoʻyilishiga etibor va qiziqishning tez surʼatlar bilan oʻsib borayotganligidan dalolatdir. Xalq taʼlimi tizimlarida chet el taʼlimini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Xalq taʼlimi vazirligidan tashqari bu masala bilan Respublika taʼlim markazida, Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus boʻlimlar faoliyat koʻrsatmoqda, malaka oshirish markaziy institutida bir qator kafedralar ish bilan shugʻullanmoqdalar.

Chet el taʼlimi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchilik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamgʻarmasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, YuNESKO va YuNISEFning vakolatxonalari va boshqa koʻplab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar.

Darhaqiqat rivojlangan xorijiy davlatlarda taʼlimning, mamlakat ichki siyosatiga faol taʼsir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, eʼtirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy taʼminlashga ajratilayotgan mablagʻ miqdori-yildan-yilga oshib bormoqda. Yaponlarda, masalan, “maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli”gina boʻlib qolmay, “u insonlarni yaxshilaydi”, degan fikr ishonch va eʼtiqodga aylangan.

Taʼlim toʻgʻrisidagi gʻamxoʻrlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat eʼtiborida boʻlgan. Shuning uchun ham AQSHning sobiq prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiyaning sobiq prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni “Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch” deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshira-

digan ko'psonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchilining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. O'tgan asrning 80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ularning ota-onalari ixtiyoridadir.

“Yangi dunyo”ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etmoqda. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilmoqda. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, axolishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyin Amerika ta'limi yo'lidani bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musika ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musikasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iktisodiy rivojlangan davlatlarda o'tgan asrning 60-80-yillarda tabiiy ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astranomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Fransiya 4-yil, Buyuk Britaniyada 6-yil, Germaniyada 2-yil o'qitiladi. O'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiya 70-80-yillarda to'liksiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental,

iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirilgan. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratilgan.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, Fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar:

1. Gomogenlar - matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar.

2. Yarim gomogen - tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar.

3. Gegeron - barcha predmetlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar va xokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda. To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi, AQSH va G'arbiy Yevropada o'zlashtirmovchi hamda ulgurmovchi o'quvchilarning ko'payib borayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligidir.

Yigirmanchi asrning 80-yillarda AQSH o'quvchilarinig 50-yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushdi. Fransiya har uch litseychidan biri bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi. To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQSH da bu xizmatga ommaviy axborot vositalarinig imkoniyatlari ham safarbar etilgan. Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etiladi. O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet el mamlakatlarining ko'pchiligida tadqiqotlar davom ettirilmoqda. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobar ilgarilab ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'quvni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov-shuvlarga

sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Shunday iqtidorlar maktabi G'arbdao'tgan asrning 60-yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQSHda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli bolalar maktab dasturida o'qitiladilar. AQSHda "Merit" dasturi asosida har-yili yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o'quvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart-sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi. Lekin iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o'quvchilarning taqdiri ham chet ellik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holning kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma'lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko'rsatayotir.

AQSHda 70-yillarda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutish, ko'proq o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar sonini qiskartirish sari yo'l tutilgan. Bunday o'quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlari:

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish;

- o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish;

- tarbiyaning yangi formalarida - o'quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish;

- maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro

aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;

-maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish;

-tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif o'quvchilar uchun) rivojlantirish;

-yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarini ta'limdagi salmog'ni oshirish, o'qituvchilar korpusida kompyuter ta'limini yo'lga qo'yish;

-pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment - tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash yosh, mustakil Resublikamizda o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonlarini tezlashtiradi.

14.2. AQSH da ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga hos hususiyatlari

Amerika qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:
-bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

-1-8-sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

-9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika qo'shma shtatlarida navbatdagi ta'lim boskichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4-yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiylar tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan 5 yoshgacha xususiy yoki davlat bog'chalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar bog'chalari kichik va bu tizim kam rivojlangan.

Enaga yonlash bir haftada 200 dollarga tushadi. Bog'chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak bo'luvchi hamma jihozlar va kuchlik ovqatni ota-onalarning o'zi olib keladi. 5 yoshdan esa "Kinder garde" deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi.

Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodhonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8-yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shovlar va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi.

1-kasb-hunar ta'limi, 2-biznes ta'limi, 3-savdo va sanoat ta'limi, 4-qurilish ta'limi. Oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

1-kichik mutaxassis - 2-yillik kollejlarda amalga oshiriladi. 2-bakalavr 4-yillik kollejlarda, 4-yillik kollej yoki dorifununni tugatgan 3-bosqichni davom ettirish mumkin, bu 1-2-yillik magistr maktabi. 4-bosqich aspirantura, doktorantura. Maktablarda, ta'lim televidiniyasi, elektron til laboratoriyasi, vidioapparatura, kompyuter va hakoazolarni qo'llash yo'lga qo'yilgan. Maktablar ta'lim vaqtida ham ishlab turadi. To'garaklar, qayta tayyorlash ishlari olib boriladi. Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: 1-ta'limni individuallashtirish, 2-talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish. O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intilektini mashq qildirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, AQSH o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarida bilim beradilar. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi, biznes ta'limi, savdo va sanoat, qurilish bo'yicha hunar, kasb-kor asoslari o'rgatiladi.

AQSHda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'quvchilar yuqori o'rta maktabning so'ngi ikki-yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il-qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda qullanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv

apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar), ta'lim televidiniyasi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparatlar, kompyuter va hokazolardan iborat.

XXI asr arafasida AQSH yangi qabul qilingan "2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi" dasturi e'lon qilindi. Turli yo'nalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasturda 2000-yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari:

- aholining 90 foizi oliy ma'lumotli bo'lishi, o'quvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo'yicha jahonga o'z iqtidorlarini namoyish eta olishlari;

- talabalarining tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlashtirishda jahonda eng oldingi o'rinlariga chiqishlari;

- har bir voyaga etmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari;

- maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish, o'qish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Bu AQSH ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSH jahon mamlakatlari orasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining mablag'lari tashkil qiladi.

AQSHdagi fundamental izlanishlarning bevosita ijrochisi oliy o'quv yurtlari, ularni mablag' bilan ta'minlab, ishlab chiqarishga tatbiq etuvchilar esa, turli sanoat, qurilish va boshqa tashkilotlardir. Ishlab chiqarish korxonalari dorulfununlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, dorilfununlarning qariyb 70 foiz ilmiy xodimlari turli firmalarda tadqiqotchi maslahatchi bo'lib ishlaydilar. Dorilfununning ilmiy xodimlari, ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy laboratoriyalariga boradilar.

O'qituvchi kadrlarni tayyorlash 4-5-yilga mo'ljallangan dastur asosida amalga oshiriladi, so'ngra 4-6 oy amaliyot o'tiladi.

Ta'limni xaddan ziyod demokratlashtirilishi talabalarining bilimini puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu sababli shunday boy moddiy bazaga va tajribaga ega davlatda butunlay savodsiz bo'lgan talaygina bolalar topiladi.

14.3. Yaponiyada ta'lim-tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: birinchi - boyish, ikkinchi - G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasiin qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi.

1872-yili "Ta'lim haqida"gi qonun qabul qilindi. Bunda Yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. 1908-yilda Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6-yillikka aylantiriddi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollejlari paydo bo'ldi.

1946-yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari belgilab qo'yilgan.

Yaponiyada hozirgi zamon ta'lim tizimlarinig tarkibi quyidagicha: bolalar bog'chalari, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlaridan iborat.

Bolalar bog'chalari. Ta'limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1-yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6-yillik boshlang'ich maktab va 3-yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9-yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar.

Yuqori o'rta maktab. Bu maktablar ta'lim yo'nalishining 10-,11-,12-sinflarini o'z ichiga oladi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqichli maktablarida o'qish muddati 3-yil. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. Bu tarzda maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Unda quyi o'rta maktablarni bitirgan yuqori bosqich o'rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi yoshlar qabul qilinadi. Unda umumiy ta'lim (akademik) fanlari, texnik bilimlar, tijorat, mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo'shib hisoblaganda 95

foiz yosh bilim oladi.

Dorilfununlar, kichik kollejlari, texnik kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlari Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Yaponiyada boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlaridan tashqari, bir-biridan farq qiluvchi "Ixtisos maktablari" va "turli" maktablar ham mavjud. Ularning ko'pchiligi xususiy bo'lib, turli firma, konsern va sindikatlar uchun qisqa vaqtli kurslarda tikuvchi, oshpaz, hisobchi, mashinkada yozuvchi, avtotexnik, elektron hisoblash mashinalari uchun dastur tuzuvchilar va boshqa zaruriy kasblar o'rgatiladi. Yaponiyada ham turli xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud.

Boshqa maktablardan farqli o'laroq, Yaponiya maktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib, kelasi-yilning 31 martida nihoyasiga etadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'quv-yili uch semestrda bo'linadi: aprel-iyul, sentyabr-dekabr, yanvar-mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv-yili 2 yoki 3 semestrda bo'linadi.

O'quv-yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi. O'quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repetitorlar ixtiyorida bo'ladilar.

Yuqori bosqich o'rta maktablarida butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashkari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladilar. Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, mutaxassislarning fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har kancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag'ni vazirlik ajratadi. Yuqorida kayd etilgandek, darsliklar boshlang'ich va quyi o'rta maktablarda bepul, yuqori o'rta maktablarda esa pullikdir. Darsliklar narxi shundayki, ularni harid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalanilgan darsliklar pullik bo'lsa ham, tekin bo'lsa ham o'quvchining o'zida qoldiriladi.

Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar

qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas. O'qituvchilar 4-yillik dorilfununlarda va 2-yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o'quv yurtlarinig bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi.

Maktab direktori bo'lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo'lish shart. Yapon o'qituvchilarinig jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta. Binobarin, ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o'qituvchi jamoa va kasaba uyushmasiga a'zo. Bu ularga ta'lim mazmunini va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi.

Yapon o'qituvchilari har 5-yilda malaka oshirish kurslarida o'qib qaytadilar. Malaka oshirish o'qituvchilarning o'zlari uchun katta hxtiyojdir. Chunki Yaponiya maktablari dasturi 10-yilda davr taqzosiga ko'ra o'zgaradi. Dasturlardagi-yillik o'zgarishlar esa anjumanlar o'tkazish yo'li bilan o'qituvchilarga etkazib boriladi.

O'qituvchilar o'zlariga ishonib topshirilgan 35-40 o'quvchining bilimi va tarbiyasi uchun javobgardirlar. Shu bois ular darsdan bo'sh vaqtlarini o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan suhbatlarga, xonadonlarga tashrif ishlariga bag'ishlaydilar.

Yaponiyada oilaviy budjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Bola tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydilar.

Turli ta'limiy ko'nikmalarni bolalar ongiga singdirish yapon maktablariga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldnda nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, 6-sinf o'quvchisi kamida 2 ta cholg'u asbobida kuy chala bilishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemaolol suza olishi kerak.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12-yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U erda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi; buning uchun

yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar. Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi. Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shaxobchasiga ega (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi). Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4-yillik o'qish 5-6-yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Kollejlar:

-1-kichik kollej;

-2-texnik kollej;

-3-maxsus kollejlarga bo'linadi. Uni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 2- yoki 3- kurslariga qabul qilinadi.

Yapon dorilfununlarida talabalar o'quv jarayonida 140-150 sinov birligi (kredit) topshiradilar. Ularda baho mezoni - "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli", "qoniqarsiz". Yapon dorilfununlari asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Shunga qaramay, Yaponiyada "Dorilfunun kishini bilim va kasbga yo'naltiradi xolos, uni takomillashtirish, mukammallashtirish o'ziga bog'liq" deb hisoblaydilar.

Yaponiya dorilfununida bitiruvchilarning mutlaq ko'pchiligi xalq xo'jaligining turli sohalarida samarali mehnat qiladilar. Oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Ming kishiga 190 ta oliy ma'lumotli mutaxassis to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich AQSHda har ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, Fransiya 115 nafardir.

Yaponiya ta'limining asosiy maqsadi va mazmuni aholini zamonaviy texnik hamda texnologik jarayonlar bilan jihozlangan hozirgi zamon sanoatida samarali ishlashga moslashtirishdir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvchi, jamiyatning olg'a siljishini ta'minlovchi dargoh deb qaraladi va xalq tomonidan e'zozlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni - Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi Amerika, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan.

14.4. Fransiya ta'lim tizimi

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda "Ta'lim haqida"gi qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan "Ta'lim haqida"gi qonuni 1989-yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatdagi ichki-tashqi siyosatidagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalashuvi va boshqalar sabab bo'lgan.

Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatda tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-hunarga ega qilishdan iboratdir. Bu erda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablar mavjud.

O'qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo'lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O'rta haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 minut. O'quv-yili 5 chorakka bo'linadi. Fransuz maktablari boshlang'ich sinflarda o'qish ertalabki va tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanok maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiya 100% shu yoshdagi bolalar kamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narhlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki-yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Tayyorlov bosqichi - 1-yilga mo'ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o'rgatiladi.

Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo'lib, bu bosqichda o'qish 2-yil davom etadi. Bunda o'quvchilarning tayyorlov siklida predmetlar bo'yicha olingan bilimlarni yanada takomillashtiriladi.

Boshlang'ich maktabning 3-bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o'quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Fransuz maktablarining boshlang'ich bosqichida "Grayasdanlik ta'limi", "Nafosat ta'limi" ham o'qitiladi. Nafosat ta'limiga musiqa, tasviriy san'at, sport kiritilgan. O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag'batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ta'limda uzluksiz va vorislikni ta'minlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yilgan bosh talabdir.

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi bolalar bilimiga to'la masul ekan, uning uslub tanlashiga, mustaqil harakat qilishiga ham to'la erkinliklar beriladi.

1990-yildagi hukumat qaroriga muvofiq, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga, u yoki bu fanga moyilligiga qarab tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu asosda tuzish huquqi beriladi. Bunday dars jadvallari-yillik, yarim-yillik, choraklik asosida tuzilishi ham mumkin.

O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta

maktabga o‘‘tadilar. O‘rta ta‘lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O‘rta ta‘lim ikki bosqichda:

Birinchi bosqichda quyidagi predmetlar o‘rgatiladi: fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tibbiy fanlar.

Shunday qilib 6-5-sinflarda umumiy o‘rta ta‘lim beradi: 4-3-sinflarda o‘quvchilarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Birinchi bosqich yakunlagach, o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar.

Shundan keyin o‘quvchilar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta‘lim oladilar. O‘qish 3-yil davom etib 2-sinf kichik, 1-sinf o‘rta va yakunlovchi sinflarga bo‘linadi.

O‘quvchilar umumiy ta‘lim va texnik litseylarni tugattanlaridan so‘ng bakalavr unvoni va diplom ish uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo‘lganlarga oliy o‘quv yurtlariga kirish huquqini qo‘lga kiritadilar. Fransiyada talablar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma‘muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko‘riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo‘lgan yoshlar imthonsiz qabul qilinaveradi.

Fransiyada oliy ma‘lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko‘rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O‘kish muddati 2-yil bo‘lib, sakkiz xaftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko‘zda tutadi.

Sirtqi ta‘lim shohabchalari juda keng bo‘lib, u 500 turdagi o‘rta, oliy professional ma‘lumot berishni tavsiya eta oladi.

Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta‘limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o‘qiydilar. Bunday markazlarda ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta‘limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi psixologik muhitni barpo etish kabi jihatlarni o‘rganadi. O‘qishni yakunlagach, suhbatdan, test imtihonlaridan o‘‘tadilar.

Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyati ikki-yil davomida diqqat bilan kuzatib boriladi. Aksariyat hollarda direktorlar maktab qoshidagi uyda yashaydilar. Shu ikki-yil davomida maktab direktori talantli tashkilotchi, etuk rahbar sifatida faoliyat ko‘rsata olmasa, u

yana qaytarilib o'qituvchilikka o'tkaziladi. Direktor 65 yoshdan so'ng umuman ishlamaydi.

O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi.

Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq-atvor egasi bo'lmog'i lozim.

O'qituvchilar o'z nazariy-uslubiy malakalarini oshirishga katta ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan o'tish uchun aniq muddat belgilab qo'yilmagan. Vaqti-vaqti bilan o'qituvchilar o'z ixtiyorlari bilan test markazlarida imtihon topshiradilar. Shu imtihonlar davrida o'qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o'z vaqtlari va mablag'lari hisobiga malaka oshiradilar.

14.5. Germaniyada ta'lim tizimining rivojlanishi

Ta'kidlab o'tish joizki, Germaniyaning bozor iqtisodiyotga o'tish yo'li bizning Respublikamizdagiga o'xshab ketadi. Ikki German davlati birlashgandan keyin sobiq Germaniya Demokratik Respublikasida ta'limni isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham bizning sharoitimizga maqbul keladi. Germaniyaning hozirgi davr maorifidagi asosiy muammosi sobiq GDRdagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida kuchli oltilikka kirgan.

Germaniya ta'lim tizimlarining bayoni quyidagicha.

Germaniyada ta'lim tizimi: Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100-yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar,

xususiy shaxslar, diniy muassaslar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bogʻchalariga oʻz farzandlarini tarbiyalanganliklari uchun ancha miqdorda pul toʻlaydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bogʻchalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bogʻchada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada boʻladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bogʻchalar ham bor.

Majburiy taʼlim 6 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan bolalarga tegishli. Bu jarayon 12-yil davom etadi. Bundan 9-yillik (baʼzi joylarda 10-yil) maktabda toʻla haftalik oʻqishni bitiradi, keyin hunar-texnika bilim yurtida toʻla boʻlmagan haftalik oʻqishda oʻqiydi. Oʻqish davlat maktablarida tekin. Maktab oʻquvchilariga oʻquv qoʻllanmasi, asosan darsliklar tekin taʼminlanadi. Xususiy maktablar ozroq. Oʻqish 6 yoshdan boshlanib, 4-yil davom etadi (faqat Berlinda 6-yil). Boshlangʻich maktabdan soʻng oʻquvchilar yoʻnalish bosqichidagi maktabga oʻtadilar. Bu erda 5-6-sinf bosqichdagi yoʻnalish maktablarda maxsus dastur asosida oʻqiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga koʻchadilar, bular: **asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari**. Deyarli 30% bola asosiy maktabga oʻtadi. 9 yoki 10-yillik oʻqish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka oʻtiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega boʻlgan bolalar oʻqiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori maktabi oʻrtasida turadi. Qoidaga koʻra bu erda oʻqish 6-yil davom etadi (5-10-sinfgacha) va toʻla maʼlumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar oʻrta maxsus oʻquv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib oʻqish hukukiga ega boʻladi. Germaniyada gimnaziya ham mavjud. Ular 5-13-sinflarni oʻz ichiga oladi. 11-13-sinflar oliy oʻquv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

